TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SAMAD VURG'UN

63

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SAMAD VURG'UN

63

1619326
TDTU
ARM (KUTUBXONA)

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.162-3
KBK 84(5Ozar)
S 28

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Tohir Qahhor, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Muhiddin Omon

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8733-0-8

©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

ELPARVAR SHOIRNING O'LMAS MEROSI

Samad Vurg'un taxallusi bilan ijod qilgan atoqli shoirning asl ism-sharifi Samad Yusuf o'g'li Vekilov bo'lib, u 1906-yilning 12-may kuni Ozarbayjonning Yuxari Salaxli qishlog'ida tug'ilib, 1956-yilning 27-mayida Boku shahrida vafot etgan.

Samad Vurg'un atoqli ozarbayjon shoiri, dramaturg va jamoat arbobidir. U 1943-yilda Ozarbayjonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, 1945-yilda esa Ozarbayjon Fanlar akademiyasi akademigi, 1955-yilda Ozarbayjon Xalq shoiri unvonlariga sazovor bo'lgan.

Shoirning ilk ijodiy faoliyati 1924-yildan boshlangan.

Samad Vurg'un ijodining dastlabki davrida ozarbayjon she'riyatiga kirib kelayotgan formalizm ko'rinishlariga qarshi kurashgan. Xususan, uning "Shoirning qasami" (1930), "Fonar" (1932) she'riy to'plamlari, "26" (1935), "Basti" (1937), "Toliston" (1938) va "Mug'on" (1940) dostonlarida XX asrning 30-yillaridagi mehnat va kurash romantikasi o'z ifodasini topgan.

Samad Vurg'unning shu davrdagi ijodida "Voqif" she'riy dramasi (1937) alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda XVIII asrda yashagan ozarbayjon shoiri Voqifning mashaqqatli hayoti va ijodiy faoliyati katta mahorat bilan tasvirlangan. Shuningdek, uning Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostoni asosida yozilgan"Farhod va Shirin" dramasi (1941) ham ozarbayjon teatr san'atining rivojida muhim o'rin tutadi. Shoirning "Xonlar" (1939) she'riy dramasi, "Ona so'zi" (1941), "Oygun" (1951), "Negr so'zlaydi" (1948) dostonlari hamda "Yondirilgan kitoblar" (1947) she'riy to'plami uning xalq orasidagi shuhratini yanada oshirdi. Insonparvarlik, vatanparvarlik va xalqlar o'rtasidagi qardoshlik va do'stlik tuyg'ularini tarannum etish Samad Vurg'un ijodining g'oyaviy asoslarini tashkil etadi.

Atoqli ozarbayjon adabiyotshunoslari hamda tilshunoslarining e'tirofiga ko'ra, Samad Vurg'un ozarbayjon she'riyatida zamo-

naviy til va uslubning shakllanishiga katta hissa qo'shgan. U o'z ijodiy faoliyati davomida Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Shota Rustaveli, Aleksandr Pushkin, Taras Shevchenko, Maksim Gorkiy kabi jahonga mashhur adib va shoirlarning asarlarini ozarbayjon tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Uning bir qancha she'r va dostonlari o'zbek tilida nashr etilgan. Jumladan ushbu saylanma shoirning o'zbek tilida 1953-yilda "O'zdavnashr" nashriyotida chop etilgan "Tanlangan asarlar", 1978-yilda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida chop etilgan "Yurakdagi so'z" hamda 1990-yilda dunyo yuzini ko'rgan "To'rt so'z" nomli kitoblari asosida tartiblandi. Albatta, shoirning she'r, ballada va dostonlaridagi ayrim lavhalar bugungi kun nuqtayi nazaridan juz'iy qisqartirish va tahrirlar asosida taqdim etilmoqda. Kitobga kiritilgan asarlarni o'zbek adabiyotining ustoz shoir va tarjimonlari Mirtemir, Nasrullo Oxundiy, Ahmad Bobojon hamda Razzoq Abdurashidlar o'zbek tiliga o'ta nozik did, ajib zarofat va mahorat ila o'girishgan.

Kitobdan o'rin olgan so'zboshi 1953-yilda chop etilgan "Tanlangan asarlar" nashri uchun O'zbekiston Xalq shoiri, atoqli dramaturg va adabiyotshunos Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub.

Unda, Samad Vurg'un ijodining tub ildizlari, mazmun-mohiyati va asl maslak-muddaolarini juda teran va muxtasar tarzda ochib berilgani sababli Shayxzodaning ushbu maqolasi bugungi kun o'quvchilari uchun ham o'ta qiymatlidir.

Zero, har bir satrida jafokash ona xalqining dard-u hasratini kuylagan, oydin kunlarini orzulagan elparvar shoir Samad Vurg'unning she'riyati hali yana necha-necha avlod she'riyat ixlosmandlari ko'ngliga ezgulik urug'larini qadab, ularni insoniy kamolot yo'liga boshlayveradi.

Muhiddin Omon,
O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
shoir, tarjimon.

SAMAD VURG'UN HAQIDA SO'Z[1]

Samad Vurg'un asrimizning nafosat osmonida yorqin charaqlab turgan porloq bir yulduz ediki, o'z maslakdoshlariga qancha o'xshamasin, uni boshqalardan ajratturgan xususiyat, o'ziga xos fazilati ham bor edi. Bu holat uni mustasno bir yuksaklikka ko'targan edi. Go'yo u ko'p asrlik ozarbayjon she'rining barcha fazilatlarini o'zida jamlab olgan bir devon edi.

Darhaqiqat, uning baytlarida Nizomiyning epik salobati, Fuzuliyning nozik hissiyoti, Haqoniyning tantanavor jo'shqinligi, Voqifning sodda va rostgo'yligi kamalakning fusunkor ranglaridek tovlanib turar edi.

Buning ustiga, yana to'g'risini aytganda, bularning zamirida xalq poeziyasining ravon, xushbo'y va laziz chashmalari sira tinmasdan, mufassal qaynab yotar edi. Vurg'un ozariy xalq poeziyasini juda sevar va ozariylar oshiq deb atagan xalq baxshilarining ijodiyotini mukammal bilar edi.

Keyinchalik u mutolaa orqali va ayniqsa 20-yillarning oxirlarida Moskvada, universitetda o'qigan mahallarida rus poeziyasini ham o'rganib olib, Pushkinning ravshan she'rlaridan, Lermontovning ehtirosli dostonlaridan, Mayakovskiyning isyonkor jasoratli xitoblaridan ilhomlanib, o'z she'r qo'rxonasini yanada boyitdi.

Samad Vurg'un shoir, publitsist, dramaturg, tarjimon, olim va davlat arbobi sifatida o'ttiz yildan ziyod o'z Vataniga, jonajon xalqiga, bashariyatga buyuk iftixor bilan xizmat qilgan san'atkor edi. Uning "Shoirning onti", "Basti", "Toliston" kabi she'riy to'plamlari va dostonlari hali urushdan avval xalqqa ma'lum va ma'qul bo'lib ketgan asarlar edi. Vurg'unning "Voqif", "Xonlar", "Farhod va Shirin" kabi dramatik asarlari uzoq yillar davomida Ozarbayjon sahnasining ziynati bo'lib keldi.

[1] Mazkur maqola shoirning 1953-yilda nashr etilgan "Tanlangan asarlar" kitobidan olindi.

Urush yillarida shoir o'z qalamini xalqning muqaddas kurashi xizmatiga, g'alabamiz azmiga, Vatan sha'niga bag'ishlab, "Ona so'zi", "Shafqat hamshirasi", "Vatan himoyasida", "Ukraina partizanlariga" singari jo'shqin she'rlar yaratdiki, bularda qahramonlik ehtirosi romantik jo'shqinlik va samimiy lirik kechinmalar bilan omixta bo'lib, zo'r originallikka ega bo'ldi. Shoir urushdan so'ng yozgan g'oyat yetuk asarlari — doston va she'riy to'plamlarida zamonamiz qahramonlarining yaqqol suratlarini yaratdi va tarannum etdi.

... Samad Vurg'un Pushkinning "Yevgeniy Onegin", Sh.Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" dostonlarini, Nizomiyning "Layli va Majnun", Gorkiyning "Qiz va o'lim" asarlarini tarjima qilib, jahon adabiyotining bu durdonalarini ozariy adabiyotning oltin fondiga qo'shmoqqa muvaffaq bo'ldi.

Ozarbayjon xalqi o'zining bu buyuk farzandini yuksak qadrlab, unga ishonch bildirdi va uni Ittifoq Oliy Sovetiga to'rt marta deputat qilib sayladi.

U Ozarbayjonning "Xalq shoiri", "Xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" unvonlariga musharraf bo'lgan edi. Ikki marta Ittifoq Davlat mukofoti laureatligiga sazovor bo'lganligi ham shoir ijodining davlat tomonidan naqadar yuksak baholanganiga bir dalildir.

Vurg'unning ilmiy-ijtimoiy ishlari uning Ozarbayjon akademiyasining vitse-prezidenti sifatida ishlagan davrida ayniqsa ravnaq topadi.

1956-yil may oyida dunyoga, abadiy vido, deb ko'z yumgan Samad Vurg'un ikki marotaba yashamoq imtiyoziga ega bo'lgan buyuk shoirlardan biri edi. Uning jismoniy vafoti shoirning ruhiy, ma'naviy umrini kesib tashlay olmadi.

Yigirmanchi asr zamonida va Ozarbayjon zaminida pishib yetilgan adabiyotning unutilmas siymolaridan biri Samad Vurg'un edi.

U haqiqatan tug'ma shoir bo'lish bilan birga, iqboliga shoir bo'lasan, deb yozilgan butun bir ijodkor edi. Buyuk qalb va teran fikr birikishining ramzi bo'lgan Samad o'zbek xalqining do'sti, buyuk Alisher Navoiyning ta'zimkor muxlisi edi.

Samad Vurg‘un ilk yoshligidanoq bir qizni qattiq sevib qolib, o‘ziga “Vurg‘un” so‘zini taxallus qilib olgan edi. “Vurg‘un” so‘zi ozarbayjoncha birovga qattiq mehr qo‘ygan oshiq yoki maftun demakdir. Biroq shoirdagi vurg‘unlik, oshiqlik o‘zi aytgandek, bora-bora xalqqa, Vatanga, insoniylik ideallariga bo‘lgan muhabbat, sadoqatning ifodasi bo‘lib qoldi. Shunday qilib, oshiq Samad jahon istiqbolining, bashar saodatining oshig‘iga aylandi.

Samad Vurg‘un insoniyat oshig‘i va baxt muxlisi sifatida jahon adabiyoti tarixidan o‘ziga mangu o‘rin olgan ijodkorlardan biridir.

Maqsud Shayxzoda,

shoir, dramaturg, tarjimon,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi

"TANLANGAN ASARLAR" kitobidan

QUTLASH

O'lkalar, qishloqlar, qutlayman sizni!
Dushmanning saflari buzilar bugun.
Bizning mard yigitlar na'ra tortarkan,
Zolimning mozori qazilar bugun.
Zamon o'z buyrug'in bergandan beri,
Jamolin ochadi tog'lar sahari.
Tumandan qutulib Vatan ko'klari,
Turnalar qatorga tizilar bugun.
Porlaydi oftobi ona Vatanning,
Yulduzi so'nmoqda qasd qilganlarning,
Ko'kning tangrisiman degan dushmanning,
Oyoqlari yerdan uzilar bugun.
Armiyamiz yurib yurtlar kechganda,
Yovuz dushmanlarga kafan bichganda,
Onalar shod bo'lib sharbat ichganda,
Tarixga dostonlar yozilar bugun.

1943

TARONA

Dunyoda shodmon, sho‘x kun ko‘raylik,
G‘animat yoshlikning har sho‘x yallasi.
O‘tli kurashlarga, kurashlardan o‘t,
Umringning bu aziz, bu yosh chog‘ida!
Mening onam kabi, o‘tirma ko‘p ham
Kechalar yig‘lagan, beshik boshida!
Go‘zaldir ovozing, xushdir nafasing,
Jo‘shib, minbarlardan gapirganda zap.
Tinmas bu yuraging, jarangdor sasing
Bizga xabar bersin kelajaklardan...
Sevgilim, ko‘nglimdan o‘tganlarga boq,
Kel, salom beraylik xalqlarimizga!
Dostonlar yozaylik, kuylar yozaylik,
Kelajak olqishlar o‘qisin bizga!

YEVROPA XOTIRALARI

Vatanni sog‘inish

Tong chog‘ining tumanidan ochilganda ko‘k toqi,
Samolyot-chi, burgut kabi ko‘kka qalqdi viqor-la.
Bizni “Oy bor, omon kel” deb yo‘lga soladi Boku,
Orqamizdan ulug‘ shahar boqardi iftixor-la.
(Keksa burgut tog‘ boshida qaror tutib har sahar —
O‘z uchirma bolalarin shu zayilda kuzatar.)
Uchmoqdamiz g‘arbga tomon. Ko‘kdagi zich tumanlar
Oqib kelar dengizdagi parcha-parcha oq muzday.

Yer ustida zich shaharlar, qishloq, shaharchalar bor,
Ko‘k o‘rmonlar saf-saf turar g‘olib armiyamizday.
Uchmoqdamiz yot ellarga... qalb-chi, Vatan-la qolar...
Deydilarki, raso bir oy cho‘ziladi bu safar.
Daqiqadan-daqiqaga hasratimiz avj olar,
Ey, ehtimol sog‘inishning mevasidir har asar!
Samolyotning qanotiga yozilgandir yurt nomi
Ko‘ksimdagi nishonda ham
Mamlakatning muhri bor... sevganim!
Yurak deydi: yaxshi qolgin, ona-Vatan, ona yer!
Ming yil sensiz yashasam-da, yana sensan Vatanim!
Propellerning gurillashi qulog‘imda g‘uvullar,
Nafas sayin yuksaklarga yuksalardik yana biz...
Yermi ko‘kka qovushmoqda, yo ko‘k yerga pastlashar?
Quyoshni zabt etmakchimi quyosh sevar naslimiz?

To‘rt soatki, bu samolyot hukmrondir ko‘klarda,
Qanotlarin shiddatidan parchalanur bulutlar.
Ammo ko‘kda na hayot bor, na yerdagi manzara,
Ko‘zlarimiz charchar ekan, mudroq bosar, ey do‘stlar!

Vatan sog‘inchi og‘irdir... Buni ko‘kda angladim,
Angladimki, Vatan ishqi — insonning qudrat-kuchi.
O‘z musofir do‘stlarimga onda-sonda ko‘z soldim,
Chehralari oqargandi... Og‘ir Vatan sog‘inchi...

Reyxstag

Ofitser deydiki: Mana Reyxstag!
To‘rt devori qoldi, xolos, to‘rt devor...
Biron ustuni yo‘q, na temir tirgak,
Tanida necha ming o‘qlar o‘rni bor.
Devorlar chang va dog‘, devorlar qora,
Men unga boqaman, dilda iftixor.
Og‘ir to‘plarimiz, qilgan dab-dala,
U to‘plar zarbidan tamom yarador!
Qotillar, josuslar yurti bu bino
Kekkayib qarardi bir vaqt olamga.
Bugun pushaymondir yaralganiga,
Zulm oqibati shu-da odamga!

Bu yerda bir zamon u tentak Gitler
Derdiki: “Berlinga qul bo‘lsin dunyo!”
Ammo bosh egmadi bu tahqirga yer,
Yashatdi tuproqni boshqa bir ma’no...
U go‘zal ma’nodan ilhomga botib,
Uchdi Moskvaning samolyotlari.
Berlinga necha ming bombalar tashlab,
Zafar olib qaytdi g‘olib askari.

Yevropa qutuldi o‘limdan, qondan,
Do‘stlar, dunyoga biz bo‘ldik xaloskor.
Bu yo‘lda jon bergan har qahramondan
Tuproqning qalbida necha doston bor.
Mening yurtimning ham mard o‘g‘illari
Qoni-la qo‘l qo‘ydi bu dostonlarga.
Kelganda biz kutgan zafar kunlari,
Quyosh ham bosh egdi u o‘g‘lonlarga!

Turipti qarshimda o‘lik Reyxstag...
To‘rt devori qolgan, xolos, to‘rt devor.
Biron ustuni yo‘q, na temir tirgak,
Ichida ot chopgan sovuq yellar bor...
Boshiga yog‘moqda pag‘a-pag‘a qor,
Skelet burkanar oq bir kafanga...
O‘lar jahongirlar, o‘lar har g‘addor!..
Shunday der men ko‘rgan qonli manzara.

Rassomning so‘nggi asari

I

Qop-qorong‘i edi har kun uning sahari,
Ko‘zlaridan tomchi-tomchi to‘kilarkan g‘am,
Tuman kabi tarqalarkan tushunchalari —
Bir zumgina zulmat bo‘ldi ko‘ziga olam.
Besh-o‘n odim yurdi tag‘in. To‘xtadi birdan,
Nafas oldi, yurmak uchun bormi toqati?
Oyoqlari qo‘zg‘almadi to‘xtagan yerdan,
Dedi: “Shu-da keksalikning so‘ng saodati!”
Keksalikmas faqat uning bardoshin olgan.
Necha kundir, necha kundir sho‘rlik rassom och.
London kabi bir shaharda yordamsiz qolgan.
U san’atkor bir qultum suv va nonga muhtoj...
“Qayga boray? Kimga aytay bu dardimni man?
Bir parcha oq matoga ham ojiz hamyonim...
Qarilikda kim tutardi titroq qo‘limdan?
Qayg‘u bilan o‘tib ketdi mening davronim...
Har kimga bir qo‘l cho‘zaymi? Tilanaymi? Oh!
Tilanish ham man etilgan bizning shaharda.
Quyosh nega chiqdi tag‘in, esmoqda sabo?
Shu ahvolda qanday kezay bu ko‘chalarda!

Bu kunimdan — o‘lim yaxshi, qo‘llarim ila
O‘z-o‘zimni birato‘la osaymi dorga?
Vidolashay o‘z muqaddas hunarim ila,
Ehtiyojdan jon qutqarmoq bormi men zorga?!”

(Deydilarki, jon shirindir. Qora kunda ham
Inson o‘g‘li yorug‘ kunga umid bog‘laydi.
Ba’zan o‘lim panjasida, jon ustida ham
Odamzodning ko‘magiga ko‘kni chorlaydi.)

Keksa rassom yerga-ko‘kka boqdi hasrat-la
Qalbidagi orzularga: xayr, dedi, tikka...
Xuddi shu dam u muqaddas bir muhabbat-la
Nazar soldi dunyodagi bor go‘zallikka...

“Yo‘g‘e! — dedi.
— Bezmagan-ku shoir yuragim
Muhabbatning, go‘zallikning mo‘l ne’matidan,
Jon uyida tutqun bo‘ldi qancha tilagim,
Qo‘llarim ham charchaganyo‘q o‘z san’atimdan.

Ozroq xomsurp va bir quti bo‘yog‘im bor-ku.
Bu do‘stlarga vido aytib o‘lish — yaramas!
So‘nggi asar, so‘nggi mehnat ham yodgor-ku!”
Rassom shunday yupantirdi qalbini birpas.

(Sa’nat ishqi! San’at ishqi!
Na sehrkorsan!
To‘fonlarning qo‘ynida ham o‘ting so‘nmaydi.
Umr bo‘yi o‘t ichidan kechsa-da inson
Bu dunyoni tark etishga tag‘in ko‘nmaydi!)

II

Keksa rassom qadam tashlar, galtirar biroz,
Kelar asfalt maydon sari u sekin-sekin.
Qalbi deydi, so‘ng asarni shu maydonda yoz,
O‘tgan-ketgan asaringni tamosha qilsin!

Xomsurpni u maydonchaga yoyib qo‘ydi-da,
Ko‘k bo‘yoq-la ishlab chiqdi so‘nggi asarin.
So‘nayotgan oqshom chog‘in tasvir etguncha,
Sezgan bormi san’atkorning hayajonlarin?..

E’tiborsiz o‘tib ketma, to‘xtagin bir on,
Tamosha qil bu oxirgi tasvir — san’atni...

Britaniya ko‘klariga cho‘kkan sur tuman
Bo‘g‘ayapti vaqtsiz shundoq pok she’riyatni...

Nahot bizning oramizda topilsa hamon
Yevropani jannat kabi xayol etganlar?
Keksa rassom vidolashar hunari-ila,
Sariq chaqa tashlar unga o‘tgan-ketganlar...

Ziyofat

I

O‘rta asrlardan qolgan bir saroy:
Yonma-yon tizilgan katta salonlar,
Bir emas, besh emas, birnecha o‘nlar,
Oynaband eshiklar — bezaklarga boy.

Marmar to‘shamalar uzra gilamlar —
Ba’zilari Hinddan, ba’zisi Chindan.
Har kichik naqshida olov rangi bor,
Go‘yo o‘t chiqmoqda zulmat ichindan...

Xayoli parishon, yuragi olov,
Yoqar hind qizining qalbini o‘tlar.
O‘sha qiz to‘qigan gilam ustida
Juft-juft bo‘lib raqsga tushadi lordlar.

Sonsiz tamoshachi kelgan bu oqshom,
Bu mo‘l ziyofatni tekin yemakka.
Yuraklarda to‘ngan so‘nuk bir ilhom,
Diplomat tilida sog‘liq demakka.

Ovqatlar rang-barang, sharoblar xil-xil,
Zanjining, habashning qonidir bular.
Afrika so‘yilgan...
Qon-u ter to‘kib,
U yerda ishlaydi millionlab qullar...

Suzilgan xonimlar, yasangan serlar —
Kular qadah jarang berganda shodon, —
To‘shlari medalli bir talay merlar
O‘ninchi asrda yashaydi hamon.

"Alohida hurmat" — bu oqshom bizga, —
Muzaffar davlatni maqtab tumtaroq,
Olqishlar aytishar sharafimizga,
Ming do'st ko'rinsa ham, dushmandir biroq...

Dudoqlarda kulgu, yuraklarda kin,
Bo'rini taniyman bir boqishidan.
Aytinglar-chi shoir — toza dillikning
Qalbi quvnarmidi lord olqishidan?

Bu oqshom shunchayam g'azablimanki,
Qalbimda o't olib, yonar intiqom.
G'azabdan sal qoldi o'ng qo'limdagi
Qadahni bir lordning boshiga ursam!..

Meni qiynamang, oh! Og'irdir, do'stlar,
Qotillar uyida ziyofat yemak,
Har dushman ko'zida necha hiyla bor,
Shuni sezgan sayin jirkanar yurak...

II

Qarshimda yuzining terisi chil-chil
Bir ledi ko'rinar, qo'lda —qo'lqop bor,
Eri ham yonida — janobi Cherchill
Menga qo'l uzatar, o'ta ta'zimkor.

"Boku! Boku!" deydi, yuzimga boqar,
Go'yoki o't tutib, yonar badanim.
Jonimdan tutunlar, tumanlar qalqar,
Jahlimdan qo'llarim titrardi manim!..

Ha, men bokuliman! O'z shuhratim bor,
Mening bobolarim — Bobak, Voqiflar....
Yodingizda hali turgandir, janob!"
Keksa janob kular, turar bejavob,

U o'ngga burilar, men esa — chapga,
Yurak —o'q... O'rin ham qolmadi gapga!..

ISLOM

(Ballada)

I

Oder nahri o‘ralgandir
Go‘yo kumush kamar kabi
Vrotslavning gavdasiga;
Shildir-shildir ko‘k to‘lqinlar
Oqarkan yallalar kabi,
U hayron o‘z yallasiga.
Daraxtlar ham ko‘lka solar
Bu sof suvning oynasiga.
Ko‘nglim — ko‘zim hayron qolar
Suv ustida ehtishomning,[1]
Ming yulduzlik har oqshomniig
Ko‘ngil ochar ma’nosiga.
Chechak sevgan, bahor sevgan,
She’rni sevgan bir millatning
Qalbi kabi kular bog‘lar...
Go‘yo barcha insonlarga
tuhfasidir tabiatning —
Ko‘k tepalar, yashil tog‘lar.
Hali bahor! Hali bahor!
Polshaning yuz shaharida —
Har ayvonda gul — chechak bor,
Shoirlarning rubobiday —
Oqshomning-da, saharning-da
Qalbi urar sho‘x, paydar-pay.
Vrotslavda oyna kabi yarqiraydi
Keng ko‘chalar
Ko‘k yuzidan nur to‘kilar.
To‘rt yuz bahor germanlarga qul bo‘lgan

[1] **Ehtishom** — hashamatli, dabdabali.

Bu sho‘rlik shahar,
Bugun elga boqib kular.

Tilga kirar har manzara,
Yer ozoddir! Yer ozoddir!
Har yurakda bir deraza
Ochilgandir Sharqqa sari—
Kular inson orzulari
Barcha shoddir! Barcha shoddir!

II

Ammo meni o‘ylantirgan
na bu shodlik, na bahordir,
Unutganman har tomonni.
Bugun shoir yuragimda
tog‘day og‘ir qayg‘u bordir,
Kezaman bir go‘ristonni.
Qabr toshlari qator-qator
Kelib — o‘tar ko‘z o‘ngimdan:
Tanish nomlar, familiyalar.
Naqsh bo‘lgandir u toshlarga...
Halok bo‘lgan tengdoshlarga
Hurmat bilan bosh egaman.
Bosh egaman yozuvini o‘qiganim qabr ustida,
Qanday yorqin u yozuvlar!
Deymanki, bu yozilsaydi
men yotajak qabr ustida.
Men o‘lganda, aziz do‘stlar:
“U el uchun kechdi jondan,
U yashadi inson kabi...
O‘ldi, demang, u qahramon,
U, muqaddas tilaklarda,
Ham beg‘ubor yuraklarda
Yashayajak doston kabi”.
Men aylangan qabristonning
na uchi bor, na qirg‘og‘i,

Son-sanoqsiz qabr toshlari.
Ko‘k chamanga chulg‘anipti
bu qabriston bahor chog‘i.

Gullar ko‘targan boshlarin,
Quyosh ko‘kdan nur elaydi
Tilsiz, jimjit bu tomonga.
Qizlar ham suv sepkilaydi
Bu muqaddas qabristonga.

III

Bir qabr toshiga boshim egdim man,
Ko‘rdim — yozilipti“Islom”degan nom.
Qayg‘ular bulutday o‘tdi qalbimdan,
O‘t tutashib yondi siynamda ilhom.
Deymanki, ehtimol xuddi o‘shadir...
U, qirqinchi yilda, tinchlik- bir chog‘da
Qalbida qaynardi ulug‘ orzular —
Tuman sarkotibi edi Qozoxda
U, menga ilk marta qo‘l bergan zamon
Sezgandi bir-birin do‘st qo‘llarimiz...
O‘qigandim tetik boqishlaridan:
Bir ekan sevgimiz, amallarimiz.
Qomati sarv kabi, ko‘ksi qabariq,
Qop-qora sochlari, qoshlari bordi;
Bir juft yulduz kabi kular ko‘zlari —
Tonglarni dalada qarshi olardi.
Yashil dalalarda quyoshdan oldin
Qo‘lini siqardi qahramonlarning.
Avval keksalar-la salomlashardi,
Holini so‘rardi mard dehqonlarning.
Har yangi imorat, har boqcha, har bog‘,
Qurilgan har maktab, har kutubxona,
Yangi kiyim kiygan har yetim o‘g‘il,
O‘g‘lining to‘yini ko‘rgan har ona;
Bu kentdan — u kentga cho‘zilgan tosh yo‘l

Har yangi kashfiyot, yangi istiqbol,
Bahor mujdasini keltirgan har yil,
Yer haydab, o‘t o‘rgan har qadoqli qo‘l,
Har yosh kompozitor, yurak yallasi,
Har inson qalbida yonib turgan dil,
Har zafar she’rining baxtiyor sasi —
Uning yuragiga uya solardi,
U bizning dunyodan ilhom olardi.

IV

Qirq birinchi yilning bir yoz sahari,
Islom ham kiyindi askariy kiyim.
So‘ng marta sayr etib ko‘k dalalarni,
O‘pdi qayta-qayta bahorni u jim.
Kurning sohilidan Oderga qadar,
U necha o‘lkaning suvidan ichdi.
Doimo do‘st bo‘ldi unga zafarlar,
Olovlar ichidan sher kabi kechdi.
Qonlar ichida ham uning yuragi
Jindak sovigan yo‘q amallaridan.
Har kichik orzusi, ulug‘ tilagi
Sen eding, o‘quvchim bu dunyoda, san!
U sening dardingda o‘t-olov yutdi,
Bahorga yo‘l ochdi qahraton qishdan.
Necha bor xat yozib so‘radi ahvol
Har Vatan o‘g‘lidan, do‘stdan, tanishdan.
Og‘zidan o‘t sochgan og‘ir to‘plarni
Oder sohilida qurdi yon-yonga.
O‘qlar uchar ekan Berlinga sari,
Salomlar yo‘lladi Ozarbayjonga.

V

Eridi tog‘larda eng oxirgi qish...
Qirq beshinchi yil, may, sakkizinchi kun,
Zafar bayramiga bir kun qolganda,
Qurbon bo‘ldi Islom el-u yurt uchun!..

Front kiyimini yechib qo‘ymadi,
Qilichini so‘ng bor ko‘rmadi qinda.
Kurning yoz faslini sayr etolmadi,
Suhbat qurolmadi buloq boshinda.
Yo‘q, yo‘q! Ayrilmadi u bizdan, do‘stlar,
Yashaydi eng shirin xotiralarda;
Har yil, yuz yasanib kelganda bahor,
Biz uni ko‘ramiz har bir saharda...

Tinchlik chiroqlari yarqirab qator,
Charog‘on bo‘lganda qishloqda oqshom,
Har oqsoqol ota, har keksa ona
Hurmat-la eslaydi seni ey, Islom!
Soy ustida temir ko‘prikdan o‘tar,
El o‘tar piyoda, yoki ot bilan —
Eng aziz, eng shirin xotirot bilan
Islomni yod etar, so‘zsiz, yod etar.

VI

Polsha ko‘klarining tong yulduzlari
Moviy ufqlarda so‘narkan bir-bir,
Ozod muhabbatli polyak qizlari
Islomning qabriga salomga kelur.
Birisi suv separ qabriga, do‘stlar!
Birisi gul ekar o‘z qo‘li bilan.
Go‘yoki qabrining ustida bahor
Tillashar, so‘zlashar o‘z dili bilan.
Hozir bahor do‘sti oq kapalaklar
Aylanar qabrini parvona misol.
Atrini yoyarkan gullar, chechaklar,
Yerga salqin berib, esadi shamol.
O‘par bir-birini oylar, fasllar,
Odamzod yetadi orzulariga.
Islomga, hurmat-la ozod nasllar,
Bosh egar, dunyoning xaloskoriga...

EDUARD MAZE[1]

I

Qad ko'tarib turar Brest shahari
Mavjlanib saflarda oqadi inson.
G'amgindir shaharning tor ko'chalari,
Qovog'ini solgan ko'm-ko'k osmon.

Shaharda sayilmi, yoki namoyish?
To'g'ri bo'lmas uni motamdir, desam.
Yo'qsa qahramonlar nechun parishon?
Nechun ko'zlarida to'lqinlanar g'am?

Bayroqlar boshini solgandir tuban,
Qora tutilgandir atroflariga,
Kecha plakatlar ko'targan qo'llar,
Tobut ko'taribdi uning o'rniga.

Kimniki bu tobut? O'lgan kim ekan?
Ayting, faylasufmi, dohiymi, u kim?
Ular kim, ketidan saf tortib kelgan?
Bu o'lgan qahramon — ishchi o'rtog'im!

II

Necha ming kishi-la yakdil, hamjihat
Stachka qilardi Eduard ba'zan.
U ham o'z insoniy amali bilan
Kecha aytar edi Bidoga la'nat.
Sotqin ham, josus ham atardi uni
Millionlab xalqlarning sasidir bu sas.

[1] **Eduard Maze** — Fransiyalik ishchi, 1950-yil 17-aprel kuni Brest shahrida ishchilarning haq-huquqlarini talab qilib uyushtirilgan tinch namoyishda 26 yoshida politsiya tomonidan otib o'ldirilgan.

“Fransiya qul bo‘lmas Vashingtonga,
Volterning vatani aslo qul bo‘lmas!” —
Deganda, Eduard miting zamoni
Devorlar titradi zo‘r nafasidan.
Bechora do‘stimiz — u qahramonning
Polis nishon oldi qoq siynasidan.
Lekin u egmadi mag‘rur boshini,
Qalin qoshlarini chimirdi bir on,
U turdi tog‘ kabi, ko‘zida viqor,

— Nelar dedi bilsang u mard qahramon...
O‘larkan, qayrilib devor tomonga
O‘yladi Eduard sof orzular ila.
O‘g‘lin suratiga boqdi so‘nggi bor,
Yumdi ko‘zlarini iftixor ila.

III

Tobut asta-sekin o‘tar shahardan,
Bunday ko‘p odamni ko‘rmagan shahar.
Xalq boshin chiqargan derazalardan,
Chunki torlik qilar bu kun ko‘chalar.

Chollar va kampirlar ayvondan boqar,
Yuzlarida g‘azab, boqishlarda kin.
De Golning yuragi yana qaltirar,
Qo‘rquvsi tushadi bu namoyishning.
Atroflarda turgan politsiyalar
Qaltirar misoli barg kabi uryon.
Inson nafasidan qizirkan shahar,
Hattoki, eriydi tumanlar bu on.

Tobutni tabriklar ko‘kdagi quyosh,
Tobut shafaqlarda suzadi hamon.
Eduard Maze deydi ko‘tarmayin bosh:
— Yaqindir nurli tong, u ozod zamon.

Yerdagi dahshatni osmon ham tuyar.
Quyosh juda sevar qahramonlarni.
Qizil shafaq bilan, nur bilan yuvar
Ozodlik yo‘lida oqqan qonlarni.

Tobut asta o‘tib borar shahardan,
Shahar ko‘rmagandir buncha ommani.
Ko‘plar qaraydilar derazalardan,
Chunki sig‘dirolmas ko‘cha hammani.
Kimniki bu tobut? O‘lgan kim ekan?
Ayting! Faylasufmi, dohiymi, u kim?
Ular kim, ketidan saf tortib kelgan,
Bu o‘lgan qahramon — ishchi o‘rtog‘im!

TABREZ GO‘ZALIGA

(Shoirning bloknotidan)

I

Parvo qilma, bo‘lar-bo‘lmas so‘zlarga,
Bilaman, yuraging yuragimga band.
Qora hijob bordir garchi boshingda,
Lekin sening qalbing qalbimga payvand.

II

Bilaman, go‘zalim, tushlaringda ham,
“Sevgilim kelarmi?” deya so‘raysan.
Xayolim qochadi, o‘par qo‘lingdan,
Chiqasan yo‘limga ro‘moling bilan.

III

Nedur bu hasratning nomi, unvoni?
Sababchi uyida chirog‘ yonmasin!
Oh, Aras, oh, Aras, va’damiz qani?
Bir yurak ikkiga parchalanmasin.

IV

Azalda ayirdi bizlardan seni
Shohlar boshidagi qonrang iflos toj.
Quyuq qora tuman qoplab Tabrezni,
Falak baxtimizga qaradi qiyg‘och.

V

Onang og‘rib yotdi faqir kulbada,
Sovuq qabrin sen qo‘ling-la qazding.

Otang va ho‘kizi o‘ldi dalada,
Alamli tarixni siynangga yozding.

VI

Men ham bu yo‘llarni kechganman, jonim,
Mening ham g‘am to‘la bir o‘tmishim bor.
Dorisiz, darmonsiz jon berdi onam,
Motam libosini kiyganda tog‘lar.

VII

Demak, dardimiz ham, fikrimiz birdir,
Hayotdir bizlarning muhabbatimiz.
Kel, yuzma-yuz turib, kunlarni bir-bir,
Birga hisoblaylik yoshimizni biz.

VIII

O‘tib ketganlarni, kel, unutaylik,
O‘tmish bugun uchun erur yodgor.
Bilaman, seviklim, bilaman bu dam,
Sizlarda qish fasli, bizlarda bahor.

IX

Ko‘rgin hur qizlarni, boq kelinlarga,
Bizda baxti porloq har bir juvonni.
Ozodlik bayrog‘in olib qo‘liga,
Quyosh tabrik etar Ozarbayjonni.

X

Yangi to‘n kiyadi Mil ham, Mug‘on ham,
Quvonchimiz toshar bayram kunida.
Olim ham, shoir ham, tog‘da cho‘pon ham
Qo‘shig‘ini kuylar ona tilida.

XI

Dudoqlarda kular yangi bir zafar,
Zafarlar-zafarga yangi kuch berar.
Qon to‘kib olingan ozod damni ko‘z —
Qorasidek asrar har sodiq askar.

XII

Sevguchi juda ko‘p bizning Vatanni,
Quyoshga tik boqib shaxdam boraman.
Ulug‘ Vatan, xalqim nomidan seni
Bayramga chaqirib xat yuboraman.

XIII

Ko‘zing yoshga to‘lmasin! Sabr etgin biroz!
Qalbing ham, sevging ham, darding ham haqdir,
Ozodlik bayrog‘i yashnagan bir yoz
Tabrez ustida ham porlayajakdir.

XIV

U bayram kuniga ishonaman men,
Aras yo‘l beradi ustidan bizga.
Baxti kulgan o‘g‘lim yetaklab olib,
Mehmon bo‘lajakman keksa Tabrezga.

POEMALAR

NEGRNING ORZULARI

U minbarda ko'krak kerib, so'z boshlamay turdi birdam,
Qora qoshin chimirdi-yu bir zum qoldi jim, parishon.
(Ba'zan tilsiz, salobat-la qilich sermar mard — qahramon,
Bunday mardga ofarin deb, qoyil qolar butun olam).
Salon[1] hayrat ichidadir... sukut etadi hammayoq,
Qora negr minbardadir, unga ming ko'z boqar pastdan...
She'riyatning lazhasidir men sayr etgan lavha shu choq,
Ne ma'nolar uqib oldim horg'in boqqan ko'zlaridan ...

Tasavvur et, shu damgacha, u tug'ilgan kundan beri
Biror marta jilmaymapti... shodlik unga begonadir.
Lablarida yangramapti qalbidagi qo'shiqlari,
Talon bo'lgan shahar kabi ko'ngli chil-chil, vayronadir...
Anglagilki, qora negr bu dunyoga kelgan zamon,
Kulbasida motam tutib, qon-qon yig'lapti onasi...
Ammo yana ona qalbi ayrilmapti farzandidan,
Kecha-kunduz "non-non", deya nola qilmish ko'z qorasi...

Qovoq solib boqishida bulut kezar, chaqmoq chaqar,
Bir pahlavon qudrati bor uning chayir bilagida.
Qiyg'och-qiyg'och ko'z yurgizib, insonlarga tinmay boqar,
O'qilmagan bir kitob bor uning jo'shqin yuragida...

Qalin bulut albat yog'ar!
Bu qonundir tabiatga.
Qora negr labin ochar:
— Men negrman hamda rassom!
O'ttiz yildan ortiqdirki,
Men oshiqman shu san'atga —

[1] **Salon** — zal.

Faqat inson qilib emas,
Shoir qilib tug‘di onam!

Amerika! Yangi dunyo!
Men tug‘ilgan Vatanimdir,
Bobomning oq suyaklari
chirigandir shu tuproqda...
Menikidir dengiz, havo,
osmon bilan tuprog‘u yer,
Orzularim uya solgan
har butoq, ham har yoproqda.
Men sevaman o‘z yurtimni
ezgu muhabbatim bilan,
Rassom ko‘nglim shaydosidir
har oqshom-u har saharning.

Men yaratgan manzarada
chiroyi bor shafaqlarning...
Vaqtingizni ko‘p olmayman!
Ayting, shu san’atim bilan,
Hunar bilan yashamoqqa
Yer yuzida haqim bormi?
Boshpanasi, chirog‘i yo‘q,
rassom asar yaratarmi?...

* * *

Uning qora ko‘zlaridan bitta chaqmoq chaqib o‘tdi,
Yuragining qizg‘in qoni yuragimdan oqib o‘tdi.
Negr horg‘in, salon jim-jit, shu dam, go‘yo butun olam
Faqat unga quloq solar, o‘quvchim, kel, diqqat-la boq.
Ko‘rasanmi, uning ko‘zi chaqnab ketar birgina dam,
Yuzidagi g‘am dostoni ochilgandir varaq-varaq...

* * *

Gar sayohat kunlari-da men och qolsam, suvsiz qolsam,
O‘tganlardan bir oshxona bormi, deya so‘roqlasam.
“Sei qorasan!” degan kabi to‘ng boqishar javobiga,
Ayting, qanday chidab bo‘lur umrbod shu azobiga?

Qonunlarning qora hukmi shunday yozar, ko‘p zamondir,
Shaharlarga mehmon bo‘lmoq qoralarga qatag‘ondir.
Shunday, — dedi qora negr, — Vatan menga bir g‘urbatdir.
Mening bevaqt qaddim bukkan shu muhtojlik,
shu zahmatdir...

* * *

Salondagi lol sukutning ma’nosini tuymoqdaman,
Insonlarning ko‘zlarida marhamatlar uqmoqdaman.
Boqishlardan bahordagi jala kabi hayrat yog‘ur,
Qora negr g‘azabidan nafas olar og‘ir-og‘ir.
Koshki, chimriq qoshlardagi ma’nolarni uqabilsang!
Hozir uning tishlari ham qulflangandi g‘azabidan...
U yana ham sukut etdi, so‘zlamaydi, jim, parishon,
Ba’zan tilsiz, salobat-la qilich sermar mard-qahramon.
—Amerika, yangi dunyo, Vatanimdir, dedim boya,
Ko‘p sevaman ona yurtning oqib yotgan soylarini,
Uning qorli qishlarini, go‘zal bahor oylarini.
Oltin-kumush konlaridir men tug‘ilgan tuproq, qoya,
Lekin mening shu o‘lkada yashamoqqa haqim bormi?
Inson axir Vatansiz ham insonday yashay olarmi?

Bu alanga sochgan so‘zlar o‘t yoqadi yuragimga,
Shu nafasda qaradim chap yonimdagi allakimga.
U terlagan ko‘zoynagin chap qo‘l bilan tuzatarak,
Kinoyali boqib tishin g‘ijirlatar bir iblisdak.
Ko‘zlarini uzolmasdi u negrning dudog‘idan,
Yirtqich kabi tishlarini g‘ijirlatar ahyon-ahyon.
Goh bo‘zarar, goh qizarar, qaltiroqlar bor jonida,
Soya kabi qora qo‘llar kezar uning vijdonida...
G‘azabidan rangi o‘chib, oq devorga o‘xshar ba’zan,
Go‘yo shu on ilon kabi sapchimoqchi o‘z yeridan...

* * *

Qovoq soliq, yerga boqar... ko‘zi ko‘m-ko‘k... rangi zahar,
U fitnalar avlodining avzoyidan hiyla yog‘ar.

Janob kimdir? U, Teylerdir!
Shlyapalik bir iblisdir.
Yuragimdan ovoz chiqar: inglizdir, inglizdir!
Daryo kabi to'lqinlanib ko'zlarimga urar qonim,
Xotirimga tushar shu dam ozodlik deb
jonin tikkan qahramonim.

* * *

Negr jo'shar arslon kabi, kerilgandi tunj siynasi,
Go'yo ko'ksi to'lqinlar-la jang qilishgan bir oroldir.
Quloqlarga larza berar bu notiqning kuchli sasi,
Xayolidan ne kechsa ham mushtumlari havodadir.
U kemirar zanjirini qafasdagi arslon kabi,
Ozod bo'lar qora negr... yashar u ham inson kabi.

* * *

— Yuz havasga tushib ba'zan
Sayohatga chiqaman, man:
Uylaymanki, gulxonamga
Rang to'play gul chechaklardan.
O'ylaymanki, qarich-qarich
Kezay Vatan tuprog'ini,
Kuz tushib to sarg'aytguncha,
Daraxtlarning yaprog'ini,
Sayr etayin tog'u toshni.

* * *

Qoyalarning mag'rur boshi
Boshim uzra soya solsin.
Ko'nglim qushi ilhom olsin,
Qanot yozsin bir chamanda.
Orzu qilib deymanki man,
Bulutlarning ko'kragidan
Tog'lar boshi sut emganda,
Bu mehribon tabiatdan,
Ko'rganim har haqiqatdan,

7619326

Ilhom olib yozay men-da!
Tuganmas bir saodat-la.
Men yaratgan san'at qizi
Olqishlasin baxtimizni
Bir muqaddas muqabbat-la,
Men ham boqib bir shod bo'lay,
G'am-hasratdan ozod bo'lay,
Yaratganim shu san'at-la.
O'ylaganda uzoq bizning,
Elimizning, yurtimizning,
Har yozida, har qishida,
Hayot ko'ray, dunyo ko'ray.
Har insonning boqishida
Bir muqaddas ma'no ko'ray.

Har chaqaloq kulishidan
Yuragimg'a nur yoyilsin.
Botgan quyosh qalqib ertan
Uyqusidan tez ayilsin.
Yuzidan nur yog'a-yog'a.
Na qul ko'ray va na og'a[1].
Na bir qamoq va na zindon,
Jahongirlar dunyosidan
Qolmasin bir nishona ham
Oq tanli ham, qoralar ham
Saodat-la nafas olsin.
Men yaratgan lavhalarda
Inson ishqi zafar chalsin.
O'z mehnati hunari-la.
Bu ozodlik kunlari-la
Har bir yurak sirdosh bo'lsin
Olqishlangiz bu niyatni!
Bu muqaddas she'riyatni!
Keng jahonning ming millati

[1] **og'a** — xo'jayin, qul egasi.

Ahd qilishib qardosh bo‘lsin,
Erk bayroqli yo‘ldosh bo‘lsin.

Bu sof orzu bilan yashaganda man,
Ba’zida, o‘zimcha chiqib uyimdan:
Haftalar o‘tsa ham, va och qolsam ham,
Hatto qattiq nonga muhtoj bo‘lsam ham,
Uyqusiz kechalar ko‘rsada ko‘zim,
Qorong‘u kecha ham, kunim, kunduzim,
Piyoda o‘tsam ham oqar soylarni,
Siynamda sezsam ham tog‘larda qorni,
Toshlar qonatsa-da oyoqlarimni,
Qirra tosh kessa ham barmoqlarimni,
Vatan tuprog‘iga oshiq xayolim,
Yanada zavq olar bu sayohatdan;
Ajab tuyulmasin sodda bu holim,
Ayrila bilmayman men bu odatdan.

* * *

Kezmasam, ko‘rmasam, o‘zim to‘ymasam,
Go‘zallik ishqiga qonib to‘ymasam,
So‘nar san’atimning ishqi, havasi,
Yer blian bog‘liqdir rassom nafasi.

Lekin oqshom tushar, atrof qorayar,
So‘ngsiz ufqlarning bag‘ri torayar,
Soviydi men ko‘rgan u zumrad suvlar,
Soviydi siynamda yongan orzular,
Ko‘z tashlab oqshomning kech havosiga,
Hayvonlar ketadi o‘z ma’vosiga,
Nyu-York ham o‘zgarar chiroqlar yonar,
Salonlar yuz alvon rangga bo‘yalar.

Ipaklar to‘shalgan xonadonlardan
Raqqosa qizlarning tovshi yuksalar,

Mening ustimga-chi? Osmonlardan
Yomg‘irlik, jalalik bulutlar kelar.

* * *

Yotarga na uyim, na joyim bordir.
Men uchun yopiqdir mehmonxonalar.
Unda aysh qiluchi oq tanlilardir,
Chunki qora tuqqan bizni onalar...
Shunday!
Qora tuqqan mening o‘z onam,
Siz ham ko‘rib oling, qoradir terim...
Dengizday bo‘lsa ham mening hunarim,
Ayting-chi ne qilsin negr bir rassom?
Ayting-chi mening ham Vatanim bormi?
Bevatan inson ham inson bo‘larmi?

* * *

Xo‘sh, rassom nafasi nimadan yonar?
Yo pichoq suyakka qadalib, qolar?
Yo‘q! U jim turolmas, turmas san’atkor,
Hayrat ichidadir salondagilar.
Negr davom etar, qayralar sasi,
O‘t tushib gurkirar uning nafasi.
Yuzida raqs etar bo‘ronli bir qish,
Ko‘zidan sezilar qalbining kini,
Ochib tashlar ekan yurakdagini,
Salonni titratar davomli olqish.

* * *

— To‘g‘ri — men negrman!
Negr bir xotin
Menga sut bergandir o‘z ko‘kragidan,
U bebaxt onaning farzandiman, man...
Oh, ona, dunyoda san bo‘lmasayding,
Balki tangriga ham man bosh egmasdim.
Mehring bagishlagan ulug‘ nom bilan,

Sutingdan olganim zo‘r ilhom bilan,
Oyog‘im tolguncha dunyoni kezdim...
Ozodlik oshig‘i bo‘lsa-da nomim,
Ozodlik sharobin ko‘rmadi jomim.

* * *

Yo‘q! Mendan ranjima, muqaddas ona,
Nonko‘r tug‘ilmagan sening avloding.
Butun ma’badlardan yuksakdir oting.
Dunyo bir yon, o‘zing bir yonsan, yana,
Oh, muqaddas Vatan, muqaddas ona!

* * *

— Yo‘q, yo‘q!
Unutmadim men o‘z aslimni,
O‘z qora naslimni, negr naslimni.
Qurigan daraxtda meva bo‘larmi?
Inson ham aslini hech unutarmi? ..
Negr so‘zlar edi zo‘r viqor bilan,
Ko‘klarga sig‘magan iftixor bilan.
Oftoblar porladi uning yuzida,
Bir chaqmoq chaqnadi to‘nggan ko‘zida,
Titradi yaproqday dudoqlari ham,
Sochlari oqargan negr kampir ham —
Uning ko‘zlariga ko‘rinar bu on,
Nurlar to‘kilardi oq sochlaridan...
Boqib farzandiga der edi: “Bor bo‘l!
Mening oq sutimdan sen minnatdor bo‘l!”

* * *

Salonni titratgan saslar, olqishlar,
Dengizlar, ummonlar, tog‘lar oshardi...
Rassom suyangandi, yuzda iftixor,
Bu faxr ko‘k bilan quchoqlashardi.
Ro‘molchaga artib manglay terini,
Yana varaqladi u daftarini:

— Taqdirga chidadi bobolarim, oh,
Ularning yuziga kulmadi saboh.
Kulmadi saodat, u go‘zal pari,
Ishqning-muhabbatning xushvaqt kunlari.
Kulmadi mehnatning, hunarning yuzi,
Qul kabi oldilar, sotdilar bizni,
Qilichdan o‘tkazdi, otdilar bizni.

Loladek qizardi Amazon nahri, [1]
Oh, qirib tugatdi bizni olchoqlar.
Naqadar kamaydi negrlar nasli,
Bir yonda ochlik ham o‘ldirar bizni,
Ehtiyoj qul etar qahramonni ham...
Jondan judo qilar yuragimizni,
Ketar qalbimizning issiq qoni ham,
Ehtiyoj qul etar qahramonni ham.

* * *

Vatan farzandiman, hamda rassomman,
Yozaylik qonunni keling, yangidan...
Tovshimga qo‘shilsin butun o‘lkalar,
Qilichlar ko‘tarsin mustamlakalar...

Xayollar, orzular totli bo‘lsa-da,
Bularning nasibi yo‘qday dunyoda.
Xalqlar ozodlikni istagan zamon,
Qo‘lga qilich olsin har bir qahramon.
Otashdek bo‘lolsin inson hunari,
Yerib parchalasin bu zulmatlarni,
Yiqilsin “xo‘jalar, qullar” dunyosi.
O‘zgarsin inson-u umr ma’nosi.
Vatan farzandiman, hamda rassomman,
Yozaylik qonunni keling, yangidan.

[1] **Amazon nahri** — Amazonka daryosi.

* * *

U yana bir nafas oldi, so‘zlamayin turdi bir dam,
Sayr etuvchi xayolida ochildi bir go‘zal olam.
Olislarda kezar fikri...
Qay yurtlarning eli doim baxtli yashar,
Uzoqlarda botgan quyosh shahar bilan vidolashar.
Ko‘kning yorug‘ yulduzlari, yoqut kabi shu’lalanar,
Qay bir elning toleyiga shu’la tushar, nur elanar.

Baxtli yurtlar boqchasida barobardir yoz bilan qish.
Xalqlar aytar toleyiga ming hasanot, ming bir olqish...

Negr buni aytmasa-da, orzusini men bilaman,
Xayolidan o‘tganlarni ko‘zlaridan his qilaman, —
Buyuk shahar olomon-la qaynar ekan ummon kabi,
Yerning qalbi tepib turar, nafas olar inson kabi.
Zavodlarning hayqirig‘i bir-biriga qorisharkan,
Qora tuproq bosh ko‘tarib ko‘klar bilan olisharkan,
Insoniyat iftixor-la ko‘z tikadi qudratiga,
Ming-ming ilhom ziynat berar shoirlarning san’atiga.
(Mening ham so‘z rubobimning torlaridan chiqqan sado
Goh Bokuda jaranglaydi, goh jo‘sh urar Moskvada.
Aziz do‘stlar, qurimagan siynamdagi oqar soylar,
El sozini, el so‘zini ellar mangu eslaydilar).

* * *

Ko‘zlarining o‘ngidadir yer yuzining xaritasi,
Har millatning o‘z toleyi, har bir elning o‘z nafasi.
U boqarkan bu kunlarning, bu yillarning ma’nosiga,
Deydi: tarix o‘lim yozar bosqinchilar dunyosiga!

* * *

Negrning-chi, xayolidan o‘tadi bu manzaralar,
Uning otash yuragidan nelar kechar bu dam, nelar!
— Ko‘ring! — dedi — yurgizaman o‘z ozodlik qatorimni,[1]
O‘z qo‘lim-la yaratganman o‘z ozodlik bahorimni,

[1] **Qator** — poyezd.

Amerika! Yaxshi tingla, bu poyezdning ilk sasini,
Nafasim-la gurkiratdim uning o'tli nafasini...
Afsonalar dunyosini men unutgan kundan beri,
Tilsimlarni yorib o'tar bu poyezdning g'ildiragi .
Amerika!Bizlarni ham yo'qlaguchi zamon bo'lar!
Bilki, qullar dunyosining intiqomi yomon bo'lar!

Tog'lar, toshlar salom qilar bu poyezdning sur'atiga,
Tangrilarning kuchi yetmas g'alayonlar qudratiga,
Men o'tkanda bu o'tlarning, otashlarning quchog'idan,
Ofarinlar! — Eshitaman bu dunyoning har yog'idan.

O'z orzumga yetisholmay yarim yo'lda o'lsam agar,
Oppoq sochli onamni ham yanchib o'tsa g'ildiraklar,
To'xtatuvchi men emasman bu poyezdni bir on bo'lsin!
Qalqon bo'lib o't pishqirsin, dengiz bo'lsin, ummon bo'lsin!
To'fonlarning qo'ynida ham mash'alimiz so'nmayajak,
Yoydan chiqqan har bitta o'q aslo qaytib kelmayajak.
Amerika! Har qarorni hukm etguchi zamon bo'lar,
Bilki, qullar dunyosining intiqomi yomon bo'lar!

* * *

Endi negr u minbardan salobat-la tushib kelar,
Uning porloq ko'zlarida ming bir umid shu'lalanar,
U o'limni yengib chiqqan bir xastadek jonlangandi,
Uning sasi shu minbardan keng jahonga taralgandi.

* * *

Chaqmoq kabi bu saslari fazolarni xatlar ekan,
Trumenning qulog'ida bomba kabi portlar ekan,
Uning to'ngan badanidan isitmalar chiqar, boqing!
Xalq dengizi kelar yana saf-saf bo'lib, oqim-oqim.
Yana ochlik, krizis-u ish tashlashlar, yana isyon...
Bu fikrlar mahkam bo'g'ar u jallodning halqumidan.
Qora negr to'g'ri aytdi: hukm etuchi zamon bo'lar,
Qora qullar dunyosining intiqomi yomon bo'lar!

Cherchilning ham ko‘zlarini qop-qorong‘i zulmat bosar,
Qorong‘ilik halqumidan bo‘g‘ib, uni dorga osar.
Keksa rahbar nima o‘ylar? Uning fikri-zikri nadir?
Baroq qoshi chimrilarkan ko‘zidagi ne hiyladir?
Yoki yana to‘qirmikan yolg‘onlardan biror ertak?
Yana bevaqt ajal kabi qirg‘inlarmi o‘tkazajak?
Qon ichish-la sovitarmi qonsiragan yuragini?
Yoki yulqib olmoqchimi yetimlar non—cho‘ragini?

Yong‘inlarmi yallig‘lanar Neron kabi nazaridan?
Yoki vabo yog‘moqdami uning qattol ko‘zlaridan?
Aslo, aslo, keksa Sharqning avlodlari uyg‘ongandir,
Ilma- teshik bayroqlarning rangi qonga bo‘yalgandir.
Jallodlarga bosh egmaydi qadim Misr ehromlari,
Yirtar motam ko‘ylagini ko‘kning g‘arib oqshomlari.
Himolayning cho‘qqisini yoz quyoshi aylanguncha,
Qorli tog‘lar sado berib, oqar soylar loylanguncha.
To‘p tutuni halqalanar qalin o‘rmon orasidan,
Buloqday qon qaynab chiqar yigitlarning yarasidan,
Buddalarning[1] kitobini parchalaydi varaq-varaq,
Temirlardan, po‘latlardan ko‘ylak kiyar qora tuproq,
Ozodlikning bayroqlari to‘lqinlanib kelib o‘tar,
Britaniyaning tosh qalbini nayza kabi tilib o‘tar...

Gomindanning qo‘shini ham qirchang‘iday yurar arang,
Chan-Qay-Shining ko‘zlarida o‘lim, zulmat... ahvoli tang,
Salom, o‘rtoq Chju-de, olqish sening zafaringga,
Sen nayzang-la yo‘l ochasan ozodlikning sahariga.
Salom, senga, aziz o‘rtoq! Bilmasam-da men tilingni,
Bilamanki, sen frontda dafn etding sevgilingni.
Askar kabi ont ham ichding shahid bo‘lgan u qizga san,
Tomchi-tomchi yoshlaringni to‘kkaning yo‘q ko‘zlaringdan.
Sen bir siqim tuproq tashlab u qabrga o‘z qo‘ling-la,
Quyosh kabi shu’la sochib olovlanding amaling-la.

[1] **Budda** — Hind xudolaridan biri.

* * *

Qadimgi Rim! Quyosh chiqar ko‘klaringga kecha yarim,
Qutlug‘ bo‘lsin, sog‘ayibdi Tolyattining yaralari!
U qaytadan jangga kirar shonli bayroq qo‘lidadir,
Uning ishqi, muhabbati millionlarning dilidadir.
Qator-qator, saf-saf bo‘lib tabriklashchun kelar hamma,
Qadimgi Rim! Men ko‘raman qo‘yningdagi izdihomni,
Men qarayman, hilpir-hilpir o‘tgan shonli bayroqlarga,
O‘tar zafar armiyasi zulmni haydab uzoqlarga.
Qahramonlar qilichlari cho‘miladi qizil qonda,
O‘qib turgan duolarin avjlantirar Vatikan-da...

Qadimgi Rim! Quyosh tug‘ar ko‘klaringda kecha yarim,
Qutlug‘ bo‘lsin, sog‘ayipti Tolyattining yaralari.
Bu tomondan Parij tag‘in sig‘mayapti yerga, ko‘kka,
Ishchi o‘rtoq yaxshi kunlar eshigini qoqar tikka.
Cho‘kichini yerga qo‘yib olar ekan yarog‘ini,
Yana yuksak ko‘taradi kurashchilar bayrog‘ini.
Sotqinlarga o‘lim! — deydi mard o‘g‘illar, jasur qizlar,
Marat kabi bayroq ushlab hujum boshlar fransuzlar.
Gohi shunday buyuk shahar to‘lqinlanar ummon kabi,
Gohi qalbi urmay qolar jon beruvchi inson kabi.
Poyezd to‘xtar... Yo‘llar jim-jit, yer silkinar og‘ir-ogir,
Parcha-parcha olov kabi boqishlardan g‘azab yog‘ur.

Samolyotlar uchishmaydi, paroxodning o‘ti so‘nar,
Har soatning, daqiqaning og‘irligi yilga do‘nar.[1]
O‘sha! O‘sha! G‘olib bayroq to‘lqinlanib kelib o‘tar.
Bu, Marshallning yuragini nayza kabi tilib o‘tar,
Yevropaning farzandlari qilichin solmas qiniga,
Yana dollar dunyosining larza tushar borlig‘iga.

* * *

Ko‘zlarimning o‘ngidadir Yer yuzining xaritasi —
Har millatning o‘z toleyi, har Vatanning o‘z nafasi.
Boqarkanman bu yillarning, bu kunlarniig ma’nosiga,
Deyman: tarix o‘lim yozar bosqinchilar dunyosiga...

[1] **Do‘nar** — aylanar.

TOLISTON

Mo‘ysafid tog‘larning ko‘ksida o‘rmon,
O‘tmishga tepadan ko‘z solar hamon.
Yog‘ochlar chirmashib, yo‘l bermas yelga,
Quyosh salom berar bu ona elga.
Otimni suraman yuksaklik tomon,
Tog‘larning boshida oq bulut, tuman.
Ko‘nglimni tortadi, go‘yo damba-dam,
Yuksalganim sari yuksalar siynam!
Bunda zilol suvning xush nashidasi.
Har buloq boshida qushlar yallasi;
To‘p, miltiq ovozi tingandan beri —
Kezar qoyalarda tog‘ kiyiklari.
“Oh, xalqlar!”- deyman men toza yurakdan,
Umrlar yasharar — xalqlar demakdan.

* * *

O‘rmonlar ichida turar Toliston,
Ilk boqishda maftun bo‘ladi inson;
Quyosh bu yerlarda minar otiga,
Yuksalar ko‘klarning yetti qatiga,
Bu yurtda suv zilol, salqindir havo,
Daralari teran misoli samo.
Boqqanda har odam ko‘zi yosh olar,
Shoir bo‘lmagan ham xayolga tolar...
Bunda oq paxtadek tog‘larning qori,
Osilar qoyadan muzlar qatori.

Qoyalar! Qoyalar! Qush qo‘nmas — yuksak!
Sevgiga tushunmas — bari toshyurak!
Dunyoning siri bor, so‘zi bor sizda...

Bir kun kelajak-ki, tosh siynangizda
Qancha naqsh o‘yajak odamzod qo‘li,
Qalqajak ozod ruh, baxtning haykali!
Hinddan, Himolaydan, Misrdan,
Chinda qum dengizidan, o‘tlar ichindan—
Insonlar bu yerga sayrga kelajak,
Va’da berdi shundoq yorug‘ kelajak!
Bunda asrlardan yodgor qolgan,
Boshiga bulutlar soyasin solgan
Ulug‘ bir qal’a bor, to‘rt yoni devor,
Toshlarida yozuv — eski yodgor.
Kimdir bu san’atning ulug‘ ustodi!
O‘lmas san’atkori, san’atning oti?

* * *

Men xalq o‘g‘liman! Xalqlar jonimdir,
Xayolim, san’atim, hayajonimdir.
Soylarning ohangi oqar qonimda,
Chechaklar o‘pishar har dostonimda.
Har butoq, har kulgi, har yashil yaproq,
Bu sunbul, bu ekin, bu tosh, bu tuproq,
Bu jala, bu shamol, bu suhbat, bu soz,
Adirlar qo‘ynida:“Qolgin!”- degan yoz,
To‘shidan suv sizgan—yorilgan toshlar,
Qo‘kda baland parvoz —
uchishgan qushlar,
Soylarning suvida yuzgan so‘nalar,
Qalbi tog‘lar kabi yuksak onalar —
Mening qismatimga tushgan azaldan,
Tarixlar zavq olar ijodkor qo‘ldan...

* * *

Bunda bo‘y cho‘zgandir Toliston tog‘i,
Muzlaydi tumanda qushning oyog‘i.
Qizil gulga o‘xshar bunda yonoqlar,
Hayron qolishadi kelgan qo‘noqlar.

Bunda odamlarning xush boqishidan,
Yoz-u bahoridan, qorli qishidan
Qo'ngil xumorlanar, ilhom jonlanar,
Odam tepasida tog' tumanlanar,
Xayol qanotlanar, uchar uzoqqa,
Odam bir nafas-la tirmashar toqqa..

* * *

Oqar shovqin solib Toliston soyi,
Yulduzlar besanoq, to'lindir oyi!
Binafsha to'playdi go'dak o'rtoqlar,
Har daraxt tagida yorqin buloqlar
Oqar olmos kabi, ko'z yoshi kabi,
Yig'ilib soy bo'lar daraning tubi;
Eriydi yoz kuni tog'lardagi qor,
Kezar tog' bag'rida kelinlar, qizlar,
Har buloq boshida suhbatlar qilar,
Goh bir-birin qutlar, goh g'iybat qilar.
Har oqshom sozlaydi baxshi sozini,
Tashiydi ko'nglida el ovozini...

Sening quvnoq yoshingda,
Tik turibman qarshingda;
Tuprog'ingda, toshingda
Muhabbatning toti bor,
Yulduzlarning oti bor.
O'xshaysan naq gulga san,
Umr bo'yi kulasan.
Keksa Vatan, yosh Vatan!
Bu quvvating bor bo'lsin!
Senga salomlar bo'lsin!
Na bek qoldi va na xon,
O'lim tutmas yoqangdan...
Qalbim kabi jo'sh ur, yon,
Shonli bayroqli Vatan!
Ko'p burchliman senga man!

Yeringning ost qatida —
Temir ham bor, oltin-da,
Har bir toshing ostida
Bir shoirning qabri bor,
Ming onaning sabri bor.

Dog‘ tushmagan vijdoning,
Azaldan sofdir qoning!
Har muqaddas onaning
Allasida hayot bor!
Kuysin ishonmaganlar!
Zanjiring yo‘q, kishan yo‘q,
Yurtsiz onang, bolang yo‘q,
Tilingda hech yolg‘on yo‘q,
G‘uborsiz ruhing-la san —
Bokira qiz kabisan!

* * *

Kelsin o‘rtoq injener,
Konu-xazina bu yer!
Oltin, kumush, mis, temir —
Tuproqlarda yotmasin,
Baland tog‘u bu dara —
Taslim bo‘lsin bizlarga!
Qo‘l tegmagan yerlarga
Sarflansin quvvatimiz,
So‘zimiz, qudratimiz!

* * *

Essiz! Bu go‘zallik, bu bahor, bu qish —
Asrlarcha yotib, uyquga tolmish...
Qadrini bilmagan dehqon qardoshim:
Soylarning suvida yuvgan yuzini,
Umrida bilmagan hammom so‘zini.
Yerini bir egri yog‘och-la surgan,
Ko‘zi-la dunyoda kulfatlar ko‘rgan!

Qo‘llari qadog‘-u, ko‘zlarida qon,
Bir to‘yib yemagan — o‘zi ekib don.
Hovlisi, qopqasi, har yog‘i — balchiq,
Yosh-yosh go‘daklarin boldiri ochiq,
Tabibsiz, davosiz kuni o‘tgandir,
O‘g‘ilsiz onalar motam tutgandir...
Kelinlar ishongan duo-yu, folga,
Bir el topshirilgan bir oqsoqolga;
Mana, Tolistonning zich o‘rmonlari —
Yodimga soladi u zamonlarni;
Hayot bu yerlarda jim-jim oqarmish—
Har ko‘lning yonida o‘g‘rilar bormish.
O‘tgan karvonlarni so‘yib talagan,
Tog‘larning boshida o‘choq qalagan,
Har kecha bir uyga bosqinga kelgan,
Yirtqich bo‘rilarday o‘ldirib, o‘lgan —
Ellarning dushmani u vahshiylardan
Bir nishon ko‘rmadim Tolistonda man.
Miltiqlar osig‘liq, qilichlar qinda,
Dehqonlar yer haydar oy yog‘dusinda.

* * *

So‘rayman: “Bu yerda tilanchi bormi?”
Aytishar:”Tinch elda ochlik bo‘larmi?”
O‘tirar eshikda o‘quchi bir qiz,
Qo‘lida qalamu qog‘oz — g‘uborsiz,
Tumanli tog‘larga uzoq ko‘z suzar,
Qog‘ozga sodda, jo‘n rasmlar chizar.
Uning ruhini ham o‘ynatar san’at,
Qo‘ynida parvarish etgan tabiat;
Chimrilar damba-dam qora qoshlari,
To‘plangan yoniga maktabdoshlari,
Ko‘zlarda yashamoq, kulmoq havasi;
Ba’zan ko‘k yuzida bir motor sasi, —
U oq bulutlarni parchalab, titkan,
Bu baland tog‘larning ustidan o‘tgan —

Samolyotga tomon tikilar ko‘zlar,
Yugurar ketidan bu sodda qizlar...
“Hoy, qiz! Hoy, Parijon! Unga boq, unga!
Uchuvchi Laylodir[1], va yoki So‘na!”
Kular naslimizniig shonli bayrog‘i,
Kular tumanlarda Toliston tog‘i.
Qishloqda kezaman yetagimda ot,
Qalbimda bir quvvat buyurar: yarat!
Bu ulug‘ ko‘klarga bag‘ishlab she’r yoz!
Sayrar ko‘ngillarda ming sadafli soz;
U deydi: mening ham shoirim bordir,
She’rsiz har bir diyor — xarobazordir...
Javob ber, tanishdir senga bu ovoz,
Don ekkan kishiga bag‘ishlab she’r yoz!
Qishloqni kezaman, yetagimda ot,
Qalbimda bir quvvat buyurar: yarat!
Qarshimga xilma-xil odamlar chiqar,
Hol-u ahvol so‘rab, qo‘limni siqar.
Harqaysi — hovlimda qo‘noq bo‘lgin, der,
Bu baxtli kunimiz o‘zing ko‘rgin, der...
Mening tabiatga bir savolim bor:
O‘larmi bularni ko‘rgan san’atkor?

* * *

“Eshiting, o‘rtoqlar!” —
So‘zimni bo‘lar olqishlar,
Kulishlar, nash’alar,
shodon boqishlar.
Darada jaranglar “ura” sadosi,
Ezgulikni sevar tog‘lar dunyosi.
Qahramonni sevar endi bu zamon,
Qahramonlar chiqsin o‘z orangizdan!
Qonun ham sizdadir, yerlar ham sizda,
O‘lkaning toleyi o‘z qo‘lingizda!

[1] **Laylo** — Ozarbayjonning birinchi uchuvchi qizi.

Yengini shimarsin botir o‘g‘illar,
Qolmasin bu o‘ydim-chuqur, do‘ng yo‘llar.
Oqshomda elektr lampalar yonsin,
Uning shu’lasidan hushlar uyg‘onsin;
Yorug‘lik — quyoshdir,
yorug‘likdir oy!
Yorug‘siz ko‘ngilning toleyiga voy!
Usiz yorishmasdi iforli sahar,
Muzlardi daryolar, esmasdi yellar.
Usiz yonmas edi na olov, na sham,
Doimo xor kabi kezardi oqshom —
Zumrad shaharlarga ko‘zin tikardi,
Hayotga doimo zulmat cho‘kardi;
Bo‘lmasdi san’atda go‘zallik so‘zi,
Quvvatdan qolardi odamzod ko‘zi.
Shu’ladir — dunyoning zavqu safosi.
Yorug‘liq — insonning ulug‘ dahosi!
Qoyalar ichida turar Toliston,
Ilk boqishda maftun bo‘ladi inson!
Qoyalarning boshi yetar falakka,
Xayol uchar yaqin bir kelajakka:
Yana o‘z o‘rnida tog‘lar, daralar,
Bahrni ochquchi xush manzaralar...
Chiqar sayrgohga qizlar, onalar,
Daraxtlar ostida tin olar qalbdan,
Salqin hovuzlardan va fontanlardan;
Yaratar barini ishchining qo‘li,
Yaratar bu kunni ulug‘ amali!
— Yangi binolar,
Qarang, turnalarday tuzishipti saf.
Yorug‘ nur yog‘moqda, nurli har taraf!
Katta derazalar quyoshga to‘g‘ri
Konlarda ishlagan bu elning o‘g‘li —
Dasturxon yozadi buloq boshida,
Umrining baxtiyor, ozod yoshida —
Ko‘zi bilan ko‘rar, zavq olar qalbdan,

Salqin hovuzlardan va fontanlardan;
Yaratar barini ishchining qo‘li,
Yaratar bu kunni ulug‘ amali!

* * *

Allo! Bu Bokumi? —degay Toliston.
Yashasin kelajak! Yashasin inson!
Hozir ham radio sho‘x ohang chalar,
Toliston dehqoni zavqlarga tolar.
Kecha-kunduz birdek qaynaydi hayot,
Hayotdan zavq olar keksa koinot.
Mening tabiatga bir savolim bor:
O‘larmi shularni ko‘rgan san’atkor?

1939

DOR YOG‘OCHI

Kavkaz yashil, Kavkaz salqin,
Yulduzlarning, quyoshlarning
Makonidir bizning diyor,
Har toshida bir chechak bor,
Tumanlari, bulutlari,
Odam bo‘yi — tog‘ o‘tlari.
Jon bag‘ishlar xastalarga—
Tumanli tog‘, go‘zal dara,
Daraxtdagi yashil yaproq,
G‘alla bergan qora tuproq,
Daladagi sariq sunbul,
Cho‘llardagi yovvoyi gul,
Ko‘k yaylovlar, salqin tog‘lar,
Olma-yu, anorzor bog‘lar...
Kavkaz yashil, Kavkaz salqin,
Ko‘zi tushdi arablarning...
Bu o‘lkaning o‘g‘il, qizi,
Yonoqlari qip-qirmizi,
Qora qoshli, qora ko‘zli,
Kular yuzli, shirin so‘zli...
Uxlatguchi mung—allalar,
Sho‘x qo‘shiqlar, sho‘x yallalar,
Sahar — xo‘roz bong urishi,
Karvonlarning yo‘l yurishi,
Turnalarning xush ovozi,
Oshiqlarning torli sozi —
Dunyoda “Menman!” deb tikka,
Ont ichgandir go‘zalikka.

Kavkaz yashil, Kavkaz salqin...
Ko‘zi tushdi arablarning...

O‘t ichida Arabiston,
Yonar tuproq, yonar inson,
Yonar hayot, yonar tuyg‘u;
Na qumlarda bir qultum suv,
Na quyoshda marhamat bor,
Unda yonar qumzor tog‘lar.
Yerning bag‘ri suvga muhtoj,
Odamlari — och, yalang‘och,
Na dalada xirmoni bor,
Na uyida to‘liq ombor...
Kavkaz yashil, Kavkaz salqin...
Ko‘zi tushdi arablarning...
Har tarafda qum dengizi;
Bosqinchilar bet — mengizi
Tosh ko‘mirdan badtar qora,
Dilda — ozor, tanda yara —
Tabibsizdir, davosizdir,
Tor kapalar havosizdir.
Kavkaz yashil, Kavkaz salqin...
Ko‘zi tushdi arablarning...
Vayron bo‘lgan xonalarning
Go‘daklarning, onalarning —
Ochligidan o‘chgan quti,
Payg‘ambarning qashshoq yurti,
Qo‘lidagi sirli qur’on —
Bir tangriga ahdu-paymon...
Yerning bag‘ri yoriq-yoriq,
Yer kamhosil, odam oriq.
Boshlarida falokat ko‘p,
Qo‘shinlar ham qaytar to‘p-to‘p.
Majlis qurar har kun sahar —
Hirs kabi to‘q xalifalar.
Yeydi totli xurmolardan,
Ovchilar ham sahrolarda
Shirin go‘shtli qushlar otib,
Xurjunlarni liq to‘latib,

Keltirishar "haq yo'liga" —
Xalifaiing o'z qo'liga...
Ko'kdan yerga zulm yog'ur...
Nonlar qimmat — soliq og'ir...
So'rilsa-da qoni yerning —
Ko'zi to'ymas xojalarning...

* * *

Bir kun arablarning bor qo'shinlari —
O'ng qo'lida — qilich, chap qo'lda — qur'on, —
Yurish boshladilar janubga sari,
Uning qarshisida tiz bukdi Eron.
Kishnadi dashtlarda arab otlari,
Oyoqlar ostida inson boshlari,
Titrar ot nag'alidan yerning qatlari.
Chimirildi Kavkazning qora qoshlari...
"Tangrining amriga bosh eging!"- dedi,
Baland ko'tarildi qilich, qatog'on;
Qo'shinlar, nayzalar yuzma-yuz keldi,
Har tarafda o'lim, har tarafda qon.
Bu odam selini to'sdi mardona,
To'sa oldi Kavkazniig mard o'g'illari;
Bu tor daralarni birma-bir o'tib,
Otdi o'qlarini dushmanga tomon.
U qo'rqinch zamonlar, u qonli chog'lar,
Onalar sochini bir-bir yulganda;
G'arib kechalarning oy yorug'ida,
Tindi ona yurtning so'z oqshomlari,
Orzular — ko'ngilda... Qilichlar qinda...
U kundan Kavkazning kelini, qizi,
Boshdan-oyoqqacha kiyindi qora,
Jimjit saharlarning yorug' yulduzi
Chulg'andi qop-qora, zich bulutlarga.
Umrining eng aziz, ma'sum yoshida
Qul kabi sotildi men aytgan nigor.
Kechalar yig'ladi beshik boshida,

Tilidan tushmadi dardli allalar.
Yozda xirmon yanchdi, yelkada go‘dak,
Ko‘zidan o‘t chiqdi, ohidan tutun;
Uning tiliga ham urilgandi qulf,
O‘z qora baxtidan ranjidi tun-kun.
Umrida bir marta erkin kulmadi.
Qo‘lining kuchini sotgan yo‘qsullar —
Baxt qasrin qulfini tuta bilmadi.
Odamning boshiga kulfat tushganda.

Bu qorli tog‘larga sig‘indi Bobak —
Ozarning qahramon, yengilmas o‘g‘li!
Yuragi otash-u qasos-la to‘liq...
Tikka qoyalarga kerib keng ko‘krak—
Bosqinchi arab-la turdi yuzma-yuz,
Otgan o‘qlariga to‘ldi dala — tuz....

“Menman bu o‘lkaning quvvati, joni!
Dushmanlar olmasin Ozarbayjonni!
Bu yashil yaylovlar o‘z vatanimdir,
Oq sut bergan onam va sevganimdir!
Meniki bu havo, bu suv, bu tuproq,
Qo‘limda yashnagan shonli bu bayroq.
Meniki bu bahor, meniki bu qish,
Bu meqnat, bu ho‘kiz, bu yer va bu g‘isht!”
Bobak guldiratib shunday bong urdi,
Mardlar-la otini yov tomon burdi.
Bu qator tog‘lar-u, kechiklar barin —
Vatan sevgisi-la oshdi ilgari.
Tutib to‘da-to‘da yov — arablardan —
Arasga g‘arq etar edi u birdan.
Yoyildi shuhrati Ozarbayjonga...
Imomlar, amirlar qochdi har yonga —
U arslon yigitning har na’rasidan,
Qo‘shinlar qochardi mard zarbasidan.
Bo‘yaldi nayza-yu qilichi qonga,

Uning qudratiga qoyil har ona —
O‘g‘lining otini qo‘yardi Bobak...
Kunlarning birida qon bo‘ldi yurak,
Har yonga taraldi qayg‘uli xabar:
U yirtqich ko‘zlari qonli arablar—
Bir oqshom tog‘lardan quyosh ko‘chganda,
Ellarning qo‘lini hasrat quchganda,
Qahramon Bobakni to‘rga solipti,
Ulug‘ bir o‘lkadan qasos olipti.
Bu mudhish xabarni oqizdi Aras,
Bunday motam elda hech bo‘lgan emas.
Onalar soch yoyib, kiydilar qora,
Yovlar ot chopardi bu tog‘lar ora...
Keng o‘lka uchradi tag‘in talonga,
Bobakni sudrashdi Arabistonga.
Arablar uni dor-yog‘ochga osdi,
Intiqom yallug‘in shu zayl bosdi;
Qonli bir fojia ataldi u dor,
Boshini qumlarga egdi xurmolar...
Tikildi ko‘klarga Bobakning ko‘zi,
Tarixda qolgandir oxirgi so‘zi:
“Qo‘lida nayzasi, ko‘kragida qon,
Quyosh yorug‘ida qobiqdan chiqqan —
Qullar dunyosining qardosh sasiman,
Bir yangi ilhomning nashidasiman...
Nedir hayotdagi bu ayriliqlar?
Bir yonda ko‘z yoshi... Bir yonda savdo...
Tabiatda bormi shunday qiliqlar?
Quyosh-la bir qator yashardi dunyo —
Insonlar do‘st kabi inoq bo‘lsaydi!
Muhabbat, e’tiqod porloq bo‘lsaydi!
Nedir bu qirg‘inlar, qilichlar, qinlar?
Bir taraf zindondir, bir taraf saroy—
Nechun qafaslarda qolsin xotinlar?
Go‘zal ko‘rinmasmi bulutsiz bir oy?
Nedir hayotdagi bu rang va bu g‘am?

Bundoq bir olamga chekdim men qalam,
Hayotni chaqirdim yangi bir kunga,
Ovoz berdi butun sunbul terganlar,
Ishonar odamning ulug'ligiga —
Yorug' zamonlarga yo'l ko'rsatganlar..."
Tarix! Ochilsang-chi sen varaq-varaq!
Xayolim ko'klarda misoli chaqmoq,
Butun koinotni kezmoqchi qat-qat,
Sen esa, bor-yo'g'ing shoirga ko'rsat!
O'tgan yo'llaringga guvohmi tog'lar?
Tuproqlar ostida qancha nayza bor?
Men ko'ngil bermadim u o'tmish kunga,
Tortinma sevgilim, so'yla ko'ksingga —
Qo'yilgan nechog'liq motam xarsangi,
Nedandir dashtlarda lolaning rangi?
So'yla ko'rganingni, Kaspiy dengizi!
Qayerda sen bilgan qullarning izi?
Ozodlik yo'lida o'lganlar qani?
Badmast saroylarda kulganlar qani?
Nelar ko'rganingni so'ylagin bir-bir...
Temurbek, Chingizxon, Iskandar kabir
Sening sohilingda ot o'ynatdimi?
Qushlar ham qo'rquvdan yerga yotdimi?
Xadafi[1] bo'ldingmi jahongirlarning —
Saharlar qo'ynida tuqqan hulkaring —
Rangi bo'yaldimi qizil qonlarga?
Netding sen u zobit shoh-sultonlarga?

Ey ona tuprog'im! Ey aziz Vatan!
Bilaman, dunyoda o'z ko'zing-la san

Ko'p jafo ko'rgansan... Bu bir haqiqat!
Ammo senga mangu saxiy tabiat!

1935

[1] **Xadaf** — nishon, mo'ljal.

“YURAKDAGI SHE’R“
kitobidan

* * *

Men suhbat ochmayin yuz yil naridan,
Va lekin bugundan uzoq yurmayman.
Buyuk kelajakninng ol sahariga
Oddiy bir xotira bo‘lib kirmayman.
Shoirning umrini xalq uzaytirgay,
U buyuk kunlarni yozmay va ko‘rmay
Yuz yil yashasam-da, lekin o‘lmayman.

OZARBAYJON

Ko‘p oshganman bu tog‘lardan,
Turna ko‘zli buloqlardan,
Tinglaganman uzoqlardan
Sokin Aras- ishvakorni,
Sinaganman do‘st-u yorni.

El biladi: san manimsan,
Yurtim, uyim, maskanimsan,
Onam, tug‘ma Vatanimsan,
Ayrilarmi ko‘ngil-u jon,
Ozarbayjon, Ozarbayjon.

Men — go‘dakman, sensan ona,
Senga bog‘liq borim yana,
Qaysi diyor, qaysi yona
Uchsa hamki o‘yim sensan,
Yurtim, kunim, uyim sensan!

Faqat ketsam sendan yiroq,
Boshga tushur achchiq firoq,
Hasratingda soch bo‘lur oq...
Bo‘g‘ar yillar, oylar meni,
Koyimasin ellar meni!

Tog‘laringning boshi qordir,
Oq bulutlar — ko‘rk, viqordir.
Buyuk bir o‘tmishing bordir,
Sanoq yetmas yoshing sening,
Nelar ko‘rmish boshing sening!

Tushding badbaxt asrlarga,
Og‘ir-og‘ir fasllarga...
Nasllardan nasllarga
O‘tgan bir shuhrating bordir,
O‘g‘ling, qizing baxtiyordir.

Tikilganda qir, bo‘zlarga
Sernur, zavqli kunduzlarga,
Qora xolli oq yuzlarga
Ko‘ngil she’rni istar toza,
Yosharaman yoza-yoza...

Bir yoningda bahri Xazar,
Yashilbosh suqsurlar suzar.
Xayol qurg‘ur yeldek kezar,
Goh Eldorni, Mug‘onni goh,
Umr chekli, manzil uzoq!..

Tutash tog‘lar, zap daralar,
Dil bog‘lovchi manzaralar.
Jayron qochar, uloq ma’rar-
Ko‘pdir yaylov, bog‘ing sening,
Biyday qir, o‘tlog‘ing sening.

O‘tgil tog‘dan, bog‘istondan,
Astaradan, Lankarondan;
Afrikadan, Hindistondan
Bizga mehmon bo‘lar qushlar,
G‘amdan ozod tunar qushlar!..

Bu yerlarda pishsa limon
Mayishadi shoxlar har yon.
Tog‘lar qorli boqma qachon,
Xabarchidir go‘yo qishdan...
Metin-qo‘rg‘on yaralishdan.

Lankaronning guli xol-xol,
Yurtimning qizlari misol.
Choyni quygil, sohibjamol,
Yotlarga ochmas dilini,
Onamning suqsur kelini!

Boshoq tugar- ertangi non,
Paxtamizdir xirmon-xirmon,
Uzum shira yig'ib chandon...
Intiq inson yo'llariga,
Kuch bo'lay deb qo'llariga!

Qozohdan min bedov otga,
U yetkazmas hatto bodga,
Chopsin qora terga bota...
Dovonlarning beliga qalq,
Kavkaz tog'dan Ko'kko'lga boq.

Ey, ozod kun, ozod inson,
Bahordan ich, bahorga qon.
Paloslarni yozgil chaqqon
Keksa chinor ko'lkasiga,
Olqish quyosh o'lkasiga!

Ko'ngil kezar Qorabog'dan,
Goh bu tog'dan, goh u tog'dan.
Havolansin Xonning[1] sasi —
Qorabog'ning shikastasi.

Aziz Vatan, ma'ning teran,
Go'zallarning beshigisan.
Baxshi kuylar faxr bilan:
Sen quyoshning quchog'isan,
She'r-u san'at o'chog'isan.

[1] **Xon Shushinskiy** — xalq xonandasi.

O‘lmas ko‘ngil, o‘lmas asar, —
Nizomiylar, Fuzuliylar!
Qo‘ling qalam, ko‘ksing daftar,
Aytgil, qolsin nimangki bor,
Aytilgan so‘z bo‘lur yodgor!

Endi bizning Bokuga boq,
Sohilida ming bir chiroq.
Burg‘ulari hayqiraroq,
Shovqin solur bo‘z cho‘llarga,
Nur ulashur tog‘, qirlarga.

Nozli shamol esar birdak,
Sohillarda kerib ko‘krak.
Bizning Boku-bizning yurak!
Nur, yog‘duda —qudrat so‘zi,
Saharlarning Hulkar ko‘zi.

Bir zamonlar, go‘zal Vatan,
Erk tug‘ilgan bir sahardan
Ilhom olding...tug‘ildim man.
Kular tuproq, kular inson,
Keksa Sharqning qopqasisan!

Aziz Vatan — yorug‘ yuzim,
Tingla manim yurak so‘zim.
Qardoshlikda baxt yulduzing!
Gullaybergil dorilomon,
Ozarbayjon, Ozarbayjon.

BIZNING YOSHLIK

Bizning yoshlik ulg‘aytirdi sher yurakli o‘g‘lonlarni,
Bu yoshlikning ko‘zlarida borldir bahor armonlari.
Dilda tashvish, ko‘ngil deydi, tugamadi, ne gap shoir,
Jo‘shqin yoshlik jasoratin tasvirlagan dostonlaring?!

Bu yoshlikning iqbolidan ochmish hatto oy qovog‘in,
Bu yoshlikning qo‘li bilan bunyod bo‘ldi san’at bog‘i.
Baxtiyordir bu el o‘g‘li, baxtiyordir bu el qizi,
Bu yoshlikning siynasiga begonadir hijron dog‘i.

Salom sizga ishqi erkin, qalbi ozod shunqorlarim,
Muhabbatdir ajib dunyo, chertgay nozik dil torlarin.
Seving, o‘ynang, baxtli bo‘ling, tilagim shu sizga, do‘stlar,
Men ham yozay daftarimga ishqqa sodiq dildorlarni.

Men qalbimda, ilhomimda ardoqlayman bugun sizni,
Yoddan o‘qing she’rimizni, toza tuting tilimizni.
Bizning yoshlik olib chiqar yulduzlarning makoniga
Voqiflarga ilhom bergan she’r, san’atli elimizni.

Kecha-kunduz o‘tarkanman bu yoshlikning gul bog‘idan,
Ming bir ilhom olar ko‘nglim bulbullarning sayrog‘idan.
Salom senga, ozod yurtim. salom senga, erkin yoshlik,
Qizil gullar bo‘yoq olmish qizlarimiz yonog‘idan.

Endi manim bir so‘zim bor qishlog‘imiz qizlariga,
Suruv-suruv jayron chiqar bizning Mug‘on tuzlariga.
Tabiatdir buyuk rassom, u qo‘yibdi surmasini
Turna ko‘zli go‘zallarning qoshlariga, ko‘zlariga.

Men go‘zallik oshig‘iman, unga qalbim, umrim-bari,
Bizning qizlar na malakdir, na-da hurdir, na-da pari.

Ammo ular bezanganda, kaklik kabi sayrashganda
Yana go‘zal bo‘lib ketar elning go‘zal majlislari.

Bizning erkin dunyomiz ham go‘zalliklar dunyosidir,
Har ko‘ngilning sajdagohi bir muhabbat daryosidir.
Toshdek qotsin bu dunyoda muhabbatning qadrin bilmas,
Muhabbat — bu tiriklikning, sadoqatning ma’nosidir.

Qizlarimiz zeb berganda yonoqlari yonar, qara,
Qoyalarning qori yanglig‘ yuzlar tiniq, yuzlar sara.
Sen ey, shoir ilhomining ilk onasi, ilk singlisi,
Sahar-sahar sochlaringni oq yuvgil-u oppoq tara!

Sen ey, inson qudratining ilk beshigi- buyuk ona,
Parvonadek atrofingda aylanamiz yona-yona.
Hech tushmasin qo‘llaringdan bu kitoblar, bu daftarlar,
Toleyimiz, tarbiyamiz topshirilar senga yana...

Ilm kuchi yo‘llar ochdi qulflangan dengizlarga,
Hur davrimiz ziyo sochdi ziyo ko‘rmas gul yuzlarga.
Tezda inson ilmi bilan sayr etadi fazolarni,
Yulduzlarni guldek terib olib tushar siz-bizlarga.

Bu ilmga toza ko‘ngil erur doim do‘st-u inoq,
Sof ko‘ngilli insonlardan hech tushmagan tarixga dog‘.
Bizning qo‘llar bunyod etar bu saodat dunyosini,
Yoshligimiz qiziqtirmas dabdaba-yu bisot mutloq.

Inson asli sodiq yashar o‘z kalomi, o‘z ahdiga,
Lekin hamon uchrab qolar ko‘z tikuvchi el baxtiga.
Ularni xalq qulog‘idan dov-daraxtga mixlar shaksiz,
Xalqning mulki daxlsizdir, ko‘chsak agar so‘z naqdiga.

Aziz tutib, e’zozlaylik chin do‘stlikning qadrini biz,
Jon tikaylik bu do‘stlikka, qardoshlikka har birimiz.
Nomus qilsin o‘z kunidan maslaksizlar, qalbi ko‘rlar,
Boqiy yashar bu Vatanda pokdomln-u toza tamiz.

Olaqarg‘a qo‘shilmasin bulbullarning qo‘shig‘iga,
Bizning yoshlik yarashadi jasoratlar oshig‘iga.
Bilib qo‘ysin safsatachi, gapda ishni boplovchilar,
Axir qanday inson bo‘ldi, yaramasa el ishiga.

Omon bo‘lsin bu davronlar, dil yayratgan yangroq torlar,
Bulbullari chaq-chaqlagan nozli dilbar-gulbahorlar.
Zamon o‘tar, hayot yashnar, olim bo‘lgay go‘daklar ham,
Tushib qolgay yo‘lda beshak ko‘ngli qora, bag‘ri torlar.

Karvonimiz olg‘a yurar, yo‘li oydin ham quyoshlik,
O‘z yerida qotganlarni kutmas tarix butun boshlik.
Vatan, sevgi, maslak, ilhom bizga mangu hamroh erur,
Omon bo‘lsin bizning yoshlik,
Omon bo‘lsin bizning yoshlik.

TO‘RT SO‘Z

Bashar avlodining osmon qadar
Yulduzdek chaqnagan bir lisoni bor...
Bu muhtasham kitob, muhtasham asar,
Har so‘zda bir olam qilgay barqaror.

Qarangki, zamindan xayol uchirmish,
U menga ko‘klarda oshiyon qurmish.
Atrofim qurshabdi sonsiz yulduzlar,
Bugun bu olamdan o‘zga zavq oldim.
Yulduzlar emasku meni qurshagan,
So‘zlar majlisida mehmonda qoldim.

“Muhabbat” so‘zi bor bizning zabonda,
U tog‘lardan tushgan bir shaffof suvdir.
Yoshini bilimaydir hatto zamon-da,
Balki u insoniy to‘ng‘ich orzudir.

Bir kulib qarasa bu nozli bahor,
Gul ochar yurakda bo‘lgan har tilak.
Bu ilhom qizining iqtishomi bor,
Jilmayib qalbingga kuch berar beshak.

Uning yuragida kinmi, hasadmi,
Xiyonat ko‘rmoqchi bo‘lgan adashar.
Manim ont ichganim pok muhabbatning
Bag‘rida muqaddas bir niyat yashar.

Ishqning ipak tanli, zarif qanoti
Zamonning zayliga topshirdi bizni.

Yurakka yor ekan muhabbat oti,
O‘stirdi insonlik sharafimizni.

Muhabbat-jasorat! Bu hukmi azal-
Bizning qismatimiz bo‘ldi jahonda.
Ko‘ngillar yo‘lchisi u munis go‘zal,
Ming yurak fath etar bir boqqan onda.

Uning qarshisida tiz cho‘kar inson,
Tiz cho‘kar qilichli qahramonlar ham.
Muhabbat olovli, o‘tidan har on
Yonib shafaqlanur osmonlar ham.

“Saodat” so‘zi bor yana lisonda,
Saodat — bu ko‘rkam, bu xashbaxt sahar.
Tole yulduzi deb uni jahonda
Bir umr izladi o‘tgan nasllar.

Saodat misoli zamon-u makon-
O‘lchov-u chegara unga tamom yot.
Saodatli sahar, saodatli on
Xayolda ochadi yangi koinot.

Oh, uning quchog‘i mehri jahondir,
Pokiza va ma’sum dudoqlari bor.
“Yashasin saodat, yashasin bahor!”
Ulug‘ shiorlar ham hukmi zamondir!

Lutfkor yaralgan uning qo‘llari,
U yorug‘ kunlarga boshlaydi bizni.
Saodat qizining sha’n orzulari
O‘limdan asragay pok ishqimizni.

Yana tilimizda “Vatan” so‘zi bor,
Ona quchog‘idir bu muqaddas so‘z.

Eng buyuk orzular unda ustuvor,
Na ko‘ngil to‘yadi undan, na-da ko‘z.

Vatan ko‘kragidan bizga sut berur,
Tiriklik ne’mati bu shonli tuproq.
Quloq tut bu onang ne o‘git berur,
“Yashagin faxrli, yashagin porloq!”

Vatan o‘z mehri-la tug‘ma onadir,
U “oq yo‘l” tilaydi qahramonlarga.
Shahid farzandlarin bag‘riga bosib,
Motam ham tutadi oqqan qonlarga.

Ha, qodir yaralgan, muqaddas Vatan,
Buyuk bu hakamdan bo‘lgan ixtiyor.
Buzilmas zamonlar zayili bilan,
Uning o‘z hukmi bor, o‘z dunyosi bor.

“Zafar” so‘zining ham chin oshig‘iman,
Quyoshdan yuksakdir uning bayrog‘i.
Jasur o‘g‘illarning irodasidan
Yoshardi bu ko‘hna Vatan tuprog‘i.

Kimningki otiga oshnodir “Zafar”,
Unga yor hamisha baxt-u saodat.
Zafarli qo‘shinlar boshladi safar,
O‘limdir jahonda so‘zsiz itoat.

Buyukdir “Zafar”ning qalbi, a’moli,
Elning yuragiga singar lahzada.
Essa ham davrning vabo shamoli
O‘ynasin zafarlar qizil nayzada.

Yuksalsin muzaffar bayrog‘ing, “Zafar”,
Sen bilan faxr etar bu ona — Vatan.

Sensiz aziz tuproq hasratda yashar,
Insonning shuhrati, sharafi sensan!

Yashasin MUHABBAT atalgan pari,
Yashasin SAODAT-bahor sahari!
Yashasin onamiz, muqaddas VATAN,
Tong otsin har kuni bir ZAFAR bilan!

SADOQAT

Dunyo mendan so‘rab qoldi,
Ayt, maslaging, yo‘ling nadir?
Dedim, suyuk Vatanimga
Ko‘nglim qushi parvonadir.

Azal-boshdan shu bog‘daman,
Bulbulsifat butoqdaman.
Otam o‘tdi, tuproq tomda,
Men oynaband yotoqdaman.

Qalbdan chiqar shunday ovoz:
Tug‘ilmadim manfur, nosoz.
Non bilmagan, tuzdan tongan
Bir shoirning o‘lgani soz.

Ellar og‘zi yetdi oshga,
Oftob tegdi yo‘qsil boshga.
Vafosizning, xoin qalbning
Ko‘r vijdoni do‘nsin toshga.

Go‘zal Vatan, aziz ona,
Sen chiroqsan, men parvona,
Ko‘kragingdan sut emganman,
Umrim senga qurbon, mana.

Bir bulbulman, yor oshig‘i,
Tarlon ko‘ngil yora sho‘ng‘i,
Muhabbatga vafo erur,
Bu dunyoning yarashig‘i.

Ko‘ngil, goho chiq yotoqdan,
Sharhingni ayt ming butoqdan.
Bu dunyoda asil inson
Suv ichadi bir buloqdan.

Ko‘ksimda so‘z qator-qator,
Yuragimda quyosh yotar.
G‘anim degan nari yursin,
She’rlarimning tig‘i botar...

Do‘stlar, quyosh sirdoshimiz,
Muhabbatdir qardoshimiz.
Ulug‘ Vatan bayrog‘idir,
Egilmagan tik boshimiz.

Hujumga o‘t sen ham qalam,
Qalbi, fikri qora odam
Insonsifat bir iblisdir,
Dorga osgil, qilmay karam.

Muqaddasdir yurtning bori,
Otalar shon, e’tibori.
Sinovlardan yaxshi o‘tsin
Har tanishing, do‘st-u yoring.

Tayyor tursin, ha, insonlar,
Boshlanadur imtihonlar.
O‘lkamizda sadoqatning
Hurmati zo‘r, ey yoronlar.

Bir bulbulman, yor oshig‘i,
Tarlon ko‘ngil yora sho‘ng‘i!
Muhabbatga sadoqatdir
Bu dunyoning yarashig‘i.

YAYRANG, O‘YNANG, AVLODLARIM

Shahar uzra qanot yoyib mudray ketdi horg‘in oqshom,
Talay chodir qurdi ko‘kda to‘da-to‘da, sur bulutlar.
Asta-sekin qorayarkan moviy suvlar, ko‘m-ko‘k o‘tlar,
O‘z ortidan meni asta uyga boshlar shirin-ilhom...
Shahar uzra qanot yoyib mudray ketdi horg‘in oqshom.

Barham topmish maydonlar-u muyulishlar izdihomi,
Siyraklashmish ko‘chalarda mashinalar g‘ovur, sasi.
Shahar ulkan, har kishining o‘z zavqi bor, o‘z havasi —
Saroylar-u teatrlar, kinolarda o‘tar shomi,
Barham topmish maydonlar-u muyulishlar izdihomi.

Men ham bir oy ko‘rmaganim daftar uzra eggancha bosh,
Deyman asta, salom bo‘lsin she’r-u san’at dunyosiga.
So‘z uyini xoli ko‘rib ot surmasin, shamol yakkash,
Ko‘ngil qo‘yib, jon kuydirgum har kalima ma’nosiga,
Deyman asta, salom bo‘lsin she’r-u san’at dunyosiga.

Yurak daryo, orzular ko‘p, yo‘llar uzun, sabrim yetmas,
Deymanki, oh, uza bilsam zanjirini jaholatning.
To‘lgan yurak bo‘shalmasa, dil chanqog‘i nari ketmas,
Yaratishdir, yaratishdir, chin bayrog‘i saodatning,
Deymanki, oh, uza bilsam zanjirini jaholatning.

Bu fikrlar dunyosiga egilganda yana boshim,
Go‘yo menga quloq osar sokin bo‘lib ulkan shahar.
Oq qog‘ozga she’rim sochur karandashim-ko‘makdoshim,
Qulog‘imga yuragimning har bir zarbi go‘yo kelar,
Go‘yo menga quloq osar sokin bo‘lib ulkan shahar.

Uyimiz ham bir jimjitki, na gapirgan, na kulgan bor,
Qirqilgandek jujuqlarning qotib-qotib kulishlari.
Xiyla vaqtki yo‘qdur garmon, kamon chalib o‘tishlari,
Ba’zan jujuq dunyosini na anglagan, na bilgan bor,
Uyimiz ham bir jimjitki, na gapirgan, na kulgan bor.

Yusuf olib mo‘yqalamni bir chekkada rasm solur,
Kichik-kichik tablolarga nelarnidir joylab qolur.
Oybangiz ham o‘ng qo‘l ila o‘ynab guldor etagini,
Divan uzra tinglar yana buvisining ertagini.
Voqif esa dumalaydi, bir erkinlik nafasida,
Mudrab borar mushuk kabi onasining tizzasida.

Ular nega gaplashmaydi, nega kulib o‘ynamaydi,
Nechun manim ta’bim kabi buloq bo‘lib qaynamaydi.
Bu polapon yuraklardan nelar kechar, hozir nelar,
Onam asta, shovqin solmang, asar yozar otang, derlar.
U har she’rni bitirguncha toshga mengzar tan-jonimiz,
Uning halol zahmati-la topiladi, ha, nonimiz!

Yo‘q, yo‘q, aziz bolalarim, bo‘g‘mang aslo sasingizni,
Sizning yangroq tilingizni eshitmasam biror zumga,
Qalbim-tosh-u, dunyo zulmat ko‘rinadi, ha, ko‘zimga,
Kulgan ko‘ray, xushnud ko‘ray, xushbaxt ko‘ray doim sizni,
Kuling, aziz bolarim! Bo‘g‘mang aslo sasingizni.

Men ko‘rganman bolalikda non dardida o‘y surganni,
Onam sovuq bir kulbada och qoringa tug‘di mani.
Siz baxtlisiz, avlodlarim, u kunlarni ko‘rmadingiz,
Yo‘qsillarni ochlik bo‘g‘gan u tunlarni ko‘rmadingiz.
Ko‘rmadingiz qalam qoshli, turna ko‘zli u kelinni,
Jon berarkan men tomonga qo‘l uzatdi, so‘ngra tindi.

Siz yop-yorug‘ ham yangicha binolarda yaraldingiz,
Saodatdir ilk uyingiz, ozodlikdir ilk ontingiz,
Ko‘ksingizni Vatan ishqi gurillatib yoqsa hargiz,

Bilganmanki, doim shunday xushbaxtlidir nasibangiz.
Bilamanki, sabohning ham siznikidek shoddir yuzi,
Murabbiydir umringizga bu mehribon hayot o‘zi.

Elning qodir qo‘llarida o‘sar ekan el-yurt bari,
Otasiz ham baxtli yashar ming-ming Vatan bolalari.
Bir abadiy gul bahorga taslim bo‘ldi bo‘ronli qish,
Ertaning non topish dardi chekingizga yozilmamish.
Mendan nari ketmang aslo, sukunatga yovman chindan,
Jimjit o‘tgan kunlarimni o‘chiraman o‘z umrimdan.

Men azaldan to‘fonlarning quchog‘ida yo‘g‘rilganman,
Po‘rtanalar, qasirg‘alar og‘ushida tug‘ilganman.
Og‘ir to‘plar tilga kirib sayraguncha, rost, chiniga
Shoir qalbi aylanadi baland tog‘lar lochiniga.
Sher misoli ko‘p chiqqanman yong‘inlarning orasidan
Yigit yigit bo‘la bilmas qon oqmasa yarasidan.

Po‘lat kabi o‘tda pishib, snaryadga to‘lsa yurak,
So‘zning hukmi maydon so‘rar olis ketar o‘qdek beshak.
O‘ynang, kuling, avlodlarim, sukunatga yovman chindan,
Jimjit o‘tgan kunlarimni o‘chiraman o‘z umrimdan.
So‘zlang, kuling, qarsak chaling, siqishtirmay sasingizni...
Xurram ko‘ray, quvnoq ko‘ray,
xushbaxt ko‘ray har vaqt sizni.

BUTUN BOKU YURAGIMDA BIR SHE'R BO'LUR

Qadim Xazar dengizining quchog'ida u —
Dunyo ko'rgan, bag'ri butun donishmand Boku.
Qanday sozki, kechalar,
bu maydonlar, ko'chalar

Kelin kabi yasanishgan, ko'rkam, ishvakor.
Bugun dengiz buxtasini etib sayilgoh,
Ma'dan olgan kishilarga suqlanaman goh,
Qo'limda-chi, qog'oz bilan sodiq qalam bor.

Burg'ular-chi, go'yo ko'kka bosh olib ketur,
Tog' jussali, cho'ng ravoqli ehromlar kabi.
O'ylamaki, ular yerni, bizni tark etur,
Yerda yonib, ko'kda o'chgan ilhomlar kabi.

Insonlarning yuzi gulgun, yuragi–gulshan,
Bir ko'ngildan suv ichadi ming-minlab ko'ngil.
Zamin uzra nur to'kilur quyoshdan, ko'kdan,
Osmon qizi yer oshig'i erur, yaxshi bil.

Ayting axir bu tantana, bu bazm nechun?
Go'daklarning yonoqlari anordir-anor.
Boshdan — oyoq yasanibdi Bokumiz bugun,
O'z baxtini bayram qilar shahrim ulug'vor...

Xayolimda saflanadi yangi satrlar,
Qalam tinmas, asta-sekin qog'oz to'ladi.
Saf-saf o'tar baxt yaratgan mardlar, botirlar,
Butun Boku yuragimda bir she'r bo'ladi.

1951

O‘YLAR

Goh-gohida ovchi ko‘nglim tog‘lardan oshib,
Olis ketib, uzoq yurib yo‘llar kezadi.
Sokin o‘tgan kunim bilan u vidolashib,
Na’ra tortib, suron solib cho‘llar kezadi.

Bir qushchaning uchishidan bilsangiz, nelar,
Nelar tuyar bu shoirning sayyor yuragi.
Insof bilan aytilganda bir jonli asar-
Yashil o‘rmon, ko‘m-ko‘k dala, ohu hurkagi?

Lochin uchar uyasidan shiddatli, tezkor,
Ko‘hna tog‘lar kiftin ko‘kka tirab turadi.
Kim yashamas o‘z qalbining azmiga hamkor,
Kim olamning o‘sishiga befarq yuradi?

Bu dunyoning xaritasi bir rangda emas,
Azal-boshdan har suratning o‘z jilvasi bor.
Keksa eman yuz yil yashab, charchadim demas,
Yiqilsa ham ildizi-la qular shiddatkor.

U o‘lmaydi, o‘larmi hech olamda viqor?
Zamon o‘tar, nihol o‘sar, bitar qasrlar.
Bir qo‘lida yoz quyoshi, birida bahor,
Qancha bayram qarshilaydi bizning nasllar.

Gohi ochib quchog‘imni, bir shamolsimon
Karvon bo‘lib eldan- elga ko‘chgim keladi.
Yuragimda bir dunyoning kuchi begumon,
Dengizlardan —
ummonlardan kechgim keladi.

Qoya misol to‘lqinlarning metin saflari
Shiddat bilan ko‘kragimga sola boshlar chang.
Yengarmidi irodamni to‘lqin daftari,
Kim istamas qilishni, eh, po‘rtana-la jang!

Gohi palla sokin oqqan ariq yonida
O‘yga tolib, dardlashaman bu yurak bilan.
Orzularim misli daryo oqar qonimda,
Kimning qalbi urmas axir ming tilak bilan!

Va deymanki, olis yo‘lda suvga zor turgan
Bir kimsaning qarshisida buloq bo‘lolsam...
Bir maslakli do‘stlarimning dunyoda ko‘rgan
Tashvishiga, quvonchiga o‘rtoq bo‘lolsam!

Istardimki, qanotini yozganda hijron
Qovushtirsam ayri tushgan do‘st qo‘llarini.
Sog‘inishgan sevishganlar ko‘rishgan zamon,
She’rga solsam bu visolning shan yo‘llarini.

Bir chumchuqning uyasini uchirsa shamol
Tumshug‘imda xas-cho‘p yig‘ib,
in qurib bersam.
Chag‘alarga hadya etsam durkunlik, kamol,
Va uchirma qilish uchun shoxlarga tersam...

Istardimki, duch kelganim u yetim go‘dak
Ota desin, ham yayrasin meni ko‘rganda.
Kim istamas yiqilganga bo‘lmoqni tirgak,
Kim qoniqmas bir kimsaga zarur bo‘lganda?

Ko‘z oldimdan dunyo o‘tar varaqma-varaq,
Men orzular dunyosiga sho‘ng‘ib keturman.
Sarhadlarda bedor turib, Vatandan ogoh,
Qurol tutgan askar kabi g‘urur eturman.

Goho esa, yer ostida qo‘limda chiroq,
Shaxtalarda cho‘kich urib, ma’dan qazurman.
Sochi oppoq hakamlarga aylanib-chi goh,
Vatanimning yovlariga o‘lim yozurman.

Burg‘u qurib neft olgan qahramonlarning
Boltasidek qoyalarni urib yorgim bor.
Yer ostiga, yer ustidan mard insonlarning
Olqishini, salomini tashib borgim bor.

Soch yoyganda dalalarga bahor quyoshi,
Yer yumshatib, urug‘ tanlab,
sepsam deyman don.
Qari ho‘kiz holdan toysa, aylansa boshi,
Tortar edim o‘zim shunda omochni chaqqon.

Shudgorlarni yuvish uchun otlanganda sel,
To‘siq bo‘lib, shiddatini kesa olsaydim...
Saratonda olov purkab yonganida cho‘l,
Navbahorning nasimidek esa olsaydim...

Istardimki, kelajakka bo‘lib bir yodgor
Na shuhratim, na haykalim, na otim qolsin.
Kurashlarda zafar topgan mard qahramonlar
Sirasida asarlarim, avlodim qolsin.

Deydilarki, sovir emish bir kuni oftob,
O‘ylaguncha ul zavolni, yetguncha u dam;
Bu dunyoga necha ming el kelarkan shitob,
Cho‘zsam edi kurash bilan umrni men ham.

O‘z qo‘limda inju misol ipga tizardim
Oylarini, yillarini abadiyatning.
Samovotda quyosh bilan birga kezardim,
Yer yuzida bo‘lar edim ko‘rki xilqatning.

Istardimki, qutlug‘ kunlar cho‘lda, chamanda
Yuraklarga ohang solgan nay bo‘la olsam...
Men o‘zimni bu dunyoda, dunyoni manda
Idrok etib, ma’no to‘la may bo‘la olsam...

Bir orzuning mevasidir har kichik asar...
O‘ylanaman, tilga kelur qalbimdan bir sas.
Deydi: shoir juda soz-ku bu shirin o‘ylar,
Lekin borliq bir yurakka, afsuski, sig‘mas...

BAHOR ORZULARI

Bahor suyganimsan, sen — azal-boshdan
Eng go‘zal qizisan sen tabiatning.
Xushbaxt tug‘ilgansan xushbaxt onadan:
Ko‘zining o‘tisan she’rning, san’atning,
Eng go‘zal qizisan sen tabiatning!

Sening ham shoirdek qoning qaynoqdir,
Orzularing yerda gul ochar lak-lak...
Boshingda fikrlar doim uyg‘oqdir,
Siynangda doimo uradi yurak.
Orzularing yerda gul ochar lak-lak.

Sukutga azaldan dushmansan sen ham...
Na to‘xtam bilasan, na olursan tin.
Cho‘llarga to‘sharkan ming rangli gilam —
Yomg‘ir, do‘l, bo‘ronga to‘sh kerib bardam,
Qishning so‘ng hamlasi-qasirg‘agayam
Qarshi kurashlarda o‘sasan sekin,
Na to‘xtam bilasan, na olursan tin.

Bulutlar bag‘rida yoqqan chaqmog‘ing
Qilichdek sug‘rilar misoli qindan.
Bo‘ronga aylanur gohi shamoling —
Tog‘lar ham seskanur hayqirishingdan.

Bahor, kel, soylaring ko‘pirib oqsin,
Ko‘ksimga quyilsin, mayli, sellaring.
Boshimga bulutlar chaqinin chaqsin,
To‘fonga aylansin mayin yellaring.

To‘yguncha bellashib qasirg‘a bilan
Bo‘ron qushi kabi uchurman men ham.

So‘ng do‘stim bahor-la birga yoturman —
Oromgoh bo‘lajak ko‘m-ko‘k bir dalam.

Dondek sepilaylik tuproqqa shu tob,
Yerdan so‘ng unaylik sunbullar kabi.
Qizlar atrimizdan olishsin gulob,
Bahorning ziynati ol gullar kabi.

Qo‘shchinor bo‘laylik ikkimiz yo‘lda,
Ko‘kka bo‘y cho‘zaylik o‘z o‘lkamizda.
Saraton yondirsa Mug‘onda, Milda,
Yo‘lovchi dam olsin, do‘st, ko‘lkamizda.

Yoki tog‘ ko‘ksida qo‘sha qaynagan,
Shaffof buloq bo‘lib, beraylik huzur.
Sohilga sig‘masdan chopgan, o‘ynagan
Daryolar singari mavjlanaylik, yur!

Yer ochsak, sahro-yu bo‘zni sug‘orib,
Tosh yo‘nsak, so‘z yozsak qo‘sha qo‘l misol...
Chaqmoqdek ko‘k bag‘rin yoritib, yorib,
Zaminni bezasak takror-u takror.

Bir juft xumor ko‘zli kabutar bo‘lib
Yer uzra qoqaylik qanotni kushod.
She’r kabi to‘lqinlan, nag‘madek to‘lib
Tildan-tilga o‘tib, o‘qilaylik yod.

Bir juft mash’al bo‘lsin yuraklarimiz,
Bir juft yulduz bo‘lib qo‘sha yonaylik.
Ezgulik saodat — tilaklarimiz,
Shu orzu yo‘lida jo‘sha yonaylik!

Ikkimiz kiraylik birga ming yoshga,
Misoli bir tanda urgan qo‘sh yurak...
Ming yil jon beraylik tuproqqa, toshga,
Nasldan-naslga meros o‘tarak.

MENGA SHUNDAY DEDILAR...

O‘zim tanish bo‘lmaganim,
Biror yerda ko‘rmaganim,
She’r muxlisi bir kishidan
Bir xotira so‘zladilar:
“Bizga yurtdosh bir qahramon,
Yaralangan askar o‘g‘lon
So‘ng nafasda o‘yga toldi,
Seni eslab tilga oldi...
Dedi: “Doktor, eshit, doktor,
Sog‘lig‘imdan umid yo‘qdir,
Pichoqni qo‘y, gap so‘rama,
Ilojim yo‘q, ha, o‘laman.
Ko‘zim yo‘lda, dil qafasda,
Kel, Vurg‘undan, doktor, shu dam
Bir band o‘qiy, eshit sen ham.
Bu nag‘mada mehrigiyo,
Dunyoni qo‘y, eski dunyo!
“El biladi:san manimsan,
Yurtim, uyim, maskanimsan,
Onam, tug‘ma Vatanimsan,
Ayrilarmi ko‘ngil-u jon?
Ozarbayjon, Ozarbayjon!”
Deya so‘nggi so‘zlarini,
Yumdi qora ko‘zlarini...”
Bas qil endi, yetadi, bas,
Yomon gapni cho‘zib bo‘lmas...
Men yurtimning pok diliman,
Yaxshi kunlar shoiriman.
Yomon xabar qalbga biroq
Keltiradi anduh, firoq.

Ochilmagay qosh-qovog‘im,
Tundlashaman, bo‘laman lol.
Gul ochmaydi ko‘ngil bog‘im
Suvsiz qolgan cho‘llar misol.
Bu gapdan so‘ng oylar o‘tdi,
Vujudimni tirnadi g‘am.
Mendan go‘yo bir gap kutdi,
Bir gap kutdi go‘yo olam.
Qayga bormay, qayda turmay,
Yerda yurmay, ko‘kda bo‘lmay,
Ko‘rmaganim u qahramon,
Ko‘zlarimga boqdi har on.
Birga kelib, birga ketar,
Mendan nima talab etar?..

* * *

Aziz do‘st, tinglasin meni bir olam,
Bu she’rdir qalbimdan otilgan nido.
Sening ishqing kabi muqaddasdir, o,
Goh yoshga aylanar ko‘zlarimda g‘am ...
Vatanga atading sen so‘nggi onting,
Daryolar oqimi to‘xtadi shu on.
Muhabbat o‘tida mardona yonding,
Siymoying ko‘rurman o‘tda,
qahramon.
Ko‘rurman doimo jasur yuraging,
Hamda u mehribon, issiq yuzingni.
Yulduzlar bir umr bo‘lsin tirgaging,
Kahkashon bag‘rida ko‘ray izingni.
Yo‘q, yo‘q,
uzoqdadir yulduzlar bizdan,
Otingni samoga yozmagani soz.
Olisga ketmagil sen bag‘rimizdan,
Haykaling ko‘ngilga taskin va ixlos!
Bizdan ayirsa ham gar seni hayot,
Nomingni qilamiz umr bo‘yi yod!

Qardoshim, ko‘raman tog‘lardan o‘tgan
Yashil so‘qmoqdarda oyoq izini.
Ko‘raman ko‘zini yo‘llarga tutgan
Tog‘lar go‘zalini, tog‘lar qizini.
Qara, dunyo ko‘rgan anov cholga boq,
Ma’noli ko‘zida sog‘inch va armon...
Sochlari tashvishdan bo‘libdi oppoq,
Ilgida qolmabdi, nachora, darmon.
Ammo ko‘kragida uradi yurak,
Har a’zo qudratni yurakdan olgay.
Umidga esh yashar qariya beshak:
Har saboh o‘g‘lini quchadi, hay-hay...
Umid, u mehribon, beqiyos pari
Eng og‘ir damlarda kelar yordamga.
Dunyoda yonarkan uning mash’ali,
Zulmatni yoritib berar odamga.
Yaqinda urushdan kelgan g‘olib, sog‘
Vatandosh yigitning siqdim qo‘lini.
Uning ko‘zlarida ko‘rdim o‘sha chog‘
Sening u muqaddas hayot yo‘lingni.
Uyimga qaytaman oqshomda gohi,
Xayoling tinchitmas, o‘yga tolaman.
O‘g‘limga tushganda ota nigohim
Ko‘zida men seni ko‘rib qolaman.
Yil ketib, yil kelar, kelar xush davron,
Yorug‘ kun bo‘ladi Vatanda yana.
Saodat majlisi qurilgan zamon
Sha’ningga qilurlar ulkan tantana.
Qara, ko‘z oldimga keldi kelajak,
Qarshimda turibdi muhtasham haykal.
Atrofi gulzor-u poyida chechak,
Favvora husniga beradi sayqal.
Odamlar kelmoqda to‘p-to‘p yoniga,
Kim o‘zi? Noma’lum bir qahramondir.
Uning ona qalbi — endi zamondir,
Olqish davrimizning mard o‘g‘loniga.

Sen ketding umringning bahor yoshida,
Oting saodat-la manguga yo‘ldosh!
Endi haykalingning marmar toshiga
Eng so‘nggi kalimang yozildi, qardosh:
“El biladi:san manimsan,
Yurtim, uyim, maskanimsan,
Onam, tug‘ma Vatanimsan,
Ayrilarmi ko‘ngil-u jon?
Ozarbayjon, Ozarbayjon!”

SHOIR,
NECHUN QARIDING TEZ?

Nondek aziz bo‘lsa ham she’r,
Shoir bo‘lgan tashvish-g‘am yer.
Umri o‘tar shu odat-la,
Maroqli shu saodat-la...
Meni ko‘rgan, qarang, na der:
Sochlaringda qirovdan iz,
Shoir, nechun qariding tez?
Kecha menga atay qirmiz
Gul keltirdi bir suluv qiz,
Ko‘zlarida ming bir savol,
Turib qoldi hayratdan lol...
U baxtiyor sohibjamol
Ko‘zi derdi go‘yo sassiz:
Shoir, nechun qariding tez?
Ovchilikning gashtin surdim,
Kun-tun demay cho‘lda yurdim.
Tog‘ boshidan pastga ko‘chib,
Bir o‘q kabi har yon uchib,
Ne —ne asov jayron urdim;
Sado keldi o‘qdan “viz-viz”:
Shoir,
nechun qariding tez?
Goho uchqur, goho sokin,
Yangrar sozim hech olmay tin.
Onti yolg‘on, ishqi yolg‘on
Do‘stligi ham soxta bo‘lgan —
Badkirdor ham boqib sekin
Ko‘ngil so‘rgan bo‘ldi shu kez...
Shoir, nechun qariding tez?

Soch oqardi, lekin yurak
Olovlidir avvaligidak.
Soch oqardi, lekin ne g‘am
Qo‘ldan tushmas hamon qalam...
Bilamanki, demas yolg‘iz
Yorim ila Vatan:
esiz,
Shoir nechun qariding tez?

MUHABBAT ILHOMGA UNDAYDIR MANI

Oh, yana yam-yashil kiyinmish tog‘lar,
Xayolni o‘g‘irlar qaynar buloqlar.
Cho‘qqida qor erir, so‘lim qirg‘oqlar,
Yomg‘ir ham yuvadi ko‘klam chamanin,
Tabiat ilhomga undaydir mani!

Yurak zavq tuyarki, so‘nmaydi o‘tim,
Yana so‘z lashkarim boshlaydi hujum.
Ko‘ngillar mulkida ming uya qurdim,
Unutmas sevganin aslo sevgani,
Muhabbat ilhomga undaydir mani.

Qarayman, tong bag‘ri yana so‘kilur,
Ko‘kdan yer bag‘riga nurlar to‘kilur.
Dalalar, o‘tloqlar go‘yoki kulur,
Ko‘z oldimda pishar sunbul gulshani,
Bu ne’mat ilhomga undaydir mani.

Ko‘kdan tushmaganman, men -yer avlodi,
Qonimga omixta tuproqning toti!
Ko‘plarga yot bo‘ldi bu ishq qanoti,
Shoirim, och, ulash so‘z — xazinani,
She’riyat ilhomga undaydir mani!

Kim anov cho‘kichni zarb bilan urar,
Mehnatin qadri ham yonida turar.
Angladim, u yangi bir olam qurar,
Donishlar yozar bu o‘tli siynani,
Bu hikmat ilhomga undaydir mani!

Jar solar charxlarning suronli sasi,
Tinmas boltalarning po'lat panjasi.
Bedordir Mug'onning,
Milning kechasi...
Qaynaydi o'lkaning cho'l-u chamani,
Bu qudrat ilhomga undaydir mani!

Cho'llarga bel bog'lab yosh avlod kelar,
Kurdan ham Orazdan irmoq-yo'l kelar.
Mug'onni guliston aylar qo'l kelar...
Sahrolar amr etar:
— Yoz bu sahnani.
Bu da'vat ilhomga undaydir mani.

Bo'z tog'ning bag'rida bordir bir dengiz,
Sohili sersoya, husnda tengsiz.
To'lqinlar quvlashar yelib izma-iz
O'ynar kemalarning ipak yelkani,
Bu surat ilhomga undaydir mani!

Oynaband uylarning ayvoni salqin,
Shafaqdan qo'ynida o'ynaydi yolqin.
Har oqshom, saharning jamoli chaqin
Misoli qutlaydi ming derazani,
Saodat ilhomga undaydir mani.

Shirvonni gullatar lochin qanotlar,
O'tloqlar bag'rida kishnaydi otlar.
Axir oqim-oqim ellar, elatlar,
Ochmoqda bundagi har dafinani,
Bu san'at ilhomga undaydir mani.

Mug'onga suv kelar,
Milga suv kelar,
Yig'ilib o'z eli, ulusi kelar...
Tuproqqa insonning orzusi kelar...

Bag‘rimga bosurman ona-Vatanim,
Bu ulfat ilhomga undaydir mani!

Yurak zavq tuyarki, so‘nmagay o‘tim,
Yana so‘z lashkarim hujumga o‘tdi.
Ko‘ngillar mulkida ming uya qurdim.
Unutmas sevganin aslo sevgani,
Muhabbat ilhomga undaydir mani!

HAYOT FALSAFASI

Qushlar qator-qator yurt oshib uchar,
Bashar avlod-avlod dunyodan kechar,
Kishilik goh zahar, goh sharbat ichar...
Azaldan shu erur hukmi zamonning,
Bir mubham siri bor bu osmonning.

Charxini qurguncha bu ko'hna davron
Ba'zida xursand-u ba'zan dil xufton...
Insonning a'moli, ishqi begumon.
Goh o'zin sher kabi qafasga urgan,
Goho po'rtanalar ichra g'arq bo'lgan.

O'zgartgay yo'lini doimo suvlar,
O'zgargay fikrlar, so'ngay tuyg'ular.
Koinot topmagay bir yerda qaror:
Qoyalarga urar siynasin ming bor,
Yetgani gohi qish, goh erur bahor.

Dunyo binosini qurgandan beri
Saodat ismli u go'zal pari,
Kel, deya zamonga, qocharmish nari...
Afsuski,
hali ham orzumand inson,
Yetib qovushmadi unga biror on.

Ey dunyo go'zali, qochma bashardan,
Insonlar farqlagan temirni zardan.
Kel, uning ishqini darig' tutma, san,
Qalbi bor, hissi bor har muhabbatning,
So'nmagay yulduzi abadiyatning.

O‘lim — bir iblisdir,
hayot —bir malak,
Borliqqa ergashar o‘lim ko‘lkadak...
Nur esa zulmat-la olishib, beshak —
Yashatmoq istaydi dunyoni, bizni,
Quyosh olqishlaydi irodamizni.

Yomonlik, yaxshilik tushmas bir izga,
Tilsiz asrlardan yodgordir bizga.
Bahor yeli esar qalblarimizga,
Lekin orqasidan quvib kelgay qish,
Tabiat borliqqa shunday boqarmish.

Bir yonda to‘y bo‘lsa, bir yonda motam,
Shodlik bir olamdir, g‘ussa — bir olam.
Hayot-chi otini surur damo-dam;
Hatto o‘t qa’rida yongan manzara
Yana qanot berur o‘ylarga, qara.

Va yana insonning xayol sarvari
Uchar fazolar-u dengizlar sari.
Sen ey, saodatning go‘zal sahari,
Olqishla insonning orzuli yo‘lin,
Yetkaz yer yuziga jasorat qo‘lin.

Bashar imdodiga kel, bergil ko‘mak,
Jasoratsiz amal– bir xasta malak.
Jasorat deganim qudratli bilak...
Butun koinotga u quloch otsin,
Bashar karvoniga yo‘llar ko‘rsatsin!

Jasorat kuch bersin tuproqqa, toshga,
Dengizlar qo‘shilib tushsin taloshga,
Ozodlik qo‘shini quvsin bir boshdan...
Har zafar donstoni bir yodgor bo‘lsin,
O‘lim taslim bo‘lsin, hayot bor bo‘lsin.

Yaraldik dunyoga shuhrat bo‘lib biz,
Quyosh zulmatlarga hech cho‘kmagay tiz.
Qirilsin yomonlik, u xoin iblis!
Yaxshilik nayini chalaylik dildan,
Prometeyni qutqaraylik zanjirdan.

Falokat qaridi, toldi u ko‘ppak,
Suyagi tez chirir, yo‘qdir bunga shak.
Saodat– yoshlikdir, nomi —kelajak!
Uning ko‘zlarida hayot ishqi bor,
Yashasin, kelajak, yashasin bahor!

1942

SO‘ZNING SHUHRATI

Qanotlan husni ishq birlan, makoning keng osmondir,
Gul yuzli bir sahardirsan, bahor qo‘yningda mehmondir.
Sening husning ham, ishqing ham yaralgandir haqiqatdan.
Yurak to‘ymas, xayol tonmas muqaddas bir tariqatdan.
Rubobing ko‘p erur nozik...ming olam bor taronangda,
Oting “so‘zdir”, o‘zing inson, ne ma’nolar yashar sanda.
Shuurlar dars olar har on sening o‘tkir kamolingdan,
Shafaqlar, shu’lalar oqdi hayotga kun — jamolingdan.

Ne ma’no inkishof etma, ko‘ngil to‘ymas bu ma’nodan,
Bashardir shuhrating, ey so‘z, umid-maqsaddan paydosan!
Sening faxring, kamoling ham zamonu qo‘l-la o‘lchanmas,
Yaxshi gap, xushxabar — sensiz,
ko‘ngillar shod bo‘lib kulmas,
O‘zing majlislar faxrisan, tirik har qalbga ziynatsan!
Amallar, orzular o‘g‘li, jahon kez, sen fazilatsan.
Ko‘ngillar mulki yurtingdir... sening ming hamdaming bordir,
Qo‘nim bilmas qanotlarda uchar bir olaming bordir.

So‘zing ma’nosi had bilmas, balandlar quch shu qudratda,
Kamoling injular sochsin, gapir har yerda hikmatdan.
So‘zning ishqi-la, qalbi-la yashar olamda dostonlar,
Sening sayyor xayolingda kezar dunyoni insonlar.
Sening bag‘ringda berkinmish hama donish, daho ishqi,
Sening bahringda tin olmish zamin ishqi, samo ishqi.
Sening sha’ningda shuhrat bor, bu ma’no hech bekor bo‘lmas,
Axir gulsiz, so‘z, insonsiz, saodatsiz bahor bo‘lmas.

She’ru san’at azal-boshdan sening husning-la yo‘g‘rilgan,
Zamonning dardi, savdosi yoniq qalbingga naqsh bo‘lgan.

Sen ey, "So'z" barqaror ne'mat, tuganmas bir xazinang bor,
Boshingdan ming bo'ron o'tdi, o'tdi qonli u davronlar.
Faqat sensiz na bir gulshan, na bir yaproq ko'karmishdir,
Na ishqning lolazoridan bir kimsa lola termishdir.

Go'zallar, turfa jononlar dudog'ida gul ochding san,
Ko'ngillar mast bo'lib qoldi sening maftunkor atringdan.
Shirin suhbat ila ulfat sevar sevgiga hamdamlar,
Mehribon, issiq bir so'zdan bitar dardlar, qochar g'amlar.
Bo'yoqsiz, tanti, "ammo siz" bo'lgan so'z doimo haqdir,
So'zing o'tmasmi bir yerda buyuklik shu — gapirmay tur.

Oqillar majlisidan qolma hech, fayz ol so'z-u suhbatdan,
Faqat johillar oldida qolar Luqmon ham qiymatdan.
Nohaq so'z yondirar qalbni.
Faqat haq so'z teshar toshni,
Yomon so'z qaynatar qonni, yo'qotgaysan do'st-u sirdoshni.
Falokatlar etar bunyod riyolar hamda bo'htonlar,
Yolg'on so'zdan hayot qurgay hayosiz, beburd insonlar.

To'g'ri so'z!Qahramonlikda o'tgan o'z shuhrating bordir,
Oting fozillar og'zida hujumsiz jabhalar oldi.
Sening hadsiz quchog'inda lashkaring shunchalar mo'lki,
Butun olam qo'shin tortsa, ololmaydir so'zning mulkin.
Qilichdan, nayzadan keskin, zamondan, o'qdan ildamsan,
Bugun har nash'aga hamdam, erta har dardga malhamsan.

Butun qonunlarning hukmi yozilgan so'zda, bir xatda,
Adolat, xohishing jonni olsang, ol ishqqa hurmatda.
Haqiqat — injadir qalbing, faqat sinmas irodang bor,
Kamolot- bir quyoshsanki, jamolingda shafaq porlar!
Muhabbat — sen umr ko'rki, yashash sensiz jinoyatdir,
Go'zallik —jonli bir san'at, azaldan umrga ziynatdir.

Saodat- sirlar oshiyoni, muqaddas bir paridursan,
Vatan-nomus-da, vijdon-da olur sayqal jamiolingdan.

Vatan, bag‘ringda o‘sganlar amallar, orzular shaksiz,
Vatansiz, yurtsiz insonlar yashar olamda maslaksiz!

Bu so‘zlardir mening ishqim, bu ma’nolar bahorimdir,
Bu ehtiros, bu she’riyat mening bir lolazorimdir.
Butun olam chechak tersin, farah topsin bu gulshandan,
Zamon-u koinot husnin rubobidan yaraldim man!
Yoz, ey Vurg‘unki, har she’ring,
har so‘zing bir yodgor bo‘lsin,
Men o‘lsam ham, Vatan, mehrim Vatan mulkida bor bo‘lsin.

1944

"TO'RT SO'Z" kitobidan

SHOSHMASMAN...

Do'stlar, bodalarni to'ldirib ichsak,
Kecha charog'ondir, havo ham salqin.
Demayman: mast bo'lib dunyodan kechsak...
Deymanki, mehribon o'ylarning sokin
Ham issiq bag'rida kezinsak birpas.
Qo'y, cho'zilsin kecha, kechiksin sahar,
Uxlab qolishmasin ulfatdagilar,
Mening suhbatimdan toliqish bo'lmas.
Hali yer yuzida insonga hamdam
Bo'lib dardlashishdan to'yganimcha yo'q.
Insoniy umrning biror oni ham
O'tmasin yel misol, yo misli bir o'q.
Bu oydin kechadan, bu tog' to'shidan,
Sernavo, xushsuhbat buloq boshidan
Bu soat, bu dam,
Hech yoqqa shoshmasman,
Hech yoqqa, erkam.

* * *

Sevgilim, bo'ynimga qo'ling tashla, bo'l,
O'ylama: charchadi, keksayib qoldi.
Men hali hayotdan nima zavq oldim?
Yur, olam kezamiz, berib qo'lga-qo'l.
Qaytadan fikrimning qaysar yelkani
Dengizdan-dengizga otsa ham meni,
Qo'rqmagil, qalbdan de: "Omadimiz, kul".
Yur, olam kezamiz berib qo'lga-qo'l.
Sellardan, suvlardan tezroq oqsam ham,
Chaqmoq-la osmonda bir o't yoqsam ham,
Ustimga ot qo'ysin ho shodlik, ho g'am,

Hech yoqqa shoshmasman,
Hech yoqqa, erkam.

* * *

Sen ham ovchi do‘stim, shoshmagil sen ham,
Bu mag‘rur tog‘larga chiqamiz asta.
Daryo bo‘yidagi chamanni bir dam
Kezaylik, bo‘lib dil-dilga pavasta.
Har gulga, chechakka salom bermasam
Xush yuz ko‘rsatmasam, xush yuz ko‘rmasam,
Hech yoqqa shoshmasman,
Hech yoqqa, erkam.

* * *

Osmonda yelmasin bulutlar muncha,
Suv o‘tib ketmasin ko‘rib suyguncha,
Boqay har zarraga ko‘ngil to‘yguncha...
Yurak zavqlanmaydi o‘tkinchi sasdan,
Nima ham chiqardi oniy havasdan.

* * *

O‘ylama yana sen:
vazmin, noxushman,
Tuzoqqa ilingan shikasta qushman...
Qo‘y, dunyo uzaysin, yashnasin zamon,
Bir kun orzusida yonsin yer-osmon
Oftobning ko‘zidan nur ema-ema...
Umr kitobini tamomlay dema.
Jonbozlik ko‘rsatib qo‘limda qalam,
Hech yoqqa shoshmasman,
Hech yoqqa, erkam.

SHE'RIM

Nimasan?
Har zamon, har on chayqalgan
Hasratli qalbimning hayajonisan.
Tamom unutilmish o'tgan kunlarning
Ko'zimda jonlanmish bir nishonisan.

Noziklik bir qalbga azobdir beshak,
Kel, bu yig'i-sig'i, oh-vohdan al chak[1]
Sen, ey sho'rlik she'rim, ey so'lg'in chechak,
Motam daryosisan, dard ummonisan.

[1] qo'l uz, demoqchi.

ONA

Go‘dak pallam seni yerga qo‘ydilar,
O‘sha zahot meni tig‘siz so‘ydilar.
Ko‘zlarimni go‘yo bir-bir o‘ydilar,
Sensiz hayot menga zindondir, ona.

Ko‘nglingda bor edi ajib tilaklar,
Arzirdi sajdangga kelsa malaklar.
Qaydasan, ko‘zlarim seni daraklar,
Farzanding izingda giryondir, ona.

Sen misli bir oftob, chiqding-u botding,
G‘arib farzandingni g‘amlarga otding,
Javob bergil, qaysi murodga yetding,
Tuproq aro qancha zamondir, ona!

Bir oh ursam sansiz qo‘pguday to‘fon,
Azizim onajon, jonim onajon,
Yumuq ko‘zlaring och, bir bora uyg‘on,
Endi zamon o‘zga zamondir, ona!

Poyingda xoki poy bo‘lmak istayman,
Onalik mehringga to‘ymak istayman,
Seni ko‘rish uchun o‘lmak istayman,
Tasallim oh ila afg‘ondir, ona.

* * *

Kel, jahon sayriga kel, boq, na go‘zal fitrati bor,
Har gul-u har bir chechakning o‘z oti, suvrati bor.

Sol quloq bulbulni ovoziga, sevmoq damidir,
Ul chaman gullarining bir-biri-la ulfati bor.

Sig‘mas idrokingga bul dunyo uyining sirlari —
Dunyoning husni azaldan ko‘p buyuk qudrati bor.

Charx urib olamni, Luqmon kabi ma’no izladim,
Chunki ma’noli kechar kunlarning bir xislati bor.

Yerga armonda boqar tunda oy, kunduz quyosh,
Har kishi qalbining o‘z majlisi, o‘z suhbati bor.

Meni bir yelkansimon g‘arq etsayam bir kun zamon,
Vurg‘un o‘ldi, demangiz, bir abadiy san’ati bor.

* * *

Men tortgan azoblar bir yonda tursin,
Insof, muruvvatni chetga otibsan.
Men seni yor desam tilim uzilsin,
Yorni, muhabbatni o‘zing sotibsan.

Kesding qanotimni, kesding qo‘limni,
Yo‘qotdim Ka’bamni, to‘g‘ri yo‘limni.
Tarlon xayolimni, lochin ko‘nglimni
Aldovlar makrida xo‘p o‘ynatibsan.

Vurg‘unning ohlari o‘rlaydi ko‘kka,
So‘rmading bu sirni, so‘rmading nega?
Dunyoda shuhrat-u zar bisot deya,
Ilonning qo‘ynida, vohki, yotibsan.

MOTAM KUYI

Sukutga ketganda kechaning qalbi
Eshitdim suvdan men motam kuyini.
Bilmadim ne erur qatl sababi
Bu kuyni tingladim kuyib, kuyinib.

Ey inson, ey sho'rlik, bu to'kkaning qon
O'z qoning emasmi, emasmidi jon?!
Bu olchoq ishlarni tuyganda vijdon,
Insonning hayotga qolmas havasi.

"O'lgan yolg'iz emas, qara, ey jallod,
Minglab kulbalarni sen etding barbod".
Kimning ovozi bu, kim qilar faryod? —
Tul qolgan kelinning budir nolasi!

Sen o'lmading, jigar! O'lmading, inon!
Ishqning intiqomi yashar har qachon.
Qalbimdan otilgan bu kichik doston
Go'yo zulmat ichra Adolat sasi!

TARLONIM

Tarlonim, tarlonim, uchqur tarlonim,
Senga qurbon bo‘lsin pajmurda jonim.
Ko‘zingga tashlansa ul Durra xonim
Aytki, Vurg‘un gado yanglig‘ yuribdi.

Tarlonim, tarlonim, bir uch havoga,
Jindek rahming kelsin men benavoga.
Ag‘yorga dil bergan ul bevafoga,
Aytki, Vurg‘un gado yanglig‘ yuribdi.

Tarlonim, tarlonim, ortar g‘ussa-g‘am,
Daryoyi ishqida g‘arq bo‘ldi kemam,
Uchrasa yo‘lingda ul yor biror dam
Aytki, Vurg‘un gado yanglig‘ yuribdi.

* * *

Bu yurak chayqalar, betinim jo‘shar,
Bo‘ronlarda qolgan daryoga o‘xshar.
Kavkazda depsinar, Oltoyga boshlar,
Tog‘lardan otilgan bir yoga[1] o‘xshar.

Voh, bu yerlar g‘arib ruhimga tordir,
To‘silgan yo‘llarim tumandir, qordir.
Qachonki bu hudud, bu sarhad bordir
Umr deganlari ro‘yoga o‘xshar.

San ey, marhamatsiz, bemehr, josus,
Ey boylik dunyosi, sen chekil, qon qus!
Bashar birdamlikni tark etmish, afsus!
Har bir ish gumonli, xulyoga o‘xshar.

[1] **yo-yoy** —kamon demoqchi.

* * *

Beri kel, go‘zal qiz! Yaqinlash bir oz,
Pinhona qolmasin qalbimda so‘zim.
Kel, olis ko‘klarga etaylik parvoz,
Yo‘l qarab tolmasin intizor ko‘zim.

Xalos et, ozurda qalbim kulfatdan,
Boshimga sevgining otashi urar,
Sen o‘ychan tikilsang bu ulviyotdan,
Ayt, qanotli ruhim qandoq tinch turar?

Xayr! Istamasdim, u ma’sum siymo
Oltin qafas ichra tortsin asorat.
Afsus shoirlarning holiga ammo,
Men etmasman seni bilgil, ziyorat.

Chunki go‘zallardan uzoq, ha, uzoq —
Yurishni xohlayman...bu odatimdir.
Istamasdim qayta ko‘rishni ...biroq
Sening har xayoling ibodatimdir.

BIR QATRA YOSH

Soqiyo, soqiyo, maydan sun picha,
Yot ko‘zlar tushmasin, devonalar bor.
Zahmatim — nash’adir, bu ma’yus kecha,
Ko‘ksin o‘tga urgan parvonalar bor.

Umrmish axiyri so‘lgan bir chechak,
G‘amlarni o‘ldirgan g‘am bo‘lsa kerak.
Ochilib kulmadi yig‘lagan falak,
Hayotda ko‘z yoshi, g‘amxonalar bor.

Soqiyo! Bandiman — zindon ko‘rmayin,
Visolning toti yo‘q — hijron ko‘rmayin.
Bir mo‘min bandaman, yo‘ldan toymayin,
Yo‘l olis, shubhalar, afsonalar bor.

Nahotki, nasibam shu oh-u voylar.
Kun kecha qo‘l berib bahorga yoylar[1]
Ko‘klarga sovrildi dongdor saroylar,
O‘ylamas, qanchalab vayronalar bor.

Soqiyo, soqiyo! Ko‘rsat o‘zingni,
Jahonni ko‘rmayin, bog‘la ko‘zimni,
Alamdan ayturman bu so‘ng so‘zimni:
Befarzand, uvishgan bo‘sh kulbalar bor.

[1] **Yoy** — yoz ma’nosida.

SAHAR — SAHAR

Sahar palla borib ko‘rdim
Qizil gulning yonog‘ini.
Ochdi ko‘nglim shirin-shirin
Nag‘mali nay dudog‘ini.

Ey oriflar nazar soling
Tabiatning hunariga.
Shaydo bulbul uzarmi hech
Gul qoshidan oyog‘ini.

Sahar — oltin sochlarini
Yozgach quyosh sirdoshimdir.
Shomda esa xo‘p o‘purman
Oyning yoniq qabog‘ini.

Azal boshdan shaydosiman
Men bugunning,
bu borliqning,
Butun dunyo bizdan so‘rar
Saodatning so‘rog‘ini.

Sen, ey, menga she’r bag‘ishlab,
“Nega jimsan”, — degan shoir,
Men qulfli qo‘ymadim hech
Ko‘nglimning so‘z yotog‘ini.

Bo‘htoningni orqaga ot!
Erigaysan bir so‘zimdan.
Yozib-yozib to‘ldiraman,
Siynamning oq varrog‘ini.

Qora bulut sollanmasin,
Ketsin bizdan sarhad oshib.
Men ko‘pdandir oshirganman
Yonda patron sanog‘ini.

Erta urush jabhasida
Bir askarman, bu yaxshidir,
Har bir so‘zim sindirajak
Ming fashistning yarog‘ini.

Buyuk Vatan bir nafasda
Qo‘zg‘olar bir jangchi kabi,
Tulkilarga bermas sira
Arslonlar o‘z yotog‘ini.

Shu kun men ham ilhomimga
Timsol berib sevadurman,
Ot belida qilich urgan
Don daryosin kazagini.

Qora yellar so‘ndirolmas
Gulga to‘lgan yurtimizda,
Ozod xalqlar qo‘li ila
Yondirilgan charog‘ini.

JAYRON

Yerdan oyoqlaring qush kabi uzib,
Yoy kabi sollanib, o‘q kabi suzib,
Yana o‘z suruving qatorga tizib,
Bosh olib ketarsan qayona, jayron?

Azaldan dil bog‘lab so‘ngsiz cho‘llarga,
Izmingni topshirding bizning qo‘llarga,
Bu qora ko‘zlaring tushdi tillarga,
Tishlaring o‘xshaydir marjona, jayron.

Bir masal merosdir ota-bobodan:
“Ucharda turoj-u, qocharda jayron”.
Yolg‘iz men, demagil,
husningga hayron,
Shuhrating yoyilmish jahona, jayron.

Sukutga g‘arq bo‘lgan yuragim bilan,
Oh, yana o‘taman Mug‘on cho‘lidan.
Yonida bolasi, ko‘lmak ko‘lidan
Egilib suv ichar bir ona jayron.

Qaraki, gulbahor ming hunar qurar,
O‘t-u o‘lanlarni yulqib uchirar.
Bir yerga to‘planib, hamjihat turar,
Uchrasa quyuna, bo‘rona jayron.

O‘n qadam narida yotmaydi taka,
Yuradi, ko‘zlari ko‘p taka-puka,
Ko‘ringan sharpami yoki tahlika,
Tinchini oldirmish gumona, jayron.

Ovchi, insofga kel, tushmagil izdan,
Bu cho‘llar erkasin ayirma bizdan.
Bir parcha yulmagil yuragimizdan —
Yana bo‘yalmasin, qo‘y, qona jayron,
Juda yarashibdi Mug‘ona jayron.

KULA-KULA

Ohu chiqdi tog‘ to‘shiga
Sahar vaqti kula-kula,
So‘l qo‘l bilan sog‘ to‘shiga
Bir gul taqdi kula- kula.

Oq oltindan qo‘sh uzugi,
Izlab qoldim so‘z tuzugin,
Qosh ostidan, eh suzugi-
Suzib boqdi kula-kula...

Dedim: “Hoy qiz, oting nadir?”
Dedi : “Otim ko‘zimdadir”.
Dedim: “Balki do‘st bo‘larmiz”,
Kulib boqdi, kula-kula.

Dedim: “Oylar, kunlar uzun?”
Dedi: “Qalbim ko‘ndir o‘zing”.
Keldi bu yosh umrimizning
Tarlon vaqti kula-kula.

Oylar o‘tdi, yillar o‘tdi,
Unutildi sevgi onti.
Qiz va’da-yu so‘zdan tondi,
Qalbim yoqdi kula-kula.

KO‘ZLAR

Yana qilichini soldi ustimga
Qurboni bo‘lganim qop-qora ko‘zlar.
Yana jallod bo‘lib tushdi qasdimga,
Qalamqosh ostida uyola ko‘zlar.

Boshimdan kechgandi oshiqlik g‘ami,
Xayolim charx urdi butun olamni.
Bu zada ko‘nglimni, ayting yanami
Tutdingiz so‘rog‘-u, savola, ko‘zlar?!

Muhabbat yo‘ldoshim azal yoshimdan,
Yuragim qulfli do‘st, sirdoshimdan,
Har safap hushimni olur boshimdan
Suzilib ketganda hayo-la ko‘zlar.

Qomating sarvdir, qo‘sh yuzing anor,
Qoshingga hattoki, oyda hasad bor.
Qo‘shaloq yulduzdek yorqin, ishvakor
Yonib jamol qo‘shar, jamola ko‘zlar.

Jondan sevganimdir u go‘zal pari,
Yuzimga solmasin o‘tgan kunlarim...
Hislarim bo‘lsa ham gohi sar-sari
Siz bilan erishdim kamola, ko‘zlar.

Odat shu:hukmni el, zamon berur,
Yoshini yashagan bir kun jon berur.
Og‘ir xastamanki, yaram qon berur,
Siz meni soldingiz shu hola, ko‘zlar!

NASIBAMIZ — SAODATDIR...

Bu yil bahor kiyinibdi bir olovli, o'tli ko'ylak...
Bu go'zallik parisining boqishida g'azab bordir.
Bizning g'olib to'plarimiz na'ra tortib, qoldirmay shak,
Deydi: "shoir, nasibamiz-saodatdir, navbahordir".

Hali qizil qon dog'i bor bosh ko'targan gul-chechakda,
Yerning bag'ri pora-pora... yaralangan ona tuproq.
Ming intiqom tuyg'usidan olov olgan har yurakda
To'lqinlanur naslimizning ont ichgani shonli bayroq.

Navbahorning tashrifidan xumor bo'lgan so'lim sahar
Sahar palla so'zlaganim o'sha olis kelajaklar,
Zafar bilan qarshi olar qo'shinlarni — ko'rkimizni,
Ehtirom-la tilga olur bizning buyuk yurtimizni.

"Zafar", "Zafar"-qarang, bu so'z umrimizning ma'nosidir,
Tarix derki: "O'lmas aslo o'lim bilmas jasur yurak.
Vatan ishqi insonlikning bir abadiy ma'vosidir,
Bu ishq bilan yashomoqning, yaratmoqning zavqi bo'lak.

Zamon yo'rtar o'z otini... nayzalardan chaqnaydi o't,
Misli yirtqich havon kabi yaralandi razil dushman,
Garchi g'orga chekinsa ham, qolmasa ham rangida qut,
Uni yanching, yo'qsa aldar, bo'lib yurmang,
so'ng pushaymon!".

Bu chaqiriq daryolardan, ummonlardan oshdi zumda,
Kelajakning qismatidan insonlarga berdi xabar.
Fashizmga qarshi bo'lsa kimki agar yer yuzinda
Yurak misol hushyor tortsin kecha-kunduz bab-borobar.

Og‘ir to‘plar silkinganda olov uchsin nafasidan,
Samolyotlar qanot qoqsin bulut kechib, shamol oshib...
Yov iniga larza tushsin qo‘shinimiz na’rasidan,
Cho‘ng nayzalar qaytsin elga bayroq ila zafar tashib.

Keling do‘stlar, qalamdoshlar, zarb uraylik Farhod kabi,
Yarataylik davrimizning qahramonlik dostonini,
Bugun ildiz otar axir ertamizning har talabi,
Erta uchun sharaflaylik biz bugunning qahramonin.

Gullar fasli demang hozir, o‘q hidi bor havomizda,
Shoir qalbi xumor bo‘lib, erk bermasin hislariga.
Yurtimizning baxti chopdi kelayotgan jang-jadalda,
Qon-ter to‘kib, zafar olsa, gul sochilgay izlariga.

Qahramonlik qudrat qo‘shgay she’rning,
so‘zning qudratiga,
Kel, har so‘zning jigaridan bir qahramon olsin nafas,
Olqish qondosh Ona-yurtning qudratiga, jur’atiga,
Er yigitdir bu maydonda razil yovga kelolgan bas.

Afsonalar vaqti emas... har so‘zning o‘z yo‘rig‘i bor,
Goho bizni uzoqlarga chalg‘itmasin uchqur xayol.
Inson degan o‘z mavrudi, o‘z o‘rnida shuhrat topar,
Shoir ko‘nglim, sen o‘zing ham bu so‘zlardan, kel, ibrat ol!

Zamon bizga Ona erur, biz zamonning avlodimiz,
Men hayotning bu hukmin umrim bo‘yi olqishladim.
Doston yozing, — deydi ellar, biz-ku san’at ustodimiz,
Omon bo‘lsin so‘z va hunar, keling do‘stlar, men boshladim.

SO‘Z OCHGIL

Baxshi, bag‘ringga bos sadafli sozni,
Ming javobli bir savoldan so‘z ochgil.
Maydon go‘zal, suhbat qurib soz tutsak,
Gul yonoqli, qo‘sha xoldan so‘z ochgil.

Va’da olay bir gunohsiz dudoqdan,
Dushman ko‘rib hasad qilsin uzoqdan.
Yor yasanib chiqqan zamon yotoqdan,
Boshidagi gulli sholdan so‘z ochgil.

Vurg‘un istar, bir savdoga yor bo‘lsin,
Zulfi bulut, oq siynasi qor bo‘lsin.
Yaxshi-yomon kunda doim bor bo‘lsin,
Qadr bilan ahli holdan so‘z ochgil.

* * *

Sen kelganda bizning bog‘da yoz bo‘lgay,
O‘rtamizda suhbat bo‘lgay, soz bo‘lgay.
Hijron dardi kechagidan oz bo‘lgay,
Tarlon ko‘nglim charx uradi boshingda.

Na bog‘im bor, na gulshanim, na-da may,
Bu dunyoda, kelgil, men ham shod kulay.
O‘ksunasan el-yurt ichra o‘rgulay,
Ko‘zi yoshli chiqsam bir kun qoshingga.

Bu ko‘ksitmda o‘sar, dilbar, dard tog‘i,
Mendan kular hatto inson olchog‘i.
Yodingdami u baxtiyor yoz chog‘i
Sen kirganding endi o‘n besh yoshingga.

Nechun boqdim, bilmam, sendek qizga man,
Tushmagandim bunday chigal izga man.
Vurg‘un deyar: oshiqman gul yuzga man,
Mayli, uchay parvonadek boshingda.

QAHRAMONNING O‘LIMI

Butun Boku o‘yga tolmish, ko‘k sukutda, dengiz lol,
Na yel esar, na titradi daraxtlarning yaprog‘i.
Har yurakda bir mahzunlik, har nazarda bir savol...
Bugun qoshin xo‘p chimirmish Ozarbayjon tuprog‘i.

Vatan o‘g‘li — bu ikki so‘z labdan-labga ko‘chguncha
Qalblar titrar yaproqsimon, egiladi ne-ne bosh...
Vatan mulki o‘z farzandin ona kabi quchguncha
Hatto tog‘lar o‘yga tolib, go‘yo to‘kar achchiq yosh.

Bizdan olis jabhalarda qurol tutgan har askar
Bu tobutning qarshisida tiz cho‘kkancha ont ichar.
Tanklar uchar, qo‘shin o‘tar, qoraymishdir ufqlar,
Intiqomning o‘tli qalbi muz eritar, qor kechar.

Yillar o‘tar, bo‘y yetadi yo‘rgakdagi go‘daklar,
Qancha nasl yuragidan o‘rin olgay qahramon.
Qabri uzra shafaq o‘ynar, gullar turfa chechaklar,
Shu yorug‘ kun ishqi bilan-u berdi-ku jangda jon.

Rassaom ushlab mo‘yqalamni g‘arq bo‘ladi xayolga,
Bahor kabi kulib turar qahramonning suvrati.
Avlodlarning yuragida u yetadi kamolga,
Mard o‘g‘ilga baxshidadir she’rning, so‘zning qudrati.

Asrlardan oshib kelib Javonsher ham, Bobak ham
Qilich o‘pib, bosh egadi bu muqaddas qabrga.
Ko‘kdan oftob yog‘du separ, sukut qilgay bor olam,
Inson mangu sodiq yashar bu insoniy qadrga.

RUBOBIM

Tindi dema, rubobimning torlari,
Har pardada ming navosi bor uning.
Sevintiring sozga mayli borlarni,
Dil olguvchi yuz havosi bor uning.

So‘zim — she’rim qondosh bo‘ldi tuproqqa,
Hayot berdi har sarg‘aygan yaproqqa.
Nafasimdan kirdi go‘yo jon toqqa,
Bu yerlarda ming sadosi bor uning.

Tarlon ko‘nglim yuksak-yuksak uchsa ham,
Chaqmoq bo‘lib, bulutlarni quchsa ham.
Sayyoradan-sayyoraga ko‘chsa ham,
Vatan degan o‘z ma’vosi bor uning.

Sevdim qizil shafag‘ingni, ey sahar,
Xushbaxt erur kim sevilgan, kim sevar.
Hayot derki–har saharim —xushxabar,
Ellar bilur ne ma’nosi bor uning.

Ko‘ksimdadir, Vatan, odil ovozing,
Ozodlikni madh etadi bu sozim.
Saodatdir uning mangu hamrozi —
Ko‘z o‘ynatar bir dunyosi bor uning.

Quyosh yurti, ahdimiz bor sen bilan,
Elga bo‘lgay har sevgimiz misli fan...
Ona qalbing bahri ummon, ey Vatan,
Vurg‘un degan bir g‘avvosi bor uning.

G‘AZALLAR

* * *

Ey ko‘ngil, ming noma yoz bir guluzorning ishqida,
Jon vujuddan sayrga chiq, bir xush gulzorning ishqida.

Qaysi rassomning qo‘lidan jon olur dunyo uyi?..
Har chaman ming g‘uncha ochmish navbahorning ishqida.

Kel, kel, ey savdoli bulbul, kel, kezaylik bog‘-chaman,
Sen-ku gul ishqida yongil, men yonay yorning ishqida.

Majnun anduhi bilan olamga ko‘p jar solmasin,
Qaysi nomard jonni asrar bir nigorning ishqida?

Kun o‘tar, davron o‘tar... o‘z hukmini yozmish zamon:
Nay tutilsin, boda sinsin ro‘zig‘orning ishqida.

Vurg‘unning o‘z olami, o‘z qalbi, o‘z ilhomi bor,
Mehri ulfatdan yaralmish bir diyorning ishqida.

* * *

Har chaman, har bog‘chaning bir bulbuli — shaydosi bor,
Har tirik qalbning, azizim, bir sirli savdosi bor.

Ruhi oydin, qalbi pokdir inja bir jonon sasi,
Goh kular, goh yig‘latar, har damda bir ma’nosi bor.

Jon so‘rar har nag‘maning ma’nosi yolg‘iz ishq erur,
Ko‘z ko‘rib, qo‘l yetmagan yulduzli bir dunyosi bor.

Dardi-hijron kunlarida umri otashda kechar,
Har ko‘ngil karvon erurkim, suvsiz bir sahrosi bor.

Shunday bir ovoza bor: Vurg‘un endi Majnun erur,
She’r-u san’at deb atalgan nozanin bir Laylosi bor.

* * *

Maysiz, nash'asiz jon ila jonon bo'la bermas.
Sevgi deganing har kima maydon bo'la bermas.

Oriflarga anglatgil, ne o'zi she'r-u san'at?
Shoir yaralgan bundan pushaymon bo'la bermas.

Ko'nglim uyi bir gulshanga o'xshar, azizim,
Ming bodi-xazon essa-da vayron bo'la bermas.

Qalbing-yuraging otashida yonmasa bir so'z,
Tillarda, og'izlarda u doston bo'la bermas.

Kirdim quyoshim qo'yniga, ming bir saharim bor,
Gul ila bulbul meniki, zimiston bo'la bermas.

Yuksal faqat, inson qadrin yerga urganlar
Dunyoda nishon qoldirsa ham inson bo'la bermas.

Xushbaxt Vatanim va elimning Vurg'uni erurman,
Bundan ham go'zal, bir ajib davron bo'la bermas.

* * *

Agar sendan tonar bo‘lsam, nasibam oh-u zor o‘lsin,
Bahorim qishga aylansin, chechaksiz bir diyor o‘lsin.
Chamanzorim, bog‘im-bog‘cham to‘kilsin, bori xor o‘lsin,
Mazorim o‘t olib yonsin, bu ishqim oshkor o‘lsin.

Qo‘n-ey bulbul, tin-ey dovul, ki xohish istirohatdir,
Bu yerlarda ilinjim yo‘q, yupanchim bir sayohatdir,
O‘lim! Eyvoh, bu ne’matdir, bu bir shonli saodatdir,
Agar bevaqt o‘lar ersam, raqibim baxtiyor o‘lsin.

Falakdan intiqom istar jo‘shib ruhimda bo‘ronlar,
Na insofni, na vijdonni bilar yo rab, bu insonlar,
Yoz, ey Vurg‘un, yana jo‘shsin bugun olamda to‘fonlar,
Yiqilsin mehvari olam, u tubdan tor-u mor o‘lsin.

XONIM

Bir ajoyib, o‘xshashi yo‘q jononsan,
“Xonim” desa, sen mashhuri jahonsan.
Oshiqlarni ming alpozga solasan,
Ta’rifga loyiqdir har xoling saning.

Eslamaysan nechalarning “Yohu”sin,
Har kimsa der seni “Tog‘lar ohusi”,
Ko‘nglimda tumandir ishqning qayg‘usi
Bormi bunga hush-u xayoling sening.

Ishva bilan qomatingni bukasan,
Ishqing bilan dil rishtasin so‘kasan,
Ko‘zing bilan yerga qonlar to‘kasan,
Qurqgulikdir, go‘zal, visoling sening.

Ko‘nglimda ortadi sendan yaralar,
Ko‘pdir men singrari dili poralar,
Dardiga izlaydi bari choralar,
Yer yuzida yo‘qdir misoling sening.

UNUTILGAN YOLG‘IZ QABR

I

Bugun, qarang, sayyor xayol
O‘takamni yomon yordi.
Qulog‘i kar, zaboni lol
Bir olamga boshlab bordi.

Na nido bor unda, na sas,
Tuprog‘i dard, suvi g‘amdir.
Undan hech kim qayta bilmas,
Sir —tilsimli bir olamdir.

Ma’lum emas uning yoshi,
Oti esa qabristondir.
Har mung‘aygan qabrtoshi
Nazarimda bir insondir —
Tushib dardga, shu ko‘ylarga.
G‘arq bo‘libdi u o‘ylarga...

Nedir uning boyliklari:
Ko‘m-ko‘k sarv, ko‘m-ko‘k chinor,
Sonsiz marmar obida bor,
Qator-qator turar bari.

Haykallar ham bunda saf-saf,
Havo sovuq, boshlangan qish.
Qabristonda lek to‘rt taraf
Ko‘klam kabi gulga to‘lmish.

Qishning qori, ko‘klam seli,
Ezma yomg‘ir, daydi shamol
Toshlardagi yozuvlarni
Buzolmabdi, qarang, zinhor.

(Qarab bunda yotganlarga
O‘y suraman xullas kalom...
Bizdan oldin o‘tganlarga
Burchimizdir bu ehtirom).

Har turbatdan bir qahramon
Boqib go‘yo so‘zlar bizga.
“O‘tlar kechib, nurli, omon
Yo‘llar ochdim sevgingizga”,
O‘g‘il tuqqan, qiz o‘stirgan,
Sochi oppoq, bag‘ri quyosh,
Bir onaning shunda turgan
Qarshisida egaman bosh.

Dohiylarning, shoirlarning
Ko‘zlarida tong kuladi,
Xayol qochar, xayol qochar
Yuragimga nur to‘ladi...
Nazarimda qanoti bor
Lochin misol bu haykallar,
Kel, —
deb go‘yo bosh chayqarlar...
O‘z qalami qo‘li bilan,
O‘zin nurli yo‘li bilan
Zulmat bag‘rin yoqqanni ham,
Yoki sigir soqqanni ham
O‘z unvoni o‘z oti bor.
(Qarab bunda yotganlarga
O‘y suraman xullas kalom...
Bizdan oldin o‘tganlarga
Burchimizdir bu ehtirom).
Bunda ming bir qabr ko‘rdim,
Joni bordek, jimjit faqat.
Men jannatdan so‘z ochsaydim,
Deyar edim shudir jannat.

II

Yurarkanman shu o‘y bilan
Go‘ristonda odim-odim.
Ustin bosgan alaf, tikan
Bir qabrni ko‘rib qoldim.
Bir qabrki, na-da toshi,
Na tayini, na oti bor.
Na hamdami, na sirdoshi,
Na tavallud, na yodi bor.
Turdim birpas o‘yga tolib...
Go‘ristonga umrin tikkan,
Gul o‘stirib, daraxt ekkan
Qorovuldan sekin borib
So‘rab ko‘rdim:
Siz bilarsiz,
Kimniki bu g‘arib qabr?
Xatsiz, toshsiz bu beqadr,
Ko‘rinmaydi hattoki iz?
Kulgan bo‘ldi bu gapdan chol,
So‘ngra dedi silab soqol:
— Bilmaysanmi, g‘ofil banda,
Senikidir, bu joy sanga.
Davron erur misli boda...
Ko‘p gapirib, oz yozganlar
Unutilar bu dunyoda.

III

Uyga keldim parishonhol,
O‘tgan umrim so‘roqladim.
Ko‘ngil hazin, biyron til lol,
Kitoblarim varaqladim.
Ibratli so‘z, yaxshi bir she’r
Yozganmanmi? Titrar jonim...
Aslida chol haq gapni der,

Sovrulgandek xonumonim.
Yutib asta ko‘z yoshimni,
Turtdim umr yo‘ldoshimni:
Eshiklarni, tur, tezroq yop,
Xonalarni isit to‘liq,
Sen ham eshit, dabdabavor
O‘tgan kunning vafosi yo‘q.
Qani qog‘oz, qani qalam?
Tezroq keltir, tez, sarvarim.
Bari-bari kezsin olam
Bundan buyon yozganlarim.

XOVARGA

Shirinso‘z dilbarim, ranjima mendan,
Yor yordan ayrilmas, bulbul chamandan.
Sochimning oqidan hech o‘ksima san,
Yuragim qarimas, yuragim o‘zing.

Men shuhrat, nom uchun aslo gul olmam,
Sensiz hech, bilsang gar, menga bu olam.
Go‘zallar, zebolar ming-ming bo‘lsa ham
Manim bu dunyoda malagim o‘zing.

Ko‘ngil hech to‘yarmi sendek go‘zaldan,
Sen bo‘lding qismatim hukmi azaldan.
Ikkimizni qo‘shgan qolmas nazardan...
Muqaddas zahmatim, tilagim o‘zing.

Yusufing, Voqifing doim bor bo‘lsin,
Oybaniz baridan baxtiyor bo‘lsin.
Yuz yilki Vurg‘unga Xovar yor o‘lsin,
Eng yaqin sirdoshim, ko‘magim o‘zing.

YIGIRMA BESH BAHOR

Bugun ko‘nglim mulki yana oboddir
Shonli, tantanali bir shahar kabi.
Ilhom parisi ham g‘amdan ozoddir,
Toeyim kuladi bir sahar kabi.
O‘tar ko‘z oldimdan qator va qator,
Ko‘kning ham, yerning g‘am qahramonlari,
Ularning ko‘zida ajib ziyo bor,
Yayrayman ularni ko‘rgan onlarim.
Daraxt ustidagi yam-yashil yaproq,
Tog‘dagi to‘riqning qonib kishnashi,
Qishloqdan parpirab ko‘ringan chiroq,
Baxshi barmog‘ining nozik ishlashi,
Bir Vatan mehridan jahonda shoddir,
Manim ko‘nglim kabi g‘amdan ozoddir.

Anhorning chekkasi, sodda, chechakli,
Kun tuqqan, seryog‘du dilrabo sahar,
Mug‘on dashtlarida sayragan kaklik,
Bahorning elchisi, oh, gunafshalar.
Boya tog‘ boshida ko‘rganim qor ham,
Hattoki chumoli, bor jonivor ham,
Bir Vatan mehridan jahonda shoddir,
Manim ko‘nglim kabi g‘amdan ozoddir.

Tahlika yo‘ldoshi, hurkovuch jayron,
Tog‘larki, bulutga qadalgan, tig‘dor,
Insonning ishqiga, husniga hayron
Quyoshning elchisi bu nozli bahor,
Fuzuliy she’rining sirdoshi bulbul,
Gullari yashnagan har chaman, har bog‘,

Bizning qizlar kabi hayoli sunbul,
Go‘zallik onasi bu qora tuproq,
Yerning siynasiga so‘qmoqlar solgan,
Zamonning, naslning karvon yo‘llari,
O‘limdan zulmatdan intiqom olgan
Zardo‘sht zaminining mard o‘g‘illari.
Tog‘larning boshlari ko‘p mag‘rur boqqan,
Bag‘riga g‘am —anduh inmas qoyalar,
Tumanli cho‘qqisi ko‘k sari qalqqan
Shoir viqoridek sinmas qoyalar
Bir Vatan ishqi-la jahonda shoddir,
Manim ko‘nglim kabi g‘amdan ozoddir.

Shodlikka burkangan poytaxt — Bokuda
Har yulduz yashnaydi misli bir chaman.
Men kabi xursandsan, o‘quvchim juda,
Sening ham ko‘zingdan mehr ichaman.
Sening ham egningda bayram libosi,
Yer-ko‘kka qaraysan mamnun va o‘ktam,
Bu Vatan mulkini bag‘ringga bosib,
Ko‘zlarga surtarsan, Onam, deb sen ham.
Oh, Vatan tuprog‘i, inson nafasi,
Umrimda sevmovdim uni bu qadar,
Endi tilga kirgan bir go‘dak sasi
Ming yillardan menga keltirdi xabar.

XAYOL

Bir kuni tirmashdim tog‘ning boshiga,
Duch keldim dunyoning bahor yoshiga.
Chaman gilamini to‘shabdi toshga,
Sayrgoh bo‘libdi tanti quyoshga.

Ko‘zimga chalindi oyoq izlari,
Dunyo qo‘rg‘onini qurgandan beri
Har giyoh, har bir gul ming rangga kirgan.
Ilhom deyardi, yur, o‘taylik birga
Bu jayron adiri, xilvat daradan,
Bir doston yozaylik bu manzaradan.

Eh, go‘zal tabiat, mehribon ona,
Yashayman dunyoda mehringga qona.
Senga go‘zallarning ilk onti bordir,
Na yuzing burishgan,
na bag‘ring tordir...

Ol, mani yana ol qo‘yningga bugun,
Qo‘llarim chirmashsin bo‘yningga bugun.
To‘yguncha o‘payin u pok yuzingdan,
Zavq, shukuh olayin yana o‘zingdan.

Shuday o‘ylar bilan yurardim tog‘da,
Ko‘zlarim oqardi shaffof buloqda...
Shu palla bir bulut ufqdan oshdi,
Qarangki, xayolim unga ilashdi.

U uchdi, balandlab bordi tinmayin.
Fazoga sho‘ng‘irdi yelib, dam sayin.

Samovot mulkiga topshirib salom,
Kichrayib borardi xullasi kalom...

Axiyri nuqtadek bo‘lib qoldi u,
Havoda eribmi so‘ng yo‘qoldi u.
Men uni ko‘rmadim ko‘kka ko‘z tikib,
So‘ng dedim, yo‘q ekan xayolning cheki.

SHODLIK

Bugun mehmon bo‘ldim Ko‘kal qishloqqa,
Ko‘nglimning bulbuli qo‘ndi bu boqqa.
Ko‘zimni olarkan har gul, har chechak,
Yuragim tog‘ bo‘ldi g‘ururdan beshak.

Bilaman, ellarning so‘z, vafosi bor,
Bunda o‘tgan kunning ming safosi bor.
Qalbingga hamdamdir bu tosh, bu tuproq,
Bulbullar makoni har yashil yaproq.

Turfa gul makoni bunda tog‘, dara,
Bulutga tutashib ketgandek daraxt.
Bu yerda har qushning o‘zga navosi,
O‘zgacha saharning, shomning havosi.

Daryolar ustida o‘ynar so‘nalar,
To‘lqinga to‘sh urib, erkin qo‘narlar.
Meni qarshilaydi bu ozod yellar.
Bizning tog‘ yurakli,
qalbi shod ellar.

Bu ochiq chehralar, mamnun qarashlar,
Bu sonsiz olqishlar, kulgi, yayrashlar
Ko‘nglimni ovladi misoli onam,
Bunday iltifotni ko‘rmagan olam.

Ana, devorlarga, daraxtlarga boq,
Hilpirar har yerda muzaffar bayroq.
To‘shalgan yo‘llarga guldor gilamlar,
Ertakka o‘xshaydi bu ajib damlar.

Bayramga yasanmish nozli kentimiz,
Ulfatga yarashiq sozli kentimiz.
Bog‘larni saqlashin qattol dovuldan ...
El o‘zi biladi, aytmasam ham man.

Bu xushbaxt kentimiz doim bor bo‘lsin,
Dushmanin ko‘ziga dunyo tor bo‘lsin.
Qardoshlar, do‘stlarim sodiqman sizga,
Bir umr qarzdorman hurmatga, tuzga.

Men juda roziman qondosh elimdan,
Tirikman, tushmagay nomi tilimdan.

LAZGIN QIZI

Etagingni tortib xiyol
Soydan o‘tding, suv tizingdan.
Hafif-hafif esgan shamol
O‘pdi sening gul yuzingdan.

Ko‘ngil deydi:”To‘xta birpas,
Qara, nadir so‘lar, oh, u...”
Dedim:”To‘rga yaqin kelmas
Ovchi ko‘rgan asov ohu.”

Yozdi xayol yelkanini
Soyning jo‘shqin band-bandiga.
Yurak deydi:”Bog‘la mani
Shu ko‘zlarning kamandiga”.

Asta chiqding sen sohilga
Oyog‘ingni o‘pdi chaman.
Na sen kirding, na men tilga,
Lol qotgancha, zavq ichaman.

Sen umringning gul yoshinda,
Ko‘p xiromon bosib qadam,
Yakka turgan tog‘ boshinda
Bir kulbaga kirding shu dam.

Yurak qoldi yona —yona
Ko‘rishdik-ku ayrildik biz.
San u yona, men bu yona,
Qoldi dilda pok ishqimiz...

BAYROQDOR

I

U zamonlar insonlarning
Xonumoni yondi o‘tda,
Oqqan o‘sha ol qonlarning
O‘chi jo‘shdi bor vujudda.

U zamonlar qurol-yarog‘
Ishga tushdi, ishga tushdi,
Biz ont ichdik shunda mutloq
Go‘zallikka, qonlar jo‘shdi.

Biz ont ichdik keng daralar,
Yuksak tog‘lar jamoliga.
Ont ichdik soz manzaralar,
Bobolarning a’moliga.

Qism-qism, qator-qator
Qahramonlar chiqdi yo‘lga,
Tuproq deydi, o‘z xo‘jam bor,
Ko‘k der, bo‘lsin baxt, omad yor.

Oqar soylar o‘pdi shunda
Chavondozlar oyog‘idan,
Bir zilzila qo‘pdi shunda
Arg‘umoqlar tuyog‘idan.

II

Qurol olding qo‘lga sen ham
Qushdek uchding tog‘dan-toqqa.
Bo‘ron dahshat solgan u dam
Hatto ko‘kdan olov yog‘gan,

Tutun qalqqan tosh-u tog‘dan
Jabhalarda bo‘lding faqat...
Ozarbayjon tuprog‘idan
Olib bording shon, jasorat.

III

Kecha zulmat, ufq qora,
Ko‘kda go‘yo bordek ko‘lka...
Yerning bag‘ri tilka-tilka
Bo‘lib ketgan janglar aro,
Kecha zulmat, ufq qora...

Yer-u ko‘kning rangi o‘char,
Samolyotlar, tanklar uchar.
Yigitlarning na’rasidan,
Kuygan tuproq nafasidan
Porox yog‘ur, tutun yog‘ur,
Go‘yo bosgan olamni qon.
Hatto ko‘pni ko‘rgan osmon
Nafas olur og‘ir-og‘ir.
Kishanlangan, qartaygan sor,
Bog‘langandir qanotlari,
Ko‘z tikadi najot sari.
“Kel, kel, — deydi,
intiqom ol”.
Kelgil, qalbim g‘amga to‘ldi.
Darddan rangim somon bo‘ldi.
Qayda qoldi ozodligim,
Ulfatlarim ham shodligim?
Qani do‘stlar, yor, hamdamlar,
Kelarmikan erkin damlar?
Kelarmikan,
xo‘sh, xaloskor,
Albat kelgay,
umidim bor.

IV

Yer titraydi, osmon shoshar
Hujum qildi qahramonlar.
Dengiz kabi to‘lib-toshar
Qo‘rquv bilmas pahlavonlar.
Dushman kelar, dushman kelar,
Qishdan sovuq basharasi.
O‘lim erur har nafasi,
Ajal tashib oldga yelar.
Oshnasidir falokatlar,
Vabo yanglig‘ kelar hayhot.
Undan qochar saodatlar,
Tiriklarni sevar hayot.
Dushman kelar- yovuz, g‘addor,
Yaralangan bo‘ri misol,
To‘rt tarafga o‘t qalaydi,
Tosh ustida qon yalaydi.
Samolyotlar, tanklar uchar,
Dalalarga larza tushar.
Qon daryodek oqar bu dam,
O‘lgan ham bor, yarador ham.
Daqiqalar tez o‘tishar,
Yaqin do‘stlar ayri tushar.
Biri deydi- yaradorman,
Biri deydi —yorga zorman.
Birin yiqar dastlabki o‘q,
Lek qo‘rquv yo‘q, chekinish yo‘q.
Chekkasida birin qon bor,
Alp ko‘ksida uch nishon bor.
Jang maydoni qora kecha,
Eh, dilidan nelar kechar...
U deydiki, qo‘rqma, aslo,
Do‘stim, tursak biz shu asno
Holdan toyar axir dushman,
Tahlikaga aslo tushmang...

Qoldi so‘nggi hamla, chovut,
Tashlanaylik misli burgut.
Shunga qonga botadi yov,
Qilichlardan chaqnar olov.

Och to‘plarning zilzilasi,
Snaryadlar dahshat, sasi
To‘rt tomonga larza solar.
Yigit horg‘in nafas olar...
Yov ahvoli o‘xshar tangga,
Do‘stlar kirar so‘nggi jangga.

V

Dushman qochar, yomon qochar,
O‘lgan o‘lar, omon qochar,
To‘xta jallod yo‘l bog‘langan,
Tosh-tuproq ham qurollangan,
Bevaqt to‘lgan hayot jomi,
Onalarning intiqomi
Shiddatkordir misli dengiz,
Har bir qalbda nafrat cheksiz...

Biroq dushman tinmas xiyol,
Joni sabil ilon misol.
Ezilsaya qonxo‘r boshi
Talvasada ko‘z o‘yadi...
Qochar ekan qirlar oshib,
Har kulbaga o‘t qo‘yadi.
Uylar yonar, ko‘kka qara,
Dud-tutundan u qop-qora.
Yonar dala, yonar ombor,
Yonar daryo, yonadi sol,
Yonar ko‘rkam obidalar,
Ming bir hunar, umr yonar.

Ming bir go‘dak, kampir-u chol
Ayri tushdi o‘z uyidan.
O‘chiringlar o‘tni darhol,
Uning tafti, bad bo‘yidan
Sarg‘aymasin ko‘m-ko‘k chaman,
Chinnigul-u yosumanlar...

VI

Eh-he, keldi biznikilar
Quyosh kular, sahar kular...
Keksa burgut uchgan sari,
Kuchga to‘lar qanotlari .
Zanjirlarni uzib tezda
Uloqtirar, otar nari.
Ko‘zida yosh, gul ko‘tarib
Peshvoz chiqar unga ellar.
Qadam bossa yayrab yotur
Yovdan forig‘ bo‘lgan yerlar.
O‘tar bizning qahramonlar
Saf-saf bo‘lib, qator-qator.
Qarshi olar do‘st-yoronlar
Ko‘zlarida zo‘r iftixor.

VII

Qora ko‘zli, qora qoshli,
Lochin kelbat tankchiga boq !
Quvonchidan ko‘zi yoshli
Bir kulbaga tirmasharoq —
Shon bayroqni shitob qadar,
Unga boqar butun shahar.
Erkin kunning ol sahari,
Tongning qirmiz shafaqlari
Quchar uni ona kabi,
Ozodlikning buyuk qalbi,

Burgut misol qanot qoqar.
Quyosh kabi shafaq yoqar.
Kim edi u qora ko‘zli,
Chinor bo‘yli, olov yuzli,
Bayroq tikkan u qahramon,
Tanidimi uni zamon?
U yigitning alp siynasi
Go‘ro‘g‘lining qal’asidir.
Menga tanish har nafasi,
Ozarbayjon bolasidir...
Sen muqaddas bir diyorda
Lochin ko‘ngling o‘stirgansan...
Tog‘lar kezib dara, g‘orda
Burgut bilan do‘st bo‘lgansan.
Sen bir ishqning, muhabbatning
Gullar ochgan bahorisan,
Sen oqsochli bir millatning
Shuhratisan, viqorisan.
Jondosh elning shahariga
Qardosh bo‘lib uchib kirding.
Ozod kunning sahariga,
Zafar tug‘in baland ilding.
Omon bo‘lsin alp qomating,
Bu jasorat, sadoqating
O‘tar endi tildan-tilga,
Na-ki tilga, eldan-elga.

DARMON BERING

Menga darmon, darmon bering, qalbim yonmasin,
Quyosh ta'bim o'tlar sochib olovlanmasin.
Tuproqlarga yuzim surib to'lg'onamanki,
Tarlon ko'nglim bulut osha havolnmasin.
Yashamoqning, yaratmoqning ming jafosi bor,
Bu dardimga inonmagan, hey, inonmasin.
Meni jondan to'ydirgan bu beor baxillar
Razolatda yashamoqdan aslo qonmasin.

Quchoq-quchoq o'g'irlasin so'zimni "do'stlar",
Ammo she'riy qudratimni hech tan olmasin!
Men deymanki, bag'ishlaylik dostonlar yurtga,
Qalamkashlar, nahot, meni anglay qolmasin?!
Bu she'rim ham laxcha o'tdir! Yo'q, buni ellar
Bir ojizlik, bir shikoyat hisoblamasin!

YONDIRILGAN KITOBLAR

Jallod, bu sen o'tga yoqqan quchoq-quchoq kitoblar
Ming bir kamol shuhratidir, ming yurakning orzusi...
Biz o'tarmiz bu dunyodan, ular yodgor qolarlar,
Har betiga naqsh etilmish qancha inson tuyg'usi,
Ming bir kamol shuhratidir, ming yurakning orzusi...

Sen yondirgan ul kitoblar o't olmoqda...qo'y ko'rib —
Bu alanga ziyo bilan larza solur zulmatga...
Shoirlarning najib ruhi mozorida tik turib
Olqish aytar ishqi buyuk, bir qahramon millatga,
Bu alanga ziyo bilan larza solur zulmatga...

Jallod!Mening qalbimdadir bayotilar, termalar,
Ayt, ularni hech tuydimi sening bu tosh yuraging?
Har zarbasi, pardasida minglab ona qalbi bor...
Har hazin kuy mevasidir bir muqaddas tilakning .
Ayt, ularni hech tuydimi sening bu tosh yuraging?

Gapir, senmi pisand qilmas manim she'riy tilimni?
Ko'hna Sharqning shuhratidir Fuzuliyning g'azali!
Senmi hali "turkaxar"[1] deb mensimagan elimni?
Daholarga ko'krak bergan Ozarbayjon go'zali...
Ko'hna Sharqning shuhratidir Fuzuliyning g'azali!

Jallod! O'tda yonsa hamki, kul bo'lmaydi orzular,
Yo'q, tabiat qullik uchun tug'magandir insonni!
Azal boshdan dushmanimdir murdor yuzli zulumot...
Har tuproqning o'z shavqi bor, har millatning o'z oti.

[1] **Turkaxar** — fors reaksionerlarining ozar tilini tahqirlovchi so'zlari.

Bir nafaslik shuhratimga teng bo‘lolmas koinot,
Men ham o‘tlar o‘lkasining quyosh to‘nli avlodi.
Ko‘hna Sharqning shuhratidir Fuzuliyning g‘azali!

Nega turar qator dorlar, gapir, kimga buncha dor?
Yo bo‘ldimi ermak senga Vatanimning haq sasi?
To‘xta, to‘xta har yurakda bir sherning hamlasi bor
Ham bo‘g‘zingdan qattiq olar uning kuchli panjasi.
Yo bo‘ldimi ermak senga Vatanimning haq sasi?!

Jallod!Senmi qiradirgan fidoyilar naslini?
Millatimning pok qonidir bo‘ridek ichganing qon!
Fursat yaqin...Men sezurman uning qadam sasini,
Shahidlarning qaysar ruhi yoqangdan olgay yomon,
Millatimning pok qonidir bo‘ridek ichganing qon!

Tarixlarni bir varaqla, uyal mening qoshimda —
Kesmadimi Kayxisravning boshin onam To‘maris?!
Go‘ro‘g‘lining, Sattorxonning[1] dovrug‘i bor boshimda,
Avlodlarim qo‘zg‘olsa gar urug‘ingdan qolmas iz,
Kesmadimi Kayxisravning boshin onam To‘maris?!

Oting yeldir, to‘rt yoqqa chop! Seniki maydon...biroq
His etaman yashil rangda kelar bahor faslini...
Ko‘hna Sharqning quyoshidir men tug‘ilgan bu tuproq,
Men ulg‘aytdim buyuk elning, kelajagi naslini,
His etaman yashil rangda kelar bahor faslini!

[1] **Sattorxon** — Janubiy Ozarbayjondagi milliy-ozodlik harakati boshliqlaridan biri.

ONA HAYKALI

Marmar yodgorliklar, quyma haykallar
Har bitta shaharga bezak va bisot!
Donishmand aqllar, bunyodkor qo‘llar,
Siz baxsh etuvchisiz o‘ylarga hayot!

Faraz qil, toshlardan, qoyadan biron
Suvratni yaratar bir haykaltarosh:
Go‘yo ko‘z oldingda bir tirik inson,
Ham yashar yuz yil-u ming yilga sirdosh.

Bo‘ronlar, to‘fonlar kechar boshidan
Necha ming qish ko‘rar,
necha ming bahor.
Uni siljitolmas tamal toshidan
Bomba ham...turadi mag‘rur, serviqor.

San’atkor yashaydi bor ekan san’at —
Nasldan-naslga eltadi salom!
Oh, ona tabiat, ona tabiat,
Eng buyuk ne’mating insondir, inson!

Qara, Berlinda ham inson degan zot
Ona haykalini etibdi bunyod!
Uning qarshisidan ketolmay nari
Xayolga g‘arq bo‘lib turaman hamon.
She’riyat bulog‘i — ona ko‘zlari,
Tikilgan u ozod, hur erta tomon.

Chap qo‘lida kitob, o‘ngida qalam,
Ilmga chorlaydi u o‘z naslini.

Uning nazaridan tuyganim olam
Eslatar bir ko‘rkam bahor faslini.

O‘ylayman, donishmand tuqqan ehtimol
Shu oddiy xotindir, shu oddiy ona...
O‘ylayman, ko‘ksidan bir vaqt shu ayol
Gyotega sut bergan mag‘rur, mardona...

To‘plar, to‘pxonalar kechmish ustidan,
Ammo u turibdi hamon qaddi tik.
Dengizdagi tog‘dek mag‘rur, behadik
Olishmish dovullar, bo‘ronlar bilan.

Na poroxning hidi, na qurum, na is,
Husnin buzolmabdi, pisandmas unga.
U o‘z avlodini undaydi so‘zsiz
Hamma teng, ham ozod, baxtiyor kunga!

O‘tadi Berlinda oylar, fasllar —
Daryolarning suvi boqqa yetguncha:
Erk bayrog‘in tutgan ozod nasllar
Haykalning yonidan saf-saf o‘tguncha —

Yigitlarga qarab, faxr etar ona,
Barcha u siymoga bir-bir bosh egar.
Berlinning bu erkin to‘lqinlari-la
Go‘yoki haykal ham qo‘shilib ketar.

* * *

Qorayozli o‘rmonida anodil degan
bir qush bor.
U ham savdoyi qalbimdek,
osilgandir oyog‘idan.
Yo‘lim tushsa Salohliga,
u go‘rga tiz cho‘kay bir bor.
Onam — Mahbubani yodlab,
o‘pay so‘lg‘in yonog‘idan.
Ayo qismat, na kulfatdir —
uning dardi, mening dardim...
Bahor faslida ayrilsa
qizil gul o‘z butog‘idan.

TO‘RTLIKLAR

* * *

Bir tog‘ etagida, ochiq, oshkora
Bahor tongi edi, chiqdim shikora.
Chamanning bo‘yida turgan Nigora
Burildim, na tabib, na chora qoldi.

* * *

Balki bu dunyodan dil uzdim, o‘rtoq,
Ishim yo‘q na dard-u na yorim bo‘lsin.
Ilk daf’a ishqimni tinglagan tuproq
O‘sha og‘ir kunda mozorim bo‘lsin.

* * *

Hamon xastaligim, tushkun holim bor,
Hamon dard jabridan arz-malolim bor.
Zahar bosganim rost, yaqinlashmanglar,
Parishon o‘yligim, tor xayolim bor.

* * *

Voh, bu g‘urbat meni charchatdi, bukdi,
Falaklar boshimdan sovuq kul to‘kdi.
Yo‘llarda ko‘zimga bir zulmat cho‘kdi,
O‘rtanib-o‘rtanib yonarman, tog‘lar.

PAXTALIK

Do‘stim, Moskvada ikki yil burun,
Qish palla bir uyda to‘planar bo‘ldik.
Do‘st-u yor, tanishlar bir majlis qurib,
Diydorlashar edik, o‘ynadik-kuldik.
Mendan sovuq o‘tdi u oqshom andak,
Hadding sig‘ib shunda sen berding dashnom,
Dedingki:
“bunchalar sovuqqon bo‘lmak
Yaxshimas...o‘zingni asragil, oshnam.
Xuddi qiladirsan o‘z joningga qasd.”
So‘ngra egningdagi paxtalikni san
Menga hadya qilding o‘sha majlisda.
O‘sha chog‘ aytganing hamonki esda:
“Biz mayli, shoirga sovuq tegmasin!”.
U o‘tli nafasing, mehribon sasing
Hali ham, hali ham dilimda takror...
Azaldan odat shu elda, do‘stginam,
Do‘stlikning hadyasi bir cho‘p bo‘lsa ham
Har qandoq boylikdan afzaldir ming bor...
Endi qish kunlari — sovuqda, qorda
Qo‘limda miltig‘-u cho‘llar kezaman.
Gohida adashib qasirg‘alarda
Bir ziyo axtarib ellar kezaman.

Gohi kech kirganda,
Gohi subhidam
Sovuq qaqshatganda yalab ilikni,
Kiyaman sen bergan u paxtalikni.
Go‘yo gul ochadi Mil,
Mug‘on shu dam

Ba'zan Bokuda ham hazri[1] esganda,
Qachonki, g'aflatdan dardga chalinsam,
Bolalar javrashsa, do'st-yor bezganda
Kiyaman sen bergan paxtalikni man...
Bu jayron terisi bir luqmon kabi
Meni sog'aytirar dori, darmonsiz.
Xayrixoh, mehribon bir inson kabi
Seni eslagayman, alqab armonsiz.

[1] **Hazri** — sovuq shamol, shimoldan kelguvchi shamol.

MUSOFIRLIKDA

Bevaqt ajal, yaqin kelma, nari tur,
Men g‘urbatda jon topshirmam o‘limga!
Qilichingni qayramagil, nari yur,
Shuni bilki, qalam oldim qo‘limga,
Men g‘urbatda jon topshirmam o‘limga!

YODGA OL MANI

Oshiq Shamshir Dalitog‘dan kechganda,
Kaklikli tog‘lardan so‘rab ol mani.
Jayron bulog‘idan qizlar ichganda,
Soz chertib, so‘z aytib yodga ol mani.

Hayqirib shovqin sol dara, tog‘larga,
Go‘zallar maskani — ko‘k o‘tloqlarga,
Bu sirli dardimni ayt u yoqlarda —
Ko‘ksimga o‘q otdi bir marol mani.

U ohu ko‘zli qiz boqdi uzoqdan,
Nohaq o‘tda jonim yoqdi uzoqdan,
Yuz yil o‘tsa hamki, u dam, u chog‘dan
Unutmas olamda ahli —hol mani.

Tog‘larga sayr etish odat-hunarim,
Qoyalarda qolgay to‘ymas nazarim,
Siz yoqqa tushganda yo‘lim-guzarim
Kulib qarshiladi xush iqbol mani.

Baxt meni bu yerga mehmon ayladi,
Ketarman, yomondir judolik dardi,
Dema Samad Vurg‘un kelib —ketardi,
Unutmas bu manzil, do‘st-u yor mani!

KAVKAZ

I

Tortadi fikrimni o‘ziga bu dam,
Xanjardek shart kesib hatto ko‘kni ham
Yuksakka intilgan u tik qoyalar,
Poyida cho‘zilmish uzun soyalar.
Boshini qurshagan oppoq bulutlar.
Telba Kavkaz, umri qish bo‘lib o‘tar, —
Derdilar u haqda so‘z ketgan chog‘da,
Qolgan ko‘p xotira o‘tmishdan tog‘da...
Turfa iz ko‘raman toshlarda,
Oq tuman oqarar qoshlarda.
Hali tog‘lar, tik qoyalar, daralar,
Ko‘zlarni yondirguvchi manzaralar
Yo‘lchini to‘xtatar yo‘ldan har safar,
Bir ertak so‘ylaydi bunda har sahar.
O‘tmishda yomonlar bunda chopdi ot,
Qilichin o‘ynatdi kallakesar, yot.
Bundagi hokimlar,
el begi, xonlar,
Shon-shuhrat qidirgan beklar, hoqonlar
Ko‘pdandir hayotni butkul tark etgan.
Tuproqning qa’rida yo‘qolib ketgan.

II

Elbrus, so‘zla-chi, ma’lummi yoshing,
Osmonga qadalgan bu oqsoch boshing
Ko‘rmadi ne balo, ne-ne jafolar,
Ayt, kimlar hayotdan siltab o‘tdilar?
To‘kilgan qonlardan lozim gapirish,
Ularning motami emasmi bu qish?!

III

O‘tmishda qoldilar u qora kunlar,
Bo‘g‘madi tazyiqlar, quvg‘in surgunlar
Bir buyuk shoirning ovozin zinhor,
Bu ovoz tinmagay toki dunyo bor.
Bu go‘zal Kavkazni sevarkan shoir,
Tog‘ kezib, o‘y o‘ylar hayotga doir.
O‘ylarkan basharning qismat, toleyin,
Qahrin keltiradi jamiyat chirkin.
Gohida eshitib afsonalarni,
Ko‘rganda ishratgoh, mayxonalarni,
Zaharli kulib goh, goh yig‘lab yashar,
Bu foje ahvolga tushgandan bashar.

* * *

Men ham tog‘, daradan bir kecha o‘tdim,
Xayolga berilib, o‘zni unutdim.
O‘ylayman, tuproqda yotar ajdodlar,
Puch gapga aldandi ne-ne asrlar,
Endi o‘z yo‘lini topdi nasllar.
Osmonga o‘rlamas nola, faryodlar,
Tuproqda yotibdi ne-ne ajdodlar.

U uzun karvonlar orqada qoldi.
Qaroqchi, talashlar butkul yo‘qoldi.

IV

O‘tdilar tashvishli, noxush oqshomlar,
Tahlika so‘ndirgan chiroqlar, shamlar.
O‘tdilar nayzali qirg‘inlar, qonlar,
Qo‘ng‘iroq osilgan tuya karvonlar...
O‘tdilar... asorat qolmadi tundan...
O‘tmishga aylangan kechagi kundan.
Turfa iz ko‘raman toshlarda,

Oq tuman oqargay qoshlarda.
Endi-chi o‘zgadir bu tog‘, dala-tuz,
Naqadar dilrabo bu kecha- kunduz.
O‘zgacha tuyg‘u ham, shuur, zahmat ham,
O‘zgacha ilm ham, daho, hikmat ham.
...Dinamit qo‘yishar, tog‘larga, qara.
U zulmat g‘orlarning bag‘rini yorar.
Ochilgan sari yo‘l qadam-baqadam,
Ko‘raman mehnatim mevasini ham.
Kechalar yoqimli, kechalar ko‘p soz,
Yo‘lchiga farog‘at va fusn hamroz.
Na bunda yo‘lto‘sar, na qaroqchi bor,
“Yechin!” yo “To‘xta!”-deb chiqmaslar zinhor.
O‘tadi bemalol uzun karvonlar,
Yashasin qon-qardosh bo‘lgan insonlar.

* * *

Bir zamon ko‘z yoshi ichgan daralar,
Tizmalar, qoyalar, soz manzaralar
Bo‘libdi endi uch qardosh Vatani,
Uchchovi ham erur yurtdoshim manim.
O‘sadi, gullaydi har uchta qardosh,
Ertasin yaratar hamkor-u safdosh...
Eslashar kelinlar, eslashar chollar,
Qoyaga urilgan mag‘rur shamollar
Ertani kuylagan uyg‘oq shoirin,
Hamisha shodlikka mushtoq shoirin...

HUMOY

(Dostondan parchalar)

Humoy ko‘p o‘ylatar, yig‘latar Humoy,
Na-da Ofeliya, na Tatyana u oy.
Dunyoga kelgani ilk kundan beri
Bu ma’yus boquvchi qora ko‘zlari
Nelarni anglatar?..
Uning hayoti —
Sevgisi, toleyi, muqaddiroti[1]
Goh-gohi yodiga bir qishni solmish,
Butun orzulari ko‘zida qolmish.
Ijozat bersangiz, so‘zlab beray man.
Qizning xayolotin nozikligidan.
Uni maftun qilgan — sozlarning sasi,
Va yana qushlarning shirin nag‘masi...
Tog‘larning to‘shida kezguvchi cho‘pon
Dard bilan nayini chalgani zamon
Yoshlanar Humoyning qora ko‘zlari.
Hayotga kelgani ilk kundan beri
Bilaman dardini, bu emas bejiz,
G‘arib kun kechirar tanholikda qiz.
Bir umr qo‘liga kitob olmagan,
Ulkan shaharlarda qo‘nib qolmagan.
Na biror temir yo‘l, na biror qator[2]
Ko‘rmagan...Kechalar u qator-qator
O‘tishgan turnalar neni eslatar,
Ne uchun qalbiga bir olov otar?..
Ba’zan qo‘shnilardan keladi yig‘i,
Yurakka botadi alamli tig‘i.
Dard aytib yig‘lagan yoshli kelinlar,

[1] **Muqaddirot** — qismati ma’nosida.

[2] **Qator** — Bu yerda poyezd sostavi ma’nosida ishlatilyapti.

Qanotli nolalar va og‘ir tinlar
Qizning xayollarin olib bag‘riga,
Uchishar so‘ngi yo‘q ko‘kning qa’riga.
Goh shafaq yoyilib, ko‘k yuzin tutsa,
Yo chaqmoq osmonni savalab o‘tsa,
Tabiat siridan Humoyim qo‘rqib
Turarkan ohudek jovdirab, hurkib,
Chodir burchagiga o‘zni uradi,
Ko‘z qirin olisga tashlab qo‘yadi.
Qaydan bilsin dunyo sirini Humoy,
Ba’zan ko‘k — dengizda qalqqan so‘lg‘in oy
Yorib bulutlarni hujumga o‘tar,
Uning handaqidir qat-qat bulutlar.
Bu suvratdan jindak qiz olar maroq,
Oy izidan boqib, o‘y surar uzoq.
Nihoyat toliqib, aylanar boshi,
Xiralanib kelar ma’yus boqishi,
Bilaman dardini, bu emas bejiz —
G‘arib kun kechirar tanholikda qiz.

Qushlardan ilgari turar har sahar,
Qo‘shni tepalikdan oshib u jadal,
Boradi sohilga — buloq boshiga,
Qo‘yib ko‘zasini sohil toshiga
O‘rmonda sayr etar, yot ko‘zdan xoli,
Sochini to‘zg‘itar tongning shamoli.

Bir oz so‘zlay qizning oqshomidan ham:
Qorong‘u tushganin ko‘rdimi, shu dam —
Uning ruhiga ham bir soya cho‘kar,
Yengini shimarib, itga osh to‘kar.
Hovlida ne bo‘lsa, hammasin bir- bir,
Liboslarga qo‘shib, ichkari tashir.
Sepli sandig‘iga u qulf urar,
Humoyning har kungi yumushi — bular.

Yosh-qari yig‘ilib oqshom mahali,
Esiga kelgandan so‘zlashar bari.
Erkaklar so‘z boshlar pahlavonlardan,
Jang-jadal, o‘qlardan, o‘lim, qonlardan.
Keksalar zavq bilan so‘zlarlar har dam
Zol o‘g‘li Rustamda bo‘lgan hunardan.
So‘ngra Go‘ro‘g‘lidan yana G‘irotdan,
Inson zerikmaydi bu xotirotdan...
Mulla Nasriddinning latifalari
Kishilar og‘zidan tushmaydi hali...
Uni go‘daklar ham sevadi chog‘i,
Ajib mojaroli dunyo quchog‘i...
So‘ngra xotinlar ham olishib navbat,
Qarindosh, qo‘shnidan qilishar g‘iybat:
— Guljamolni qarang, qarori yo‘qdir,
Qartaygan bo‘lsa-da, hech ori yo‘qdir.
Yasan-tusani zo‘r, bashangdir pardoz,
Derlar, ersirabdi bu qari tannoz:
Rang olib-rang berar ko‘ziga hilol...
Bu yolg‘on so‘zlarni aytgan bir ayol
O‘ynatar qoshini, suzar ko‘zini,
Kulgili bir holga solar o‘zini.
Oltmish yildan beri hunari shudir,
Tongda aytganini kechda unutur...
Bunday suhbatlarni qiz ko‘rar yomon,
Yolg‘on, rost farqini bilgandan buyon.
So‘ng dasturxon kelar, davrani buzmay
Yeyishar qatig‘-u, qaymoq, yog‘, suzma.
Baridan yeyilar, ichiladi choy.
Hammadan oz yeyar, oz ichar Humoy.
Ishtaha bo‘lsa ham, tortinar beshak,
“Qiz bola degani nafs tiyish kerak”.

Meni ko‘p o‘ylatar, yig‘latar Humoy,
Na-da Ofeliya, na Tatyana u oy.
Hayotga kelgani ilk kundan beri

U g‘amgin boquvchi qora ko‘zlari
Nelarni anglatar?..
Uning hayoti —
Sevgisi, toleyi, muqaddiroti
Goh-gohi yodiga bir qishni solmish,
Butun orzulari ko‘zida qolmish.
Bilaman dardini, bilaman shaksiz,
G‘arib kun kechirar tanholikda qiz...

Shoirim, ko‘nglingni poklagil bir dam
Insonga dard bo‘lgan hodisalardan.
Bizga yashamoq ham, o‘lmoq ham tanish,
Boshqa bir olamdan ozgina donish[1].
Umr deganlari to‘lqinli bir suv,
Uyg‘ot insonlarda fikr va tuyg‘u.
Hayotni yayratgan dostonlar yarat,
Qadrin tushirmasin sira ham hayot.
Umring o‘tar, sochda keksalik qori,
Kasodlik kechirar she’ring bozori.
Endi asablaring orom bilmasin,
Kechalar ko‘zingga uyqu inmasin!
Qani asrimizning buyuk Bayroni?
Qudrating yetsa sen yaratgin uni!
Qani Fuzuliyning mungli g‘azali,
So‘ndimi tuyg‘ular, o‘ldimi san’at,
Xafami shoirdan, she’rdan tabiat?
Endi gul damidir—fasli bahordir,
Har gulning- chechakning bir siri bordir.
Asrimiz bo‘lsa ham buyuk, serrivoj,
Negadir ko‘plari pok nomga muhtoj.
Kuching yetsa magar shulardan donish,
Bizga yashamoq ham, o‘lmoq ham tanish.
Shundoq o‘ylar bilan xiyla zamondir,
Yozuv stol uzra cho‘mgum ilhoma,

[1] **Donish** — gapir ma’nosida.

Ko‘ngil vayron bo‘lgan bir xonumondir,
Ko‘zimdan qog‘ozga yosh toma —toma
Yozuv stol uzra cho‘mgum ilhoma...
Ne uchun she’rlarim og‘izga tushib,
Nomimni cho‘ponlar yodga olmasin?
Ne uchun karvoniy qushlar o‘tishib
Boshimning ustida havolanmasin?
Nomimni cho‘ponlar yodga olmasin?

Nega bu tuproqning shirin lahjasi,
Shoirman, deganga begona bo‘lsin?
Nega yangraguncha suvlarning sasi
Undagi quvvatni shamol uchirsin,
Shoirman, deganga begona bo‘lsin?

Nega so‘zlamasin ona tilida
O‘z o‘tli nutqini zobit, askarlar?
Turkcha[1] gaplashmasin sivgilisi-la,
Bu qabih odatda ne muddao bor?!
Mendan ranjmasin zobit, askarlar.

Nega she’rimizning bosh qahramoni
Goh Turondan kelar, goho Erondan?
Bas, mening o‘lkamning borlig‘i qani?
Buyuk bir shoiri yaratgan doston.
Goh Turondan kelar, goho Erondan?

Mana, men ochganim kurash maydoni!
Kelsin Verxarnga taqlid qilganlar,
Ko‘pdan gaplashmagan sevgilim qani?
Kelsin Verxarnga taqlid qilganlar!

Kimniki, sahardan oqshomga qadar
Sovuq-issiq demay, ishlovchi qo‘llar?

[1] Ozarbayjoncha demoqchi.

Kimlar u — kechalar uyqusiz qolgan,
Bo‘htonga yo‘liiqqan, tuhmatlar olgan,
Faqat har mushkulga ko‘kragin kergan,
Nurli kelajakka yo‘l solib bergan.
Quyoshning tig‘ida, dengiz, qumloqda,
Ekishda, yig‘ishda, qirda, qurg‘oqda
Badani yorilgan, issiqdan tolgan,
Dalalar bag‘rini tepkilab yorgan
Tarlon saharlarning lochin avlodi,
She’rga yarashmasmi, bularning oti?
Kimniki bu qishloq, bu suhbat, bu tor!
Kimniki kelindek yasangan bahor?
Qara, safda o‘tgan askarga qara,
Zarbidan larzaga kelar tog‘, dara.
Qara, soqchi tutgan nayzaga tikka,
Qara bu toproqqa, qara bu ko‘kka.
Koinot koshonasi, bir jonli asar,
Bashar bilan mangu yashamoq istar.
Qanotlan ilhomim, havoli ko‘nglim,
Toshli-tikanlidir bu baxtli yo‘lim.
Buyuk bir o‘lkaning vatandoshisan,
Tuproqda tuprog‘i, toshda toshisan —
Yorqin asrimizdan ayama kuching...
Hayot, inson uchun ado et burching!..

Go‘zallik va muhabbat

Bulutlar ortidan mo‘ralardi oy,
Yo‘lakning boshida Jalol va Humoy —
Biri so‘z tashlar-u unisi kular,
Ko‘ngillar entikar, ko‘zlar suzilar...
— Humoy!
Bu olamda jondan sevganim,
Ehtimol eng buyuk tangri berganim
Bir qudrat bo‘lsa gar, bu sensan, inon!
Surating xayoldan ayrilsa bir on
Menligim, shuhratim yo‘q bo‘lib ketar,
Omonsiz ayriliq meni mahv etar.
To‘g‘ri, jang-jadalda sinab
baxt-tole,
Otang-la urushdim qo‘chqor misoli.
Qo‘y, yuzga solmagin u zamonlarni,
Tarix yaratuvchi qahramonlarni.
Urush maydonlari ko‘rsatar azal,
Bexato jon bormi, o‘yla-da sal-pal.
— Nima derdim... balki haqdirsan, Jalol,
Evini qilolsang, sovchi qo‘y-da, ol...
— Yo‘q, Humoy, bunda ish cho‘zilib ketar,
Otang sevgimizdan topsa bir xabar,
Boshqa bir kimsaga uzatar seni.
Azaldan olmagan sevgan sevganin.
— Xo‘sh, nima qil, deysan?
— Birlashib qochsak.
Bo‘lak bir joylarga, erkam, yo‘l ochsak...
— Yo‘q, Jalol, bo‘lmaydi, hammadir guvoh,
Otamni tushimda ko‘rganda goh-goh
Ho‘ngrab yig‘layman-u, dastro‘mol tutib,

Bu — umr ishi-ku...yuzidan o‘tib,
Bir oymi, yo bir kun olisga ketish,
Ishqim deb otamni tashlash, tark etish
El-yurt orasida o‘limdan yomon...
Sen uni topib
Bo‘lsa ne gaping
Gaplash, bitar ish...
Na yot, na tanish
Kulmasin zinhor...
— Qurboning bo‘layin, gulyuzli dildor,
Amringdan bosh tortsam, hattoki bir bor
Baxtim yo‘q bo‘lsin-u, tongim qoraysin,
Umidim chechagi olovda yonsin.
Mayli, qora kiysin sevgim oxiri,
Men uni topgumdir izlab axiyri.
O‘limdan qo‘rqmoqning ma’nosi bormi?
Yo meni o‘ldirar, yo berar yorni.
— Baxtimni o‘ylaydi otam, yo‘q demas,
Ahdimizni unga uqdirolsang bas.
U seni kechirar, kechirar tamom,
Unga berib qo‘yma qotil degan nom...
— Deyarkan Humoyning ko‘zi suzilar,
Jalolning qo‘llari qizga cho‘zilar.
Bulutlar ortidan oy ham mo‘ralar,
Yuzlar olovlanar, yuraklar urar,
Birdan quchoqlashar.
Oy uzoqlashar...
Ularga kunduzdan ma’qul hozir tun.
Bu go‘zal suratdan bir vaqt bust-butun
Qalbim ilhomlanar, erib oqardim,
Havoda qush kabi qanot qoqardim...
Faqat, sevgilimning edi fikri tor,
Qalbimni to‘p kabi o‘ynab u dildor
Devordagi toshga urardi uni,
Bor edi umrimning ayanchli kuni...

Humoy o‘ylanadi

Humoy oshxonada turadi yakka,
Ko‘zlari o‘choqda, parishon holi.
Tog‘larning ayozli, achchiq shamoli
Bemavrud mehmondek o‘zini tikka
Ichkari uradi...Humoy g‘amlidir,
Mayin kipriklari jindak namlidir.
Ne uchun qiz bo‘lib keldim hayotga
Ko‘zlarim tikurman pokdomon zotga.
Na yig‘in ko‘raman, na to‘y, yo‘q ixlos,
Birovlar poyiga to‘shalgan palos...
“Nima dey, ehtimol haqdirsan, Jalol,
Evini qilolsang, sovchi qo‘y-da, ol...”
Degani Humoyning yodiga tushar,
Qo‘l-qanoti bo‘shab yoniga tushar.
“Nima deb aljidim, unga xilvatda,
Aqlim kamligidan, bu ish albatta!
Nima bo‘lsayamki, begonadir u,
Ehtimol, dilida xiyonat, og‘u.
Ehtimol, ko‘nglimni aldab ketar bot,
Dunyoda nasibam shu bo‘lsa nahot?
Oh, uni ko‘rganda ot ustida man
Yaproqdek potirlab qolaman ba’zan.
So‘zini qaytarib bo‘lmaydi sira.
Yolg‘onchi bo‘lishdan dil tortar xira!..
Bir yondan belimni bukadi otam,
Uloqib, ko‘z yoshim to‘kadi otam.
Uning non-tuzin yeb voyaga yetmak,
So‘ngra bir yot bilan bosh olib ketmak,
Otamni ajdarga aylantirar bot.
Hammayam biladi, bu axir uyat!

Faqat, naylayinki, sevdim Jalolni,
Na shuhrat, na mansub, na otam holi
Ko‘zimga ko‘rinmas...”
Humoyim birpas
O‘ylanar...so‘ng olar entikib nafas.
Fikriga dam bermoq bo‘ladi bir oz...
Shoirim, sen endi tabiatdan yoz!
Boya derazaga urilgan shamol
Xasta go‘dak misol yo‘talib behol
Nafasi uzildi, yelmadi ortiq,
Yulduzlar shivirlar, havo ham ochiq.
Ko‘k bag‘ri beg‘ubor, charog‘on juda,
Xilqatning eng teran ma’nosi shu-da.
Humoy derazadan boqar tashqari,
Sut kabi oqarar tog‘larning qori.

Dastlabki uchrashuv

— Baxtiyor, meni ham ro‘yxatingga yoz!
Deya mo‘ltiraydi ohuko‘z Gulzor.
Qizni tinglar ekan bizning Baxtiyor
Titraydi qalbida sadafdan bir soz.

Boshini ko‘ksiga egadi Gulzor,
Serma’no ko‘zlari ko‘l kabi loldir.
U ma’sum qarashlar balki xayoldir.
Ko‘zga ilg‘anmovchi bir olami bor.

Qahramon Baxtiyor negadir xomush,
Ishqning sharbatini totibdi u ham.
Butun vujudida alanga-gulxan,
Qalbi potirlaydi misli tutqin qush.

Muhabbat buyukdir azaldan beri,
Hayot oshig‘idir ishqni bilganlar:

G‘am-g‘ussali kechgan har bir kunlari,
Sevib yashaganlar, sevib o‘lganlar.
Muhabbat aslida tabiatdadir,
Tabiat o‘zi ham muhabbatdadir.

Ey ko‘ngil beshigi — buyuk muhabbat,
Sening ham qadringni bilmaganlar bor.
Borlig‘i tosh, kesak kabi mo‘rt, g‘alat,
Bir inson ishqi-la kulmaganlar bor.

Juda ko‘p ko‘rdim bu ko‘hna dunyoda:
So‘z olib, so‘z berib, so‘ng unutarlar,
Vijdonni xo‘rlashar aldov-riyoda,
Ishqning bahosini arzon tutarlar.

Bormi sevgisizning bir istiqboli,
Hayot ham u telba ustidan kular.
Kun o‘tib oqarar sochi, soqoli
Cho‘lda qurt-qush kabi kulbasiz o‘lar.

Buyuk yaralgandir azaldan inson,
“Muhabbat” atalar shirin ne’mati.
Ishqning mevasidir har yangi doston,
Qalblilar yaratur she’rni — san’atni.

Jonon mayda bosib, chiqar xonadan,
Oh, unga bu yurish qanday yarashar...
Ko‘ngil ergashadi unga panadan,
Yo‘llar ham faxr etar, bossa, yayrashar.

Kel, kel, sayrashaylik kaklik misoli,
Tegsin bir-biriga qaymoq dudoqlar.
Bo‘lma dildan yiroq, nazardan xoli,
Ajib g‘amzalaring ko‘ngilni bog‘lar.

O‘zing ayt, mehrdan yaxshi nima bor,
Bir umr muhabbat yo‘ldoshlari biz.

Gulni qish asrarkan kelguncha bahor,
Ajralmas birlashgan do‘st qo‘llarimiz.
Bir umr muhabbat yo‘ldoshlari biz.

So‘lim yoz ertasi.. otlan yo‘lga, bo‘l...
Cho‘lda hurkib qochsin jayronlar, erkam,
Qanday soz, kezinsak berib qo‘lga-qo‘l,
Rayhonlar atrini yo‘lga sochgan dam.
Unutma, sevgilim, fasli bahordir,
Bahor va yoshlikning qalblari yordir.

Oh, men — gulbahorning oshig‘i azal,
Bahorda chechakni chaqirar chechak —
Chaman — oshiq zorning zar to‘shagi, zar
Unga tong shamoli ajib belanchak.

Bahordir beshigi she’rning san’atning,
Zumrad quchog‘iga boqib to‘ymadim.
San’at ulug‘lagan ilk muhabbatning
Bag‘rida bir dam-da, qishni tuymadim.

Sevgisiz yashagan yuraksiz inson
Ichini qurt yegan bo‘sh bir yog‘ochdir.
Asrlar o‘tadi, aylanar zamon
Muhabbat abadiy bir ehtiyojdir.

Ey g‘ofil, quloq sol, ishqdan yuz burma,
Eng nozik musiqa jonon sasidir.
Ishqning sharbatidan benasib yurma,
Umr — muhabbatning ilk mevasidir.

Ishqning urug‘i bor jonli borliqda,
Undan o‘zak olar go‘dakning qoni.
Muhabbat bo‘lmagan bir mozorlikda
Bo‘ridek g‘ajiydi inson-insonni.

Misol ko‘rsataymi?
Fashizm misol,

Unda na muhabbat, na vijdon bordir.
Insoniy hislarga yo‘lamas xiyol,
Odam libosida vahshiy murdordir.

U seva olsaydi o‘z avlodini
Murg‘ak bolalarni yetim qo‘ymasdi.
Bilsaydi hayotning lazzat-totini
Hayot oshiqlarin tirik so‘ymasdi...

* * *

...Kecha bir betamiz so‘radi mendan:
— Nega ishq tushmaydi sira tilingdan,
Borliqda neki bor yo‘qolar, so‘nar,
Muhabbat, sadoqat ayanch ko‘rinar.
Dedimki: falsafa sotma muncha ko‘p,
Olim libosida ayanchlisan xo‘p.
Bilaman: tabiat o‘zgarib turar,
Borliq har boqqanda yangi tuyilar.
Lekin tabiatning o‘z qonuni bor,
Mevani vaqtida berar daraxtlar.
Chalg‘ita olmaydi dunyo insonni
Bir maslak ishqiga tiksa u jonni.
Xayolingga keltir Bobakni[1] bir dam,
Tug‘ildi tog‘larga bo‘lib u hamdam.
U el ishqi bilan qalbin ulg‘aytdi,
Yellar qo‘shiq aytib uni uyg‘otdi.
Qilich-nayzalardan teshilsa ham tan,
Jallodga jon berdi, tilida Vatan.
Lekin unutmadi Bobakni tog‘lar,
Tarix qahramonin qalbida saqlar.
Uzilsa bir uydan ishqning oyog‘i,
Sarg‘ayar bog‘chasi, quriydi bog‘i.

[1] **Bobak** — Ozarbayjon milliy qahramoni

"G'ofil! Bu savoling kimga ham kerak,
Bor, yurakdan so'ra, sevguvchi yurak!
Ko'z oldingga kelsin
"Layli va Majnun",
Bu dostonning umri tarixdek uzun.
Yig'laydi Laylining ko'zida ko'llar,
Ochdi quchog'ini Majnunga cho'llar...
Ayondir Shirinning hasrati, dog'i,
Farhod muhabbat deb kesganda tog'ni.
Muhabbat hamisha hayot uchun zeb,
O'ylama, dostonlar to'qimadir, deb.
Nima bo'lsa hamki, bularda jon bor,
Yashagan, talpingan, sevgan inson bor.
Uzilsa bir uydan ishqning oyog'i,
Sarg'ayar bog'chasi, quriydi bog'i.
Qaraki, oz qopti sahar paytiga,
Tizaman so'zlarni she'rim baytiga.
Qizarar tong yuzi yuragim kabi,
Qalbim-la bir urar saharning qalbi.
Yonar yoqut kabi sokin ufqlar,
Ochar quchog'ini oshufta sahar.
Menga ilhom berib bu sof tabiat
Deydiki, dunyoda qoladi san'at.
Uyalsin, — deydi bu xumorko'z sahar —
She'rning olamida benaf yurganlar!

Tong ko'zi ochilar, ko'k boqar xumor,
San'atning ishqi-la kulsa san'atkor,
Tuganmas ilhomi, tuganmas so'zi,
Muhabbat azaldan san'atning ko'zi.
Uzilsa bir uydan ishqning oyog'i,
Sarg'ayar bog'chasi, quriydi bog'i.

Quloq ber, boshlanar yangi bir asar:
Qo'shni xonamizdan quloqqa sal-pal

Chalinar qizimning qo‘ng‘iroq sasi, —
Boshlandi saharning murg‘ak nag‘masi.
Oftobning ishqi-la turib qizaloq
To‘yib-to‘yib boqar atrofga bu choq...
Ma’sum bolalikning o‘z dunyosi bor,
Yurishga talpinar jajji oyoqlar.
Zarif dudoqlari guldek qirmizi,
Bu ozod olamning qayg‘usiz qizi.
Quyoshga yo‘llaydi xayol kaptarin,
Nedir pichirlaydi g‘uncha lablari.
Unga olam go‘yo bir rang tuyilar,
Go‘yo har narsadan oq sut quyilar.
Qora ko‘zlari-da birdan suzilar,
Yashirin olam-la sirlashar, kular.
Olim kashf qilolmas bu kulgusini —
Inson qalbidagi ilk tuyg‘usini.
Madaniyat ko‘zi, bilsang, xuddi nur,
Yaratish, ijodning kaliti — shuur.
Dunyoning qatini bir-bir ochar u,
Inson olar yangi ilhom va tuyg‘u.
Shunda bilinadi yulduzning soni,
Aylanib chiqarmiz Oyli samoni.
Shunda do‘stlashadi bahor bilan qish,
Kulgusi u kunga bugundan olqish.
Shunday olim bo‘lar bizning qizaloq,
Unda-chi, shoirning toleyiga boq...
Bu qiz vijdonimning tug‘ma sasidir.
U jo‘shqin ishqimning ilk mevasidir.
Uzilsa bir uydan ishqning oyog‘i,
Sarg‘ayar bog‘chasi, quriydi bog‘i.

Muhabbat buyukdir azaldan beri,
Hayot oshig‘idir ishq-la kulganlar.
Hasrat-u g‘am bilan o‘tgan kunlari,
Sevib yashaganlar, sevib o‘lganlar.

Voqif! Yana o‘zing yodimga tushding,
Titradi qalbimning nozik qillari.
Sening salomingni keltirar jo‘shib,
Baxtiyor yurtimning sahar yellari.

Buyuk ishq jo‘shardi sendagi tanda,
She’ring qon bo‘loldi ol yonoqlarga.
Go‘zallar ro‘baro‘ kelganda sanga,
Harorat yugurdi gul dudoqlarga.
Boshing bog‘lamadi osmon malagi,
Dedingki:yer qizi undan go‘zaldir.
Hurlar dil uqmaydi, yo‘qdir keragi,
Quruq xayolotdan yashash afzaldir.
Bilaman, rostdan ham er o‘g‘li — ersan,
Aldov-qaldovlarga uchmading aslo.
She’rda g‘oliblikni bermagan shersan,
O‘pqonga yutguncha u o‘lim — balo.

Orqangdan bir shoir shivirladi tez:
“Voqif zavq olarmish qiz bo‘qog‘idan...”
Sen ham bundaylarning bir to‘pin u kez
Quvib solgan eding o‘z yotog‘ingdan.

Yashasa sevgisiz, ruhsiz san’atkor,
Uning vujudi ham suyakdir kuyuk.
Uning na soyasi, na mevasi bor,
Hayot kiftiga u ortiqcha bir yuk.

Baxtiyor, meni ham ro‘yxatingga yoz —
Deya mo‘ltiraydi ohuko‘z Gulzor.
Qizni tinglar ekan bizning Baxtiyor,
Titraydi qalbida sadafli bir soz.

Husnda bu qizning tengi topilmas,
Yigit ko‘nglin olmish ilk boqqan oni.

Sevgisiz, ilhomsiz hech yashay bilmas
Sevguvchi shoirning har qahramoni.
Uzilsa hovlidan ishqning oyog'i,
Sarg'ayar bog'chasi, quriydi bog'i.

Intizor

O'n olti kun o'tdi o'shandan buyon,
Bir xabar kelmadi Aran[1] yeriga
Humoyning ko'zi to'rt, qalbida tug'yon,
Qaraydi changigan qishloq yo'liga.
Bir joyda turolmas, tinchimas bir dam,
Yo'qolmish avvalgi sho'xligi uning.

Hattoki uxlolmas uzun tunlar ham,
Qo'l ishga bormaydi, eng so'nggi kuni
Yaqinlab keladi sho'rlikning albat,
O'lar inson qalbi, o'lar muhabbat.

Bu oqshom bezanib — qizlar, qayliqlar
Birma-bir keldilar qo'shni to'yiga...
Xilvatda bechora bir go'zal yig'lar,
Dard —hasrat to'libdi, qalbi, o'yiga...

Childirma gumbirlar, sernavo surnay,
Qo'l ushlab o'ynaydi bir davra yoshlar.
Hovli kirdi-chiqdi...Bo'larmi ko'rmay,
Ovozlar aralash...sarxush qarashlar.

Bu to'yga chiqmadi, qilib bahona,
Tabassum, quvonchga begona Humoy.
Eshikda turadi u yona-yona,
Bulutlar ortiga undan qochar Oy.

[1] **Aran** — Ozarbayjonning qadimgi nomi.

Yo‘llar muncha olis... yo‘llar sirli, oh.
Bir mujda kelmaydi bechora qizga.
Kecha uzayadi, yorishmas saboh,
U shoir ko‘ngilli, bechora qizga.

“Gulbahor faslidir, cho‘qqilarda qor...
Bo‘ldi ko‘zyoshlarim ummon, yig‘larman.
Na biron ovunchim, na hamdamim bor,
Dardim yuragimda pinhon, yig‘larman.

Sirimni bermadim do‘stga, yo‘ldoshga,
Insofsiz yuragim aylanar toshga.
Qaramas ko‘zimdan to‘kilgan yoshga,
Ko‘kda qush, zaminda inson, yig‘larman.

Kun sari bo‘ladi parishon holim,
Kun sari o‘sadi dard-u malolim,
Oh...ketib, qaytmadi erka Jalolim,
Yo‘llarim tarqamas tuman, yig‘larman.” —
Deya u hasratdan munkayib cho‘kdi,
Ko‘zidan shashqator o‘tli yosh to‘kdi.

* * *

O‘tsa-da haftalar, o‘tsa-da oylar
Jaloldan bo‘lmadi biror-bir darak.
Faqat tabiatning bir qonuni bor, —
Doim harakatda bo‘lmog‘i kerak.

Dunyo deganlari kurash maydoni,
Qochganlar qaramas, yiqilganga, bas.
Insondir yer-ko‘kning shuhrati, shoni,
Dorga tortsalar ham so‘zidan tonmas.

Yana kurtak yozar hayot bobma-bob,
Shivirlab oqadi zilol buloqlar.
Ko‘ngil ma’nolari qat-qat bir kitob,
Shundadir bo‘y egmas kuch, ishtiyoqlar.

Quyosh bor olamda, Oy bor, osmon bor,
Bularning tagida kelib-ketishlar...
Quyruqli yulduzlar boqar serviqor,
Hayot yo‘rig‘ida, insonlar ishlar.

Ular hech tinmaydi, umid yo‘lida
Chidaydi har kulfat, har falokatga...
Bir sir bor dunyoning bu yo‘rig‘ida,
Yetaklar insonni chin saodatga.

Chechaklar, qushlarning javloni, dami
His qilgan qalb uchun ilhom o‘chog‘i.
Har orzu, har tilak umr hamdami,
Yoshlikning yetilgan va ko‘rkam chog‘i.
Bizga umid berar, bizga jon berar,
Sovuq yuraklarga hayajon berar...

Humoy umidini uzmagan hali,
Hayotga bog‘liqdir qalbi, borlig‘i...
Bir qushdek ertami yo kech mahali
Qaytadi yo‘qolgan baxtiyorligi.

Ehtimol, keladi uning Jaloli,
Sarpolar tuzalib, to‘y boshlanadi.
Gohida shu niyat chulg‘ab xayolin,
Tasalli, umiddan ko‘z yoshlanadi.

Nash’ali ko‘rinar bugun Humoy qiz,
Qizillik o‘ynaydi yonoqlarida.
Sevinib, sohilga yugurar yolg‘iz,
Tosh-kesak ilashar oyoqlariga.

Daryoga tikilar, xayol avjida,
O‘rdaklar o‘yinin ko‘rib qoladi.
Daraxtlar shovqini, barglar mavjidan,
Qushlarning kuyidan ilhom oladi.

Kelgan kemalarga yuzlanib birrov
Yo‘ldan kelganlarni ko‘zdan o‘tkazar.
O‘ylaydi, shu kezda ehtimol, birov
Jaloldan bir xabar menga yetkazar?...

Suvni baliq kabi ot bilan yorib
Baxtiyor keladi, go‘yo halokat
Qo‘lidan qochgandek bo‘g‘ilib, yonib...
Boshiga tushdimi biror falokat?!

Humoy o‘z umrida btirinchi marta
Bir yoqqa itqitib tortinish, orni,
Baxtiyor yoniga borib u, shartta
So‘radi:Jaloldan bir xabar bormi?

Achchiq xabar

Baxtiyor tortadi otining boshin,
Ko‘zini qadaydi Humoyga to‘g‘ri.
G‘azabdan bo‘zarar, chimirar qoshin:
— So‘zimga kirmadi o‘jari qurg‘ur.
Unga takror-takror so‘radimki, san
Bo‘rini qo‘y bilib, tarbiyat qilsang,
G‘aflatda qoldirib, ichadi qoning!
Ko‘zlari tinadi ba’zan insonning...
Ishondi u senga, hatto otangga,
Ishonib, shu kunga qoldi, attang-a!
Yo‘qol, ko‘z oldimdan qotilning qizi,
Sen yo‘ldan ozdirding, tindirding ko‘zni.
Bag‘rimni bir vulqon siqib, qon qilar,
Jalolning o‘limi mani yondirar...

O‘lim! Bir chaqmoqning tezligida, boq,
Humoyning boshida taraqa-taraq
Qaldiroq turadi...
qaltirar tizi.

Kasaldek bukchayar, jovdirar ko‘zi.
Boshiga qularday daraxtlar, o‘tlar,
Bostirib kelganday qora bulutlar:
— Baxtiyor! Otamning bu ishi malol...
Mening yoqtirganim edi shu Jalol, —
Deb tishlar lablarin, yiqilar besas,
Bechora hushidan ketar shu nafas.
Baxtiyor hayratda...
sakraydi otdan.
Sevgidan, nash’adan, sodda hayotdan
Ajralgan bu baxtsiz tog‘larning qizi,
Sokin saharlarning yorqin yulduzi
Uning ko‘z oldida buyuklik olar,
Achchiq so‘zlaridan yigit uyalar.
Parishon sochini tuzatarkan u,
Qizning siynasiga separ muzdek suv...
Ko‘zidan tomadi qatra-qatra yosh,
Go‘yoki qardoshga achinar qardosh.
Buni tasodifan ko‘rgan Mirposha,
Qo‘lida telpagi, yugurar shosha,
Yugurar qishloqqa tez yetmoq uchun,
Baxtiyorga bo‘hton tarqatmoq uchun.
Humoy bir oh tortib, kelar o‘ziga,
Mozordek ko‘rinar dunyo ko‘ziga.
— Humoy, o‘zingga kel, meni kechirgil,
Bilib-bilmay so‘zlab, ranjitdim, singil...
Bilmabman Jalolga sadoqatingni,
Kechirgil hovliqma bu odatimni.
— Bilaman, Baxtiyor, seni ranjitgan
O‘sha bechoraning halokatidir.
Jallodlik otamning bir odatidir:
Ehtimol, mendirman boshiga yetgan...
— Uyalma, kel, singil, otimga mingash,
Uyingga eltayin, bo‘lmagin dil g‘ash.
Kecha olis, Oy botmas,
Dardlilar darddan yotmas...

* * *

O‘sha kundan boshlab Humoyim manim
Boshdan —oyoqqacha kiyinmish qora...
Uni o‘ylaganda muzlar badanim,
Qizdagi bu ezgu hislarni qara...

Kechalar uxlatib qo‘yib onasin,
Bechora ming qo‘roqib, chiqar tashqari.
Yo‘q kabi Vatani, hatto xonasi,
Zim-ziyo kechada kezar sarsari.

Yoki shu kechaga savoli bormi,
Bu sokin, bu cheksiz cho‘llar qizining?
Ne uchun tog‘lar jim?
Yoki xumormi
Iziga shu tuproq, yo‘llar qizining?
Shoirim, qalb maylin uloqtir nari,
Bu dunyo ko‘p buyuk, shundan ochgil so‘z,
Qara, sham so‘nadi, zaif nurlari,
Boshida bo‘ronli qish turar, afsus.

Yarim tun, yo‘lakda turadi Humoy,
G‘ovning yog‘ochiga suyangan, o‘ychan, —
Bulutlar ortiga yashiringan Oy,
To‘rt yonga otini yeldirar yel shan.

Bu sovuq, bu shamol qizning taniga
Inoning, zarracha ta’sir qilmaydi.
U endi pushaymon tug‘ilganiga,
Bu suzgun ko‘zlari uyqu bilmaydi.

Nimalar istaydi zabonsiz tundan?
Qarang, ko‘zlarida aylanadi yosh!
Soatlab jilmayin ne kutar undan,
Kechaning yuragi yurakmi yo tosh?!

Esiz...umidi ham yo‘qdir hayotdan,
Falakning dahshati, bo‘roni, qori
Yog‘sa ham tuyg‘usiz bu koinotdan
Bukilmas Humoyning g‘urur, viqori.

Bechora! Sindirdi qo‘l-qanotini
Bemavrid o‘limning achchiq xabari.
U shoshar, unutar ba’zan otini,
Ayriliq hukmi-la yurar sarsari.

Bu yerda ilk visol o‘yi bilan qiz
Kim bilar, ko‘nglidan o‘tkazar nelar?..
Bu sokin kechaning qo‘ynida yolg‘iz
Suruvdan adashgan bir ohu “me”lar.

“— Qurboning bo‘layin, gulyuzli dildor,
Amringdan bosh tortsam, hattoki bir bor
Omadim qolmasin, quyosh qoraysin
Umidim chechagi olovda yonsin,
Mayli, qora kiysin sevgim oxiri,
Men uni topgumdir izlab axiyri.
O‘limdan qo‘rqishning ma’nosi bormi?
Yo meni o‘ldirar, yo berar yorni”, —
Deganday qaytadan jonlanib Jalol,
Humoy qarshisidan chiqar-u go‘yo
Bo‘yniga qo‘lini tashlab bemalol,
Termilar ko‘zida kulgu va ziyo!..
Oh, o‘lgan muhabbat, oh o‘lgan istak!
Nechun hayotdagi chalkashlik, nechun?!
Yashasin kelajak, buyuk kelajak,
Unda ayriliqdan dillar bo‘lmas xun!

Humoy o‘ylar ekan...chekinib Jalol–
Ketar asta-asta tunning qa’riga.
Ortidan yetaklab Humoyni xayol
Eltadi bir so‘lim gulzor bag‘riga...

Humoyning o‘limi

Subhidam...Qishloqdan ozgina nari,
Yastangan keng dala...yaltirar qori.
Bu qor dengizida kutdi saharin
Qurshovdan qochgan u tog‘lar olqori.

Yog‘ochdek cho‘zilgan, qotgan badani,
Qonsiz yonoqlari sut misoli oq.
Tuproqqa butoqsiz, beshox, beyaproq
Tol kabi yiqilgan, yig‘latar mani.

Atrofni halqadek o‘rab olishgan
Cho‘llarning sultoni, shohi cho‘ponlar.
Bari ham sukutga, o‘yga tolishgan,
Bittasi dil ochib so‘zlar:
“Yoronlar,
Shu-da bu dunyoning so‘ng e’tibori,
Oxiri puch bo‘lar davlating, boring,
Tez bo‘ling, qishloqqa xabar yuboring,
Chaqiring, tez kelsin onayizori!..”

Birinchi cho‘pon
— Garoyboy bu holni ko‘rsaydi, inon,
Yana ko‘zlaridan olov yog‘ardi.
Ko‘zga ko‘ringanni tirik bo‘g‘ardi,
Hattoki, toshni ham qo‘ymasdi omon.

Ikkinchi cho‘pon
— Garoy boy ko‘plarni o‘tga tashlagan,
Qo‘y, uning o‘tiga bolasi yonsin.
Bu kam...tavbasiga rosa tayansin,
Talay onalarning ko‘zin yoshlagan.

Uchinchi cho‘pon
— Muncha aljimagil, sho‘rlik gunohsiz,
Qara, navniholdek yoshgina bir qiz.

Keksa cho‘pon

— Po‘stinimni olib tez o‘rang uni,
Joni bor, shoshilinch gulxan yoqinglar.
Olamga jar solib har yon oqinglar,
Zahardir dunyoning eng so‘nggi kuni, —

Garoyboy o‘lmagan..hali soppa-sog‘,
Ota-bobosidan xo‘jamiz edi.
Kulfatda, bir dardi yuz bo‘ldi endi,
Bizning ham nomusdir nomusi biroq.

Mehribon cho‘ponlar turib yonma-yon
Humoyni yelkada ko‘tarib kelar.
Shashqator yosh to‘kib, qarshidan yelar,
Nuroniy onasi, dillari vayron.

Pechkalar yoqilar, uy qizir chunon,
Ko‘rpaga o‘rashar Humoyni, ana!
Boshining ustida yosh to‘kib Ona
O‘tirar: tizzasi ustida Qur’on.

Shu uyning oqsochi — qartaygan ayol,
Pechkani qizdirar qo‘zg‘atib o‘tin.
Humoy ko‘z ochadi buzib sukutni,
...Tashqari tomonga qaraydi behol.

* * *

O‘tadi haftalar, o‘tadi oylar...
Bir “mish-mish” qishloqda bo‘sh quloq poylar:
Humoyni ortidan “savdoyi” derlar,
Kasaldan so‘nibdi chiroyi, derlar.
Derlarki: ” Uyidan necha-nechalab
Yo‘qolib qolganmish yarim kechalar.
Kor qilmas, na bo‘ron, na sovuq damlar,
(Bor gapni bo‘rttirar ba’zan odamlar).

Yurar oyoq yalang, yurar bero‘mol,
Hayosiz ishidan katta-kichik lol”.
Deydilar: “olisdan ko‘rinsa bir o‘t,
Shu o‘tga yo‘l solar, yugurib-yelib,
Boshining og‘rig‘i tutgandan beri”.

Oh, o‘lgan muhabbat, oh o‘lgan istak!
Nechun hayotdagi chalkashlik, nechun?!
Yashasin kelajak, buyuk kelajak,
Unda ayriliqdan dillar bo‘lmas xun!
Eh bahor...ko‘p yomon keldi shu bahor!
To‘lqinlar hali ham muz qoplab yotmish,
Yopiq eshiklarni yel ochsa, takror
Sovuq nafasini ufuradi qish.
To‘lqinlar hali ham muz qoplab yotmish.

Na chodir ko‘rinar, na yaylov bugun,
Mast bo‘lib, dardlashib sayramas kaklik.
Umrini topshirar, tugayotgan kun,
Bulbul yig‘lasinki, so‘lar chechaklar.
Mast bo‘lib, dardlashib sayramas kaklik.

Mana tun... yulduzlar uchar havoda,
Yo‘rtdirar otini qop-qora bulut.
Qushlar ham tinchgina uxlar uyada,
Kezar hovlilarni bir o‘lik sukut,
Yo‘rtdirar otini qop-qora bulut.

Sokin o‘ylanadi to‘zonli damlar,
Bo‘g‘ar koinotni kechaning qo‘li...
Mening ham ruhimda iztirob, g‘amlar,
O‘lar san’atimning o‘sha ilk guli,
Bo‘g‘ar koinotni kechaning qo‘li.

U yetti haftakim, ko‘rpa-to‘shakda
Tabibsiz, davosiz topshiradi jon:
Humoydan jirkanar ko‘rpa-to‘shak-da,

Ne kunga qoldi bu tengsiz xiromon,
Tabibsiz, davosiz topshiradi jon.

O‘lmoqda she’rimning vafosiz yori,
Kelsin Fuzuliyning mungli g‘azali.
Kelib sevgilim-la xushlashsin bari,
Ko‘zlar so‘nggi yo‘lni ellar go‘zali,
Kelsin Fuzuliyning mungli g‘azali.

Ey quyosh, ey bulut! Shohid bo‘ling siz:
Shu osmon ostida bir hayot so‘nar!
So‘nar sevgilisiz, so‘nar sevgisiz,
Osmon aylanar-u osmon lol, to‘nar,
Shu osmon ostida bir hayot so‘nar!

Odatdir, dunyodan yaxshi ketgan dam
Dushman kuladi-yu, do‘st tutar ro‘mol.
Ba’zan qismatimni o‘ylasam men ham
Deymanki: “Boshimda shunday kunlar bor:
Dushman kuladi-yu, do‘st tutar ro‘mol”.

U endi dunyoda faqat bir otdir...
Turmush chigallari — bag‘rim o‘rtagan!..
Bu oqshom, shoirim, she’ring ozoddir.
Taftish qiluvchilar[1] kelsin ertaga,
Turmush savollari — bag‘rim o‘rtagan.
Boshini siypalab titroq qo‘li-la
Yig‘laydi oq sochli Onayizori.

Gaplashar umrining so‘nggi guli-la:
“Koshkiydi, men o‘lsam ...davlatim, borim!”
Yig‘laydi oq sochli Onayizori.
Humoy Onasining kenja qiziydi,
Kenjani, ayniqsa, sevadi Ona.
Uning bor yo‘g‘iydi, ko‘rar ko‘ziydi,

[1] bu yerda shoir, ba’zi nigilist tanqidchilarni nazarda tutadi.

Onaning uyqusiz tuni bor yana...
Kenjani, ayniqsa, sevadi Ona.

U ko‘rib qizining ayanch holini
Bir tutqun qush kabi ich-etin yeydi.
Butun davlatini, butun borini
Humoyning boshidan sadaqa, deydi.
Bir tutqun qush kabi ich-etin yeydi.

Sochini changallab, yig‘laydi asta,
Humoydan yashirib, qalqqan yoshini.
“Borliqni yaratgan ey buyuk usta”, —
Deb ko‘kka yolborar, egar boshini,
Humoydan yashirib, qalqqan yoshini.

Esiz! Ufqlar ham, bulutlar ham lol,
Yel tunni qamchilab chopar sarsari.
Yetaklar xastani bir mash‘um xayol.
Yetaklar sehrli bir diyor sari,
Yel tunni qamchilab chopar sarsari.

Ana!
Qutqaray deb yugurar Jalol,
Faqat fojiadir xayolning izi,
Garoyboy keladi xanjarli, battol,
Xanjarin qiladi qondan qirmizi,
Faqat fojiadir xayolning izi.

So‘ngra yaqinlashar, qo‘llari qonli,
Dahshatdan olayar Humoyning ko‘zi.
U misdek qiziydi, boshi tumanli...
Shu yerda tugaydi shoirning so‘zi,
Dahshatdan olayar Humoyning ko‘zi.
Xasta bor kuchini to‘plab o‘sha on
Qichqirdi... Xonaga yoyildi bu sas...
Garoyboy joniga tegmas, yaroq, qon,

U toqqa qochadi, oshib baland-past,
Xonadan keladi yig‘i — hazin sas.

Subhidam, sariqdir ufq ruxsori,
So‘lar shafaqlarda xasta yuzli Oy.
Oqarar sut kabi tog‘larning qori,
Faqat ko‘zlarini ochmaydi Humoy,
So‘lar shafaqlarda xasta yuzli Oy.

Ustiga yopilgan qop-qora ro‘mol.
Qotibdi yuzida ikki tomchi yosh.
Humoy motamsaro bulutlar misol,
U endi bo‘lgandir yo‘qlikka yo‘ldosh.
Qotibdi yuzida ikki tomchi yosh.

Sahar pallasida yig‘ining sasi
Insonni yondirar o‘tsiz-o‘choqsiz.
Nedir koinotning bu manzarasi:
Yashagan haqsizmi yo o‘lgan haqsiz?
Insonni yondirar o‘tsiz-o‘choqsiz.

* * *

Yulduzlar havoning bag‘rini yorar,
Qoyali tog‘lardan tuman yuksalar.
Xayolim kechani olqishlab qolar...
Yeldirar otini bir boshqa dunyo.

Yerlarga boqaman — bir so‘lim bog‘li,
Ko‘klarga boqaman —
cheksiz ne chog‘li.
Bu keksa koinot sirli, so‘roqli,
Azaldan bu o‘zi tomosha dunyo.
Bir dam ko‘rasanki, ochilgan so‘lar,
Noyob oqillar ham bir tuproq bo‘lar...
Bir yondan bo‘shasa, bir yondan to‘lar,
Sirini bermaydi sirdosha, dunyo.

Azaldan aslida shunday koinot,
Jahon doimiy-ku, umr omonat.
Qo'ldan-qo'lga o'tar vafosiz hayot,
Biz keldik, ketamiz, sen yasha, dunyo.

Axir o'ylash uchun bormi vaqtimiz,
Siri mavhum bo'lgan bu ma'nilarni?
Shoirim, shundaki bizning baxtimiz,
Bashar topolmagan menimcha, hali
Siri mavhum bo'lgan bu ma'nilarni.

Yo'qlik-la tortishgan bu jonli borliq
O'ylab o'tirishga balki, arzimas.
Shu oddiy hayotda har baxtiyorlik,
Umr deganlari o'tkinchi bir sas.
O'ylab o'tirishga balki, arzimas.

Faqat istardimki, kuymasin hayot,
She'rning yig'lagani — go'zallik uchun.
Har damda o'zgargan, ko'chgan koinot
Demasin, shoirlar bechora nechun,
She'rning yig'lagani — go'zallik uchun.

Bulutlar yeladi ortiga boqmay,
Yana o'z yo'lida dumalaydi Oy,
Faqat na Jalol bor, na-daki Humoy,
Na jonga achinar, na yoshga, dunyo...

VOQIF

5 parda 11 ko'rinishli she'riy drama

Qatnashuvchilar:

Voqif — XVIII asrda yashagan mashhur ozarbayjon shoiri.

Og'a Muhammad Shoh Qojar — Eron hukmdori.

Vidodiy — shoir Voqifning yaqin do'sti.

Ibrohimxon — Qorabog' xoni.

Eldor — xonlik zulmi va Qojar bosqiniga qarshi bosh ko'targan qishloq ahlining boshlig'i.

Kurd Musa
Arshon } — Eldor qo'shinidan.

Xiromon — Voqifning xotini.

Alibek — Voqifning o'g'li.

Gulnor — A libekning sevgilisi.

Amina — Gulnorning onasi.

Tukazbon — Vidodiyning xotini.

Vazir — Qojarning vaziri.

Qiziqchi — Ibrohimxonning qiziqchisi.

Shaliko
Tamara
Kichik Gurji } — Qojar asirga tushirgan gurjilar.

Ali Shayx — Qorabog' shayxi.

Ilyos — Eldor qo'shiniga qo'shilib olgan josus.

Sarkarda — Qojar qo'shinlarining sarkardasi.

Zulfiqor — Qojarning askarlaridan, unga qarshi bosh ko‘taradi.

Temur
Ahmad ota
Qurbon ota } — Qishloq keksalari.

Qosim
Murod } — cho‘ponlar.

Qishloq ahli, **qochoqlar**, **askarlar**, **elchilalar** va boshqalar .

BIRINCHI PARDA

Birinchi ko'rinish

XVIII asr, Ozarbayjon, Qozoh viloyati. ***Vidodiy****ning hovlisi. Orqa tarafdan Kur daryosi ko'rinib turadi. Namozgar pallasi.* ***Vidodiy*** *yolg'iz, daraxt soyasida namoz o'qiyotir. Namoz orasida qo'llarini ko'tarib, titroq va ta'sirli ovoz bilan ko'kka yuzlanadi:*

Xudoyo!
Insonning holi yomondir,
Ko'rgan —kechganimiz senga ayondir.
Ma'nosi bormi hech bu tariqatning,
Och bizga eshigin sen haqiqatning!
Bir yangi nur bersang, netadi bizga,
Bu ojiz yaralgan ko'zlarimizga —
Balki ajratardik yaxshi-yomonni,
Toki qonsiz o'tgan biror zamonni
Ko'rsak, ilhom olib sevinardi dil,
Bu so'nmas zulmatning bag'rin yoritgil.
G'aribdir dunyoning ashrafi inson,
Buyuksan, odilsan, o't gunohidan.
Yer uzra sudralib o'tmasin bashar,
Qolmasini, tubanlik —tuhmatdan asar.
Yaxshilik insonga bir san'at bo'lsin,
Dunyo bir boshidan, qo'y, jannat bo'lsin!

Tukazbon
Yana, namoz vaqti o'qiysizmi she'r?..

Vidodiy
Sen ham qayta —qayta qalbni tila ber...

Tukazbon
Yo‘q, yo‘q, jon Vidodiy, kechiring mani,
Jon-dildan sevaman har kalimani.
O‘ttiz yil turganim bu g‘arib kulba,
O‘ttiz yil turgan bu mung‘aygan kulba
Qutlug‘ oyog‘ingiz tekkani zamon
Men uchun bo‘ldi bir jannatdek makon!

Vidodiy
Beri kel, vafoli kampirim, borim,
Senda jonlanadi ilk orzularim.
Dunyoning tashvishi, dardin, Tukazbon,
Unutib yuborgum qaraganing on...

Tukazbon
Taqdir ko‘p ko‘rmasin bu kunni bizga,
Bir umr bosh ursam arziydi sizga.

Vidodiy
Tukazbon!
Yo‘lovchi yana kamaydi,
Voqifdan yangi bir xabar kelmaydi.
Voqif Qoraboqqa ko‘chgandan beri
Qisqarar umrim ham hijronda erib...
Usiz kundan-kunga ortadi g‘amim,
O‘shaydi bu yerda ko‘nglim hamdami.

Tukazbon
Vidodiy, qayg‘urmang, elda masal bor:
“Bir yonni berkitgan, bir yonni ochar”.
(Eshik qoqiladi)

Vidodiy
Marhamat!
(Ikki nafar elchi kiradi)

I-elchi
Sizmisiz, shoir Vidodiy?

Vidodiy
Balli, nima ekan,
so‘zla muroding?

I-elchi
Ganjadan kelyapmiz,
mehmonmiz sizga.

Tukazbon
Bizning faqirona bu uyimizga
Xush kelibsiz, mehmon!

Vidodiy
Keling, azizlar!
Olloh mehmon bersa,
rizqin ham berar.

*(**Elchilar** o‘tirishadi. **Tukazbon** xola oftobani o‘tga qo‘yib, choy hozirlashga kirishadi)*

Vidodiy
So‘zlang, qayerdansiz, kim tomondansiz?

I-elchi
Shoir,
Jovodxonning odamlarimiz,
Xushxabar aytgali kelgandik Sizga.

Vidodiy
Voqifdan?

I-elchi
Yo‘q, Voqif Qorabog‘dadir,
O‘zingiz bilasiz, u uzoqdadir.

Vidodiy
To‘g‘ri, uzoqda u, hasrati ko‘pdir,
Ammo sadoqatning manzili yo‘qdir,
Qani, xabaringiz nimaga doir?

I-elchi
Bu atrofda yo‘qdir sizga teng shoir,
Go‘zal so‘zlaringiz tillardan tushmas,
Tangri ko‘p ko‘rmasa Sizni elga, bas.

Vidodiy
Yo‘q, yo‘q... husni kalom Voqifda bordir,
Har so‘zi bir umr o‘lmas yodgordir.
Belimni bukchaytdi uning hasrati...

I-elchi
Bizning xon xush ko‘rar she’rni, san’atni,
Sizning yoningizga yubordi bizni,
Istaydi saroyda ko‘rishni Sizni.

Vidodiy
Nechun?

I-elchi
Xon dediki, Vidodiy kelsin,
Saroyda yashasin, yonimda qolsin.
Uyingiz tayyordir bir bog‘ ichida,
Ayvoniyam yashil yaprog‘ ichida.
Qashshoqlik, kulfatni bilmaysiz hech vaqt,
Kuchayar kun sari boylik va davlat.
Sizni vazirlikka chaqirmoqda xon...

Vidodiy
O‘g‘lim, ozod qushman,
bunga yo‘q gumon....
Hech boylik teng kelmas bizning cho‘llara,

Ko‘nglimning maskani bu tog‘, bu dara!
Mendan na shoh chiqar, na-da chiqar xon;
Borsam ham, xon, o‘zi bo‘lar pushaymon.

II-elchi
Ota!
O‘ylab ko‘ring, bu saodatdir,
Tarki dunyochilik yomon odatdir...
Fursat degani-ku qanotli bir qush,
Qo‘ldan uchib ketar, qarasangiz bo‘sh.

Vidodiy
(Bir bahona bilan qutulib qolish niyatida)

Aytingiz, xastaman, yo‘qdir quvvatim,
Yo‘q o‘sha avvalgi so‘zim, suhbatim...
Qartayib qolganman, tez o‘tar kunlar,
Umr karvonimga yaqin yakunlar...

II-elchi
Demak... xon orzusi oshmas amalga?
Sizdan kutmagandik solishni galga.
Og‘ajon, bu och uydan topgansiz nima?
Nega farog‘atni boy berasiz-a?

Vidodiy
Bunda bo‘lmasayam saroy havosi,
Yaxshidir har qushga tug‘ma uyasi.
Bu yupun boshpanam o‘zimga yetar,
Shu yerda yozilgan yuz-yuzlab asar.

I-elchi
Baxtingizdan o‘ksib...

Vidodiy
Yo‘q... aslo, shodman,
Bunda g‘am-qayg‘udan, darddan ozodman...

II-elchi
Qo‘y endi, yur ketdik, bu bir telba-ku...

I-elchi
Yur, chindan kulgingni keltiradi u.

Vidodiy
Ketmang, tunab qoling: sizga joy tayyor!

I-elchi
(kinoya qilib)
Siqilib qolasiz, kulbangiz ham tor.

Vidodiy
Yurak keng bo‘lsa bas!

I-elchi
Shoir, ko‘pni ko‘rgan, shaksiz, ko‘zingiz,
Xomxayol ekansiz ammo o‘zingiz!

II-elchi
Hay, salomat bo‘ling!
(Elchilar ketishadi)

Vidodiy
Keting!
Yanglishibdi Ganjaning xoni,
O‘zga bir olamning menman mehmoni.
Bu foniy dunyoning kayfi, lazzati
Bir kuni yaralar ko‘ngilning qatin...
Keting, aldayolmas meni saroylar!
Bu yerda hamdamim yulduzlar, oylar,
Bunda kechalarning ajib sasi bor,
Ko‘nglimning bir nozik kamonchasi bor...
Muz qo‘llar tegmasin unga hech mahal,
Manim saroyimdir yuksak amallar!..

Tukazbon
Ko‘nglimdagi gapni topib aytdingiz;
Birovga bosh egib yashabsizmi siz!
Bunday javob bergan til ham bor bo‘lsin,
Yurtni unutganga dunyo tor bo‘lsin!

Vidodiy
Tukazbon, u saroy qon o‘chog‘idir,
Uning har visoli hijron dog‘idir.
O‘ylab ko‘r Voqifni, doimo kulgan,
Qadami yetgan joy quvonchga to‘lgan
Shoir ham qismatdan yozar shikoyat,
Sabab? — saroylardir...
(tashqaridan tovush keladi)

Voqif
Bormi uy egasi?!

Tukazbon
Qarang,
bu bo‘lmasin Voqifning sasi?

Vidodiy
Topding, xuddi o‘zi.
(bir nafar hamqishloq hovliqib kiradi)

Qishloqlik
Vidodiy, Vidodiy!
Muborak bo‘lsin,
Voqif kelayotir...

*(Bir guruh hamqishloqlar bilan **Voqif** kiradi. **Vidodiy** **Voqif**ni ko‘rgan zamon unga peshvoz chiqadi, quchoqlashib, o‘pishadilar)*

Vidodiy
Jonim, jigarim!
Yo‘lingda qolgan bu zaif ko‘zlarim

Yana nurga to‘ldi, qara, qanday soz...
Azaldan vafo-la eding-ku hamroz...
(O‘tirishadi)

Voqif
Gunoh mendan o‘tdi, kechiring, ustod,
Bu ko‘ngil bo‘lmadi bir kun sizsiz shod.
Tushimda ko‘raman sizni kechalar,
Sizsiz hech kulmadi ruhimga sahar...

Tukazbon
Bo‘ldimi, uyatsiz, to‘g‘risini ayt,
Tukazbon xolangni unutganing payt?

Voqif
Yo‘g‘-e...siz men uchun onadan ortiq,
Qarzdorman umrimni qilsam-da tortiq!

Vidodiy
Dunyoda nima gap? Ahvoling qandoq?

Voqif
Bu dunyo rostdan ham xuddi bir jumboq!
Qo‘rg‘onga kiritmam g‘am-rutubatni,
Ichaman dunyoda ming xil sharbatni...
Kunduzlar kutadi meni saroylar,
Tunlari sirdoshim yulduzlar, oylar.
Har gulning rangida bir jonli san’at,
Naqadar pokiza, sofdir tabiat.
Manim ham qalbimda qoya, tog‘, dara,
Ko‘nglim go‘zalikka bir darcha, qarang,
Dunyoni ko‘raman o‘shandan har on,
Bir bo‘lak suyakdir sevgisiz inson.

Vidodiy
(ta’kid ohangida)

Sevgi bir dengizdir — ko‘kdan ham teran,
Asta boq, tinadi undan ko‘z degan,
So‘ng burning tegadi to‘satdan toshga.

Voqif
Mayli...
Men yo‘ldoshman qanotli qushga,
Hali bu olamda haqim barqaror...
Zavq olsam har yangi chehra, kulgudan,
Ko‘zlarim yayrasin nurdan, yog‘dudan.
Umr bevafodir, bizni tark etar,
Yaxshi-yu yomon kun o‘tar-da ketar...

Vidodiy
Shoir! Hech aldanma siym-zar boriga,
Inonma bu dunyo e’tiboriga.
Yaxshilik qilgil-u savob yo‘lni tut,
Qiynalsang taqdirga tan ber, darding yut.
Seni bu dunyoda bo‘g‘sa jafo, g‘am,
Jannatda bo‘lasan oxirda, ukam.
Oxirat dunyosi kerakdir bizga...

Voqif
Bu gaplar — bir parda ko‘zlarimizga...
“Jahannam, jannat” deb siz ham kuydirmang,
Ustoz, bu gaplarning bari uydirma...

Vidodiy
Shoirliging tutdi chamamda jindak!
Bo‘lmasa Ollohga keltirmasding shak?

Voqif
Bilasizmi, ustoz, so‘zning to‘g‘risi,
Istamam bo‘lishni vijdon o‘g‘risi.
Ko‘pdir bu dunyoning go‘zalliklari,
Goho jilva qilgan nozli bir pari

Shahlo ko‘zlarini suzgani zamon,
Jannatga aylanar menga bu jahon.
Qo‘ying, nasiya gapni, shayxga buyursin,
U nasiya jannatga ular yugursin.
“Yo‘qdan dunyo qurish”
yolg‘on gap, yolg‘on,
Hamma jannatlarni yaratar inson...

Tukazbon

(kuladi)

Shunaqayding, Voqif, bolalikda ham,
Shartta gapirarding, neni o‘ylasang.

Vidodiy

Hay, mayli, ne topding saroylardan, ayt,
Senga zavq kelardi yorni ko‘rgan payt?

Voqif

Qorabog‘da serob go‘zal sanamlar,
Ko‘z tushsa kul bo‘lar dardlar, alamlar.
Yonimga yo‘lamas na balo, na g‘am,
Yolg‘iz go‘zallikdir makkam, madinam.

Vidodiy

Demak, go‘zallar deb unutding bizni,
Unutding bu ona beshigimizni?

Voqif

Saroyda bo‘lmasam tizga chiqar qon,
Elimiz holiga yig‘lar yer-osmon.
Xon mendan tortinib yuradi biroz,
Ketsam avjga chiqar qirg‘in-u os-os.
Gohida quturib, g‘azablansa xon,
Zanjiridan mahkam tortaman shu on.

(bir necha hamqishloqlar kirishadi)

Ahmad ota
Voqif, xush kelibsan, ob-bo shovvoz-e!

Voqif
Sog‘ bo‘ling, amaki, durustmi ishlar?

Ahmad ota
Netaylik, zulmatda umrimiz qishlar,
Kaftlarda bo‘lsayam turfa qadoqlar,
Suprada qolmadi hatto urvoq ham,
Qotgan-qutgan nonni suramayoq qo‘y.

Voqif
Bilaman bularni, bilaman, attang...

Ahmad ota
Balki yodingdadir, rahmatli otang
Beli bukilgandi ko‘tarib kigiz...

Voqif
Ranjimang, bu kunlar o‘tadi shaksiz,
Nurlanib kelmoqda bir yorqin zamon,
Faqat bardam bo‘ling, yashang, otaxon.

Qurbon ota
Mayli, sen ko‘zimiz ziyosi eding,
Hamma yig‘inlarning go‘yosi eding.
Dilbar she’r o‘qirding, kelinga, qizga,
Nahotki shuni ham ko‘p ko‘rding bizga?

Voqif
Yo‘q, Qurbon amaki, menga bu olam
Bu ellar, dalalar gulzor ko‘rinur.
Ko‘zim ko‘zingizdan uzoq bo‘lsayam,
Dillarni ulovchi bir yo‘l ko‘rinur.

Qurbon ota
Yashavor, bolajon, aslo bo‘lma kam!

Vidodiy
Tukazbon, sozlarni olib kel ildam.

*(**Tukazbon** ikki soz ko‘tarib kiradi. **Vidodiy** bittasini **Voqifga** uzatadi)*

Vidodiy
Buni tanidingmi?

Voqif
Ha, mening torim!

Vidodiy
(ta’kid ohangida)
Haliyam saqlayman, daydi shunqorim!
Uni unutmagin, shoiri tushkur,
Nozik qillarida ko‘kdan ham chuqur
Bir ma’no bordirki, yashartar bizni,
O‘sha shoir qilgan ikkalamizni.

Voqif
To‘g‘ri gap, og‘ajon, inoning, hamon,
Ko‘ngil bu sozlardan ayrilmas bir on.

Vidodiy
Kel, shu turnalarga bir she’r aytamiz.

*(Sozlar tilga kiradi, **Vidodiy** bilan **Voqif** mushoira boshlashadi)*

Vidodiy
Qator-qator bo‘lib, qalqib havoda
To‘sh uribsiz osmonga, turnalar!
O‘ksib-o‘ksib, g‘amgin-g‘amgin o‘tasiz,
Yo‘l oldingiz qay makonga turnalar?

Voqif
Nari ketmay, to‘xtang bir zum havoda,
Ikki og‘iz so‘zlay sizga, turnalar!
Qatorlashib qaysi eldan kelursiz,
Bir xabar bersangiz bizga, turnalar!

Vidodiy
Qarangiz bir dardmand cholning holiga,
Arzin yozsin qalam olib qo‘liga,
Vidodiy xastadan Bag‘dod eliga,
Siz yetkazing biror nishon, turnalar!

Voqif
Ko‘kdan kelar sizning yoqimli ovoz,
Yurak tozalanib bo‘lar sarafroz,
Voqifning ko‘ngli ham qilmoqda parvoz
Sizning yoningizda suza, turnalar.

Ahmad ota
Ko‘p rahmat,
kechangiz xayrli bo‘lsin.

Voqif
Siz ham omon bo‘ling,
xursand qildingiz.

*(Qishloq ahli **Voqif** bilan xayrlashib, chiqadilar, **Voqif** oqshom nazokatiga shoirona boqib)*

Oh, bu oqshom ko‘p go‘zaldir, undagi ma’noni ko‘r,
Ko‘kdagi oppoq bulutlar bir-biri-la quvlashur.
Koinotning pokligiga quloq osib uzoqdan
Kelin kabi xo‘p bezanib, Oy ham chiqdi yotoqdan.
Muncha porloq, muncha harir mohitobning oq yuzi?!
Eng muqaddas orzularga bizni undar ko‘k qizi.

Vidodiy
Xayol shirin ne’matidir bu achchiq koinotning .

Voqif
Xayol tug‘ma bolasidir, ustoz, ona hayotning,
Uning ko‘zi ko‘r bo‘lsa-da, sevib kelar bu ona,
Sho‘rlik, badbaxt bolasiga doim bo‘lar parvona.

Tukazbon
Voqif!
Gapirmaysan hech Alibekdan,
Xiyla zamon bo‘ldi, ko‘rmayman, qalay?

Voqif
Bo‘y qo‘yib yigitcha bo‘ldi, harqalay,
Shu kunlarda to‘yin... Men keldim sizga,
“Bosh bo‘lishsin, — dedi u, — to‘yimizga”.

Vidodiy
Hali Alibekning to‘yi degin-a?

Voqif
Ha, to‘yi bo‘lyapti!

Vidodiy
Ketdik, Tukazbon,
O‘g‘il bizniki-ku, otlan, Tukazbon!

Tukazbon
Siz charchab qolasiz...

Vidodiy
Nega?
*(**Voqifni** ko‘rsatib)*
Bu yoshmi, yolg‘on?!
“Qanchalar qartaymasin bu xasta Vidodiy,
Voqif kabi yuz o‘g‘lonning beradi dodin”.

Siz-ku, kimligimni yaxshi bilasiz.

Tukazbon
Yaxshi, qo‘yib bersa xo‘p maqtanasiz...

Voqif
Hech qo‘rqmang,
xolajon, mana, bahordir,
Qorabog‘ rostdan ham bir lolazordir:
Yana yonoqlarga qizillik inar,
Har toshning tagida bir to‘y qilinar.
Bir yonda tor sasi, bir yonda kulgu,
Qoyalar to‘shida sakraydi ohu.
Oqar to‘lqin otib, hayqirib sho‘x soy,
Sajdaga keladi tunda yulduz, Oy.
Yuring, bizning joylar yoqadi sizga.

Vidodiy
Yur, xina qo‘yamiz qo‘llarimizga!
Bola biznikidir, muborak bo‘lsin,
Kelinning yo‘lida gul-chechak unsin!

*(xursand bo‘lib **Voqif**ni bag‘rilariga bosishadi)*

Parda

Ikkinchi ko‘rinish

*(Shusha qal’asi. Xon saroyi. **Voqif**ning uyi. To‘y majlisi. Raqs bo‘layotganda **Ibrohimxon** o‘z a’yonlari bilan kirib keladi. Hamma turib xonga ta’zim qiladi.)*

Ibrohimxon
(xonandalarga)
O‘zga bir zavqi bor bugungi to‘yni,
Qani, chaling endi dilrabo kuyni!
(musiqa chalinadi)

Xonanda

(qo'shiq aytadi)

Har chaman,
har bog'chaning bir bulbuli — shaydosi bor,
Har tirik qalbning, azizim, ishq degan savdosi bor.

Qalbi ham, ruxsori ham nozik ado jonon sasi,
Goh kular, goh yig'latar —
har damni o'z ma'nosi bor.

Jon olar har nag'maning ma'nosi yolg'iz ishq erur,
Ko'z ko'rib, qo'l tutmagan yulduzli bir dunyosi bor.

Sizga aytsam, do'stlarim,
Voqif yurar Majnun bo'lib,
She'r-u san'at deb atalmish bir nozanin Laylosi bor.

Ibrohimxon

Go'zal kuy, Voqifni chaqiring, ko'ray...
O'ynasin to'yida kuyov — Alibek!

*(**Alibek** o'ynaydi, **Voqif** kirib keladi)*

Ibrohimxon

Xayrli ishingiz, vazir, muborak!
Baxtli, farog'atli bo'lsin Alibek!
Bizni unutmasin ammo hech qachon.

Voqif

Ko'ramiz, teskari yurmasa zamon...

Ibrohimxon

Yana shikoyatmi?
Bo'lgil xotirjam,
Sog' bo'lsam, ishratda yashaysan sen ham!

(Qiziqchi kiradi)

Qiziqchi
Kelinningiz bir malak,
Hamma deyur: "Muborak!"
Biroq mening bo'sh boshim,
Sizga deyar: - Qardoshim:
Yolg'iz qimor-u otga,
Go'zal qiz — parizodga,
Asta-sekin yondoshing,
Asta-seking yondoshing.

(Kulgi. Tashqarida miltiq otiladi. "Urra" tovushi o'rlaydi, kelinni keltiradilar)

Yanga
Bo'ldi, mana, qiz — kelin,
Qo'l-oyog'i tez kelin.
Yetti o'g'il tilagim,
Bittagina qiz, kelin.

Voqif
Ey qizim, yuzingdan ko'tar pardani,
Qo'y, ochiq ko'rinsin oy yuzing, qani!
Yuz ochib yashagan bizning onalar,
Pardaning hammasi kafan sanalar.
Parda go'zallarga ne uchun kerak,
Jon tutqun bo'lganda kularmu yurak?

(Hammada hayrat, hayajon, kelinni bir xonaga olib ketishadi. Shu yerda yelkasida qo'zi, ***Eldor*** *kirib keladi.)*

Voqif
Oh, do'stim, xush kelding, ayni muddao,
Tog' havosin tuydim, qani, marhabo!
Siz bilan doimo aqlim va hushim,
El ichra ko'raman erkinlik qushin.

Eldor
Muhtaram shoirga salom, bor bo‘lsin,
Umri ham dunyodek poyidor bo‘lsin!

Ibrohimxon
(Atrofdagilarga)
Nazarga ilmaydi bu daydi bizni,
Totib ko‘rmabdi-da, qilichimizni...

Shayx
(Xonning qulog‘iga)
Ko‘zlariga qarang, ko‘zlari qonli,
Shu-da, rag‘batchisi har g‘alayonni!

Ibrohimxon
Vazir, yetim-yesir yig‘inimi bu?

Voqif
Bu gapni, xon,
Sizdan hech kutmovdim-ku.

Ibrohimxon
Xo‘sh, nega kutmaysan,
nohaqmanmi, yo?
O‘rnini bilsin-da, cho‘pon-u gado...

Voqif
Aziz mehmonimdur, do‘stimdir Eldor.

Ibrohimxon
Xonning huzurida unga nima bor?

Voqif
Bu mening uyimdir, mehmonsiz Siz ham.
Mehmon hamma yerda aziz,
muhtaram.

Ibrohimxon
Mehmonmish,
mehmon-a, mehmonga qara,
Ko‘chadan kim o‘tsa boshga chiqarar.

Voqif
Uning libosidan jirkanmang, xonim,
Qishloqi bo‘lsayam pokdir vijdoni.
Tilidan tushmaydi go‘zal naqllar:
Eng buyuk yuraklar, yetuk aqllar
Xalqning orasida yetishar, biling,
Nomusi,
vijdoni tozadir elning!

Ibrohimxon
To‘g‘risi, charchab yo zerikmading san,
Doim oyoq tirab xalq, xalq demakdan.

Eldor
(Voqifga)
Do‘stim, talashma, qo‘y, ketaman.

Voqif
To‘xta,
boshqa bir xonumon qonga omuxta...

Ibrohimxon
Tezagini tersin, borib u yana.

Eldor
Buyruq sizdan bo‘lar, muhtaram og‘a,
Biroq bo‘lmasaydi qashshoq kentliklar,
Quturtirmas edi sizni siym-u zar.

*(**Eldor** to‘yni tashlab chiqadi, uni tutmoqchi bo‘ladilar, odamlar orasida sarosimalik boshlanadi)*

Ibrohimxon
Tez tuting, boy bermang g‘animat onni,
Eldor ko‘rib qo‘ysin bu tosh zindonni.
*(**Voqifga** yuzlanib)*
To‘g‘risi, bularni quturtirding san,
Balki o‘zingdirsan unga til bergan?

Voqif
Afsus, yanglishdingiz, unga til bergan,
Ko‘ziga nur bergan, toza dil bergan
Shu qishloq ahlidir, balli qishloq, xon,
Ba’zan tangriyagayam ishonmas inson...

Ibrohimxon
(Shiddat bilan chiqar ekan)
Yaxshi, gaplasharmiz...

*(To‘y ahli tarqay boshlaydi, u yoq, bu yoqqa yuradi, **Vidodiy** hayratda)*

Voqif
Shu-da, haqi salom, tuz haqi shu-da,
Bu og‘ir dard dilni ezadi juda.
Xonni ilon derlar, saroydir ini,
Zaharmish saroyning hatto epkini.

Vidodiy
Voqif, javob bergil, ertaga ketay,
O‘z g‘arib kulbamni ziyorat etay.
Undadir dunyoning zavqi, lazzati,
Sen ham ot yelkangdan bunday minnatni.
Qishloqqa qaytgil!

Voqif
Yo‘q, yo‘q, qaytmam,
Ish bunday tus oldi,
maydondan ketmam.

Vidodiy
Tashla o‘jarlikni, menga quloq os!

Voqif
Bir boshga bir o‘lim, o‘lay mardga xos.

Vidodiy
Sen o‘z bilganingdan qolmaysan, ukam,
Bas, yolg‘iz qoldirib ketmayman men ham.

Alibek
(Kiradi)
Ota, qamadilar sho‘rlik Eldorni!

Voqif
(Ma’noli qarab)
Inson parchalaydi zindonni, dorni!
Kishansiz, zindonsiz kunlar kelajak,
Bizga yupanch berar buyuk kelajak!..

Alibek
Xo‘sh, Eldor netadi?

Voqif
Hech narsa, zinhor —
Qayg‘urma, qutulib ketadi,
men bor.

*(**Voqif** qo‘lini o‘g‘lining kiftiga tashlaydi)*

O‘g‘lim, qutlug‘ to‘ying muborak bo‘lsin,
Dunyoda rohat ko‘r, iqboling kulsin.
Manim ham yuragim hali navqiron,
Umr o‘ta berar, shunaqa zamon.

Vidodiy
Aqlli bola u, Xudo saqlasin.

Voqif
Ko‘nglimda dunyoning talay siri bor,
Oh, uni his etgan qanday baxtiyor.
Daryoda charx urgan g‘ozlar, oqqular,
Cho‘llarning go‘zali, ey, siz, ohular,
Baxtim bormi, ayting?..
(***Qiziqchi*** *eshikdan burnini ko‘rsatadi)*

Qiziqchi
Ko‘p kurashib, ko‘p yonmagin,
Go‘dak kabi ishonmagin.
Bu dunyoning safosiga,
Saroylarning vafosiga.
(Ketadi)

Voqif
Bu dono qiziqchi haqlidir beshak,
Negadir tinchimas siynamda yurak.
*(**Xiromon** kiradi)*

Xiromon
Dadasi, ne bo‘ldi, ranjib ketdi xon?

Voqif
O‘ziyam beodob, qo‘pol-da yomon.
(Chiqadi)

Xiromon
Elning og‘asiydi avvalgi erim,
Bor edi o‘z uyim, o‘z bog‘im, yerim.
Navkarlar eshikda tayyor turardi,
Uyimda har kuni yig‘in bo‘lardi...
Buniyam “kattakon vazir” dedilar,
Sira o‘z holimga qo‘ymas edilar.
Inondim, dedimki o‘ylab netaman,
Shuni yo‘ldosh bilib, birga ketaman.

Xonga qaram ekan buyam, qarangki,
Goh loyqa suv kabi bo‘zarar rangi.
Goho g‘am to‘kilar qosh-qovog‘idan,
Ammo xush odobin men adog‘iman.
Shoir-da, to‘g‘riso‘z, niyati toza,
Shirin nafasligi elda ovoza...
Bu gaplar ko‘nglimni etolmaydi yoz...
*(**Voqif** kiradi)*

Voqif
O‘ylanib qolibsan, yana, sarvinoz?
Tinchlikmi? Qo‘nibdi ey, nozli nigor,
Oydek jamolingga tashvishdan g‘ubor?!

Xiromon
Nega, hech g‘amim yo‘q,
Xudoga shukr!
Har yonda ko‘raman yaxshilik, huzur...

Voqif
Yo‘q, to‘xta...sasingda ajib titrash bor,
Qo‘y, mendan yashirma, darding qil oshkor.

Xiromon
Hech gap yo‘q... negadir dil jindek xira.

Voqif
Bu gaping bo‘lmadi, aldama sira!
G‘uncha lablaringga yarashmas yolg‘on.

Xiromon
Yana nima desin, baxtsiz Xiromon?

Voqif
Mana...shundan gapir, o‘zingni, qani,
Qanday tiling bordi baxtsiz degani?

Xiromon
Deydilarki, seni...

Voqif
Yangi gapmi, xo‘sh?..

Xiromon
To‘g‘risi, bilmayman...

Voqif
Gapir!

Xiromon
Ko‘p noxush...
Seni vazirlikdan haydar emish xon!

Voqif
Eh-ha, bu gapmidi?

Xiromon
Shu gap.

Voqif
Xiromon!
Jonginam, nimani o‘ylaysan, qara!
Men bunda — tutqun qush, ko‘ksim ming yara.
Na sanga xush yoqqan bu saroy to‘ri.
Na u vujudidan qon tomgan bo‘ri
Bu tarlon ko‘nglimni ovuta bilmas,
Darding shunday bo‘lsa, ishing chakkimas.

Xiromon
Gar seni, gar seni...

Voqif
Xo‘sh?..Haydasin xon...

Xiromon
Gadoydek boramiz qaysi yurt tomon?

Voqif
Bizga qahat bo‘lmas axir parcha non,
Qo‘rqma, baxtsizman, deb qayg‘urma aslo —
Koshikiydi ko‘rmasam bu saroyni, o....
Yanglishdim, azizam, aldanib qoldim,
Boshqaydi aslida mening ilk ontim.

Xiromon
Shunday shirin-shirin xayollaring bor.
(Boshqa xonaga o‘tadi)

Voqif
Sarrof ko‘zi kabi o‘tkirdir ko‘zim,
O‘zimning ishimdan hayronman o‘zim.
Ko‘nglimni to‘ldirmas sira, Xiromon,
Boshqacha o‘stirgan uni bu zamon.
Ko‘rinar bu xotin shuhrat, molga o‘ch!
Eh, shuhrat, eh, mansab bo‘lmasayding hech.

P a r d a

IKKINCHI PARDA

Uchinchi ko‘rinish

Xon saroyi. **Ibrohimxon** *ichkarida — o‘z yotog‘ida dam olmoqda.*

Qiziqchi
Azizim, Ibrohimxon,
Yoqang, mana, bitga kon!
Oyog‘ingni xo‘p uzat,
Maza qilib xurrak ot!
Qo‘shin tortibdi Qojar,
Askarlar burg‘u chalar,
Sen xobingni buzma, qot,
Yaxshi uxla, yaxshi yot!..
Oqa bersin el qoni,
Boshingga tort ko‘rpani.
Shohlar bizni bo‘g‘sa ham,
Sigir qilib sog‘sa ham,
Sen xobingni buzma, qot,
Yaxshi uxla, yaxshi yot!..

Ibrohimxon
(Uyqudan tashvishli turadi)
U yondan Turkiya, bu yondan Eron,
Bu yoqdan Rusiya yuborar farmon...
Tuproqqa qorsalar shuhrat, molimni,
Qolmadi o‘ylovchi manim holimni.
Ko‘ngil uzolmayman toj-u taxtimdan,
Kentlar ham to‘lg‘anar, yonar baxtimdan...
Haddidan oshmoqda o‘g‘ri, qochoqlar,

Toqqa in qurmoqda hamma olchoqlar,
Netsam?..
(A'yonlar, amaldorlar, shayxlar kirishadi)

Shayx
Xonim, ko'rinasiz ne uchun xomush?

Ibrohimxon
Yo shayx, ta'birin ayt, ne bo'ldi bu tush?!
Xobimda dahshatli hodisa ko'rdim.

Shayx
Lutfan aytib bering, nima ko'rdingiz?..

Ibrohimxon
Uloq maydonimiz bo'lganmish dengiz,
Shunaqa dengizki, bus — butun qonmish,
Uning to'rt tarafi qora tumanmish.

Shayx
So'ngra?

Ibrohimxon
Suzar emish unda kemalar,
Kemalar halqasi siqilib kelar,
To'rt yondan o'rashdi meni bir zamon.

Shayx
Keyin-chi?

Ibrohimxon
Bittasi yondashib keldi-yu shu on,
Ustimga zanjirli arg'amchi otdi.
Arg'amchisi qursin, bo'g'zimga botdi.
Tortqilab ketishdi, bir vaqt qarasam,
Qayiqda turardi qochqin Eldor ham.

Shayx
O‘sha muttahammi?

Ibrohimxon
Ha, xuddi o‘zi —
g‘azabdan o‘t bo‘lib yonardi ko‘zi.
U mani dengizga bosib, dedi:
— Xon,
To‘yguncha ich, bular o‘zing to‘kkan qon!

Shayx
(Tilyog‘lamalik qilib)
Ha...ha...g‘am yemang, hech, odil hukmdor!
Sizni nima qilolsin u qochqin Eldor?
Tushingiz — dahshatli, biroq bexatar,
Dengiz yorug‘likdir, qon — qovushish, ha...

Qiziqchi
Shayxning kalomi xushdir,
Ma’nim fikrimcha bo‘shdir.
(Qochadi)

Voqif
(Kiradi, Xonga maktubni uzatadi)
Bu Qojarga yozgan javobim, oling!
Elchilar kutmoqda, tez yo‘lga soling.

Ibrohimxon
Vazir!

Voqif
Eshitaman!

Ibrohimxon
Buzildi zamon,
Ko‘nglimga sig‘maydi butun xonumon.

Voqif
Dedimki, men sizga takror va takror,
Bu og‘ir zulmning qaytmog‘i ham bor.
Bu dunyo bo‘sh emas, bordir qonuni,
Elni mensimagan axir bir kuni
Albatta, pand yeydi...

Ibrohimxon
Pand yeydi...mana...
Xayrli so‘z chiqmas tilingdan yana.

Voqif
*(**Shayxga** ishora qilib)*
Chunki so‘zlarimda to‘g‘rilik bordir,
Yolg‘onchi — nayrangboz,
o‘g‘ri, makkordir.
G‘aflatda qo‘ymasin sizni bu tushlar,
Hujumga shay turar Muhammad Qojar.

Ibrohimxon
*(**Voqif** yozgan javobni o‘qib)*
G‘oyat soz, har so‘zing o‘tkir bir xanjar,
Qojarning bag‘rini shaksiz parchalar.
Demak, qudratimga bu xat kafildir?

Voqif
Zulmni bas qiling, elim — bahodir.
Hech narsa teng kelmas asli hayotga,
Hayotning qadrini tushirmang aslo.
Bu dunyo bir kuni qo‘yar uyatga,
O‘ziga chap berib yurganlarni, ha!

Shayx
(Kinoya bilan)
Balli, dars olmoqda bizning buyuk xon,
Buning hakimnamo nutqidan hamon.

Voqif
Yaxshisi, til chaynab, ko‘p urinma, san,
Aql o‘rganmayman chirik to‘ngakdan.

Ibrohimxon
Vazir!
Qo‘y, bu gapni, yo‘q hozir fursat,
Vaziyat ko‘p og‘ir,
menga yo‘l ko‘rsat.

Voqif
Elning jonin oldi og‘ir o‘lponlar,
Ushbu qonunlardan kechmasangiz gar,
Hatto o‘z bolangiz sizga yot bo‘lar,
Kulingiz bir kuni ko‘kka sovrilar.

Shayx
(Yana tilyog‘lamalik bilan)
Yashavor, yashavor, xo‘p sevar sizni,
Tarqating, ulashing xazinangizni,
Ehtimol to‘yar bu ochlarning ko‘zi...

Voqif
Ichki ahvolimiz shunaqa o‘zi,
Xalq rozi bo‘lmasa bir hukmdordan,
Qochib qutulmagay u zinhor dordan.

Ibrohimxon
Durust,
soliqlarni oz-oz qisqartsak,
ishlar yurisharmi?

Voqif
Bu yetmas beshak!
Manimcha, bugundan e’tiboran, xon,
Vijdon erkinligin olsin har inson.

Ibrohimxon
U nedir?

Voqif
Ko‘rdek yashamasin har qanday odam,
Yorsin jaholatni, yorishsin olam,
Ochilsin har yerda maktab, madrasa,
Bolalar o‘qisin, yayrasin rosa.

Tog‘larning bag‘riga qurilsin yo‘llar,
Yo‘l bo‘ylab mavj ursin anvoyi gullar.
Nag‘malar taralsin yurtimda doim,
Keksaygan chog‘imda ko‘ray, iloyim.

Shayx
Bundan, xo‘sh, qanday naf?
Sen ochib berasan xalq ko‘zin bizga,
So‘ng quloq solmaydi u amrimizga.

Ibrohimxon
Shayx to‘g‘ri gapirdi,
Ko‘r bo‘lsin ular,
Ko‘zi ochilganlar haq talab qilar.

Voqif
Siz ko‘r saqlagan xalq qo‘zg‘olgani on,
Bo‘g‘zingizga qattiq yopishadi, xon...

*(**Xon Vofiq**ning qo‘lidag hassani ko‘rib qoladi)*

Ibrohimxon
Vazir, qo‘lingdagi qanaqa aso?..

Voqif
Rusiya podshohi, mashhur zulmkor —
Yekatrinadan sovg‘ayi yodgor!

Ibrohimxon
Hay...
Ayt-chi, sen qayda-yu, Rusiya qayda?
Yoki kofirlarga tegarmi foydang?

Voqif
(Hassani ko'rsatib)
Buni yasagan zot- biror san'atkor,
Mening san'atkorga zo'r hurmatim bor.

Ibrohimxon
Yekatrinami, senga yuborgan?

Voqif
Undan jirkanaman, inoning, bor gap!
Uniyam bo'g'adi bir kun isyonlar,
Ozodlik yo'lida to'kilgan qonlar...

Shayx
Ruslarmi, ruslarmi?
O'sha mal'unlar?

Voqif
Din bo'lak, til ayri bo'lsayam ular,
Bizlardan anchayin ilg'or ketmishlar,
E'zozlar, qadrlar she'rni, san'atni.

Shayx
*(**Xonni** gij-gijlab)*
Muqaddas dinni bu xo'rladi, evoh,
Bu dinsizni Tangrim, o'zing et ogoh.

O v o z l a r
Turqini ko'r!
Aldangan!
Mal'un, vijdonsiz!

Shayx
Sotilgan...

Ovozlar
Burdi yo‘q...

Shayx
Kofir, iymonsiz!

Voqif
(Jahl bilan)
To‘xtang, men emasman Vatan xoini,
Ko‘rdim nabiylarning faqir, boyini,
Ming yilkim bosh egdik xonga, sultonga,
Ko‘r kabi tikildik o‘shal tomonga.

Bir kitob ochmadik, ko‘rmadik zinhor,
Kitobsiz umrning ne ma’nosi bor?
Bo‘g‘ildi har doim bizning ixtiyor,
Ko‘rsin avlodimiz dunyoda ne bor.

Ibrohimxon
Manim shuhratimchi?
Tangrichi? Xo‘sh, din?

Voqif
Men — toza qalblarning oshig‘i, biling.

Ibrohimxon
Demak, sotilgansan u shaytonlarga!

Voqif
Tarix javob berar bu bo‘htonlarga....

Ibrohimxon
Bir vaqtlar maqtarding menga Eldorni,
Qochqinlar tutganmish tog‘, dara, g‘orni.

Endi-chi, o‘rislar tarafdorisan,
Sen elning do‘stisan, elning yorisan.

Voqif
Dunyo yaralmagan misli oniy sas,
Quyosh zulmat ichra bir umr qolmas.

(Chiqadi. **Shayx Xonga**)

Xonim, bundan oling o‘zgacha qasos!

Ibrohimxon
So‘zlang, qanday qilib?

Shayx
Xiromon, ko‘p mos!
Bosing bag‘ringizga u sarvinozni,
Ha, sinsin Voqifning kuy, ilhom sozi.
*(**Ilyos** kiradi)*

Ibrohimxon
Ha, Ilyos, keldingmi?
Qanday gaplar bor?

Ilyos
Sirini bermoqda u g‘ofil Eldor,
Joyni o‘zgartirar o‘ziyam betin,
Elni yo‘ldan urar kun sayin lekin.
Ko‘payib ketibdi rosa qochoqlar,
Tor kelib qolibdi o‘rmonlar, tog‘lar.

Ibrohimxon
O‘ldirmay keldingmi, xullasi kalom?

Ilyos
To‘g‘risi, dahshatli Eldor degan nom...
Qishloqda hurmati judayam baland,

Maqol bor
"Qochqinni el saqlar" — degan,
Bobolar davridan ha, shunday ekan.

Ibrohimxon
Uning uyasiga yaqin kentlarni
Yondirsak-chi agar?...

Ilyos
Yo'q bo'lar, abas!
(Ko'kragiga mushtlab)
Qulingiz bu ishga kirishdimi, bas.

Ibrohimxon
Juda soz, rejangni gapir, eshitay?!

Ilyos
Ularga qo'shilgum yaqinda atay.

Ibrohimxon
Qanday? Nima deding?

Ilyos
Shu — to'g'ri yo'li,
Qochqinni mahv etar xiyonat qo'li.
Deymanki:
"Meni ham osmoqchiydi xon,
Dor tagidan qochib, saqlab qoldim jon".

Ishonar...
U bilan birga qolaman,
Ko'ngildagi o'chni so'ngra bilib olaman.

Ibrohimxon
Qani, qani, qanday qilib?

Ilyos
Buyog‘i oson.
Pinjiga kiraman avval begumon,
Ishonchin qozonsam topib bir yo‘lin,
So‘ng bo‘lib olaman uning o‘ng qo‘li.
Ko‘nglini topaman, so‘ngra bir kuni
Kechasida uyquda yotganda uni
Bir o‘q-la boplayman, qilaman gumdon,
So‘ng qochib kelaman, xullasi kalom.

Ibrohimxon
(Kula-kula)
Ofarin, ofarin, Ilyos pahlavon!
So‘ngra o‘n qishloqni olasan, inon!
Ha, hokim bo‘lasan, quloq sol gapga,
Otingni yeldirib hey, o‘ngga, chapga...
Oqib kelaberar tekin boyliklar,
Qashshoqlikdan sira ko‘rmaysan asar.

Ilyos
Kam bo‘lmang, ulug‘ xon!

Ibrohimxon
Mayli, endi ket,
Bergan shu va’dangga borib amal et.

Ilyos
Albatta, albatta, tashvishlanmang, xon,
To‘rimdan qutulmas Eldor hech qachon!
(Ketadi)

Ibrohimxon
*(**Shayxga** qarab)*
Sen-chi, Xiromonga ishlat bir tadbir,
Voqifga bo‘lsin u kattakon ta’zir.
(Chiqadi)

Shayx

(Quvonib)

Xursand bo‘lgin, shayx Ali,
Baxtingga kun tug‘adi...
Voqifni solding to‘rga,
Jilovin olding qo‘lga.

Endi xonni ko‘ndirsang,
Vazirlikni undirsang,
Na darding bor, na g‘aming,
Saroy bo‘lar maskaning.

Qizlar ko‘zin suzalar,
Hamma ishing tuzalar...
Xursand bo‘lgin, shayx Ali,
Baxtingga kun tug‘adi...

(O‘ynab o‘ynab keta boshlaydi)

Qiziqchi

*(**Shayxning** ortidan)*

Xursand bo‘lgin, shayx Ali,
Baxtingga kun tug‘adi...

Shayx

Tuf, senga!

(Ketadi)

Qiziqchi

*(**Shayxning** orqasidan)*

Qorni katta, boshi xum,
Qo‘li egri, dili shum.

*(Qiziqchi g‘amgin bir kayfiyatda **Voqif**ni eslaydi)*

Nima ko‘rding,
ayt, jon Voqif,
Shafqatsizdir zamon, Voqif!

Men dedim-ku buncha yonma,
go‘dak misolsan, ishonma,
Bu dunyoning safosiga,
Saroylarning vafosiga...

Parda

To‘rtinchi ko‘rinish

Saroy, ***Voqif****ning uyi,* ***Gulnor*** *dastalangan binafsha ko‘tarib, qizlar davrasida kiradi*

Gulnor
Bizning qalin o‘rmonlar,
Gunafsha, gulga konlar!
Ko‘zimdan yo‘qolsa gar,
Yo ko‘rinmay qolsa gar,
O‘rmonimni qo‘msayman,
Qoya, soydan o‘tgayman.

Ular muncha xushhavo,
Darasi tubsizdir, o...
Eh, yashashning toti bor,
Go‘zal, shirin oti bor.
Har o‘ngir-u har qirni,
Qushlar bog‘lar ko‘ngilni...
Esma, shamol, turgil tek,
Ovga ketgan Alibek.
U manim sevgilimdir,
Shirinsuxan tilimdir.
Miltig‘ini yel egsa,
Oyog‘iga tosh tegsa,
Yuragimga o‘q botar,
Otda u yelib o‘tar.
Uqa taqqan choponi,
Jilmayib turgan oni,

Ot belida qalqishi,
Tarlon misol boqishi,
Olis joylardan hatto
Otishlari bexato.
Ko‘chib yurar tillarda,
Doston bo‘lib ellarda.
*(**Gulnorning** onasi **Amina** kiradi)*

Gulnor
Oh, oyi, oyijon!
(Quchoqlashib o‘pishadilar)

Amina
Sengadir jonim qurbon,
Mening shirin bolam, aqlli qizim,
Suruvdan ajragan qo‘zim, yolg‘izim.
Yo‘lingga tikilib ko‘zlarim toldi,
Hasrating ixtiyor, sabrimni oldi.
Odam ham onasini unutarmi, a?

Gulnor
Oyi, Alibekning vaqti bo‘lmasa!
Shu hafta ichida bormoqchi edik,
Sizni sog‘ingandik, ko‘rmoqchi edik.

Amina
Alibek yaxshimi? Dimog‘i chog‘mi?

Gulnor
Shukr, ha, yaxshilar,
Sher kabi sog‘lar.
Ovga ketgandilar, kelib qolarlar.

Amina
Xudoga ming shukr, bo‘lsin sog‘-omon,
Bundan uzilmasin baxtning oyog‘i.

Xudo ko‘rsatmasin kulfat-u dog‘ni,
Qani, qizim, ayt-chi, o‘zing qalaysan?

Gulnor
O‘zimmi?
Yaxshiman, nega so‘raysiz?
Alibek qush misol asraydi mani,
Qishloqdan qidirib topdim, —
der, — sani.
Ko‘zingda porlaydi qaynoq buloqlar,
Yurak his etganin xotira saqlar.

Amina
Hazil deb o‘ylama, shoirning o‘g‘li,
Ko‘ksi gapga to‘la, yuragi cho‘g‘li.

Gulnor
To‘g‘ri gapirdingiz, shunaqa, oyi,
Goh shoir bo‘lishga tug‘ilar mayli.
Bilsangiz ko‘ksimda qanchalar so‘z bor?

Amina
Yo‘q, bolam, tinch o‘tir, ming egri ko‘z bor.
Xavotir olaman, ko‘z tegar senga!

*(**Voqif** bilan **Vidodiy** kiradilar)*

Voqif
Xush ko‘rdik, xush ko‘rdik, Amina singil!

Amina
Tangri ko‘rsatmasin tashvish-g‘am hech bir!

Voqif
*(**Gulnorni** bag‘riga bosib)*
Bilmaysiz, ko‘p shayton bola-da, Gulnor,
Manim ko‘p aqlli, zo‘r kelinim bor.

Vidodiy
Ha, Gulnor aqlli, ajoyib qiz-a,
Asli, onamizning suti pokiza.

Voqif
O‘tiring, Alibek keladi hozir.

*(**Voqif** va **Vidodiy** chap tomondagi xonaga kirishadi)*

Gulnor
Ko‘rdingiz, oyijon,
Qaynotam qanchalik menga mehribon.
Shunaqa ota u...

Amina
Yaxshi-da, bolam!

*(Miltiq va bir nechta qirg‘ovul ko‘tarib **Alibek** kiradi)*

Alibek
Amina xola!

*(**Amina** bilan **Alibek** ko‘rishadilar)*

Mayli, xola, ko‘raylik, ha,
Kuzataylik qachongacha
bizdan bo‘lak, uzoqda siz,
Turarkansiz yakka yolg‘iz?

Amina
Yo‘g‘-ye, sizdan bo‘lak? Nega?

Alibek
Quloq bering, xola, menga,
Qishloqda-yu, yolg‘izsiz, rost,
Ko‘rganingiz zahmat xolos.
Ko‘chib keling endi bizga,
Boshliq bo‘ling uyimizga.

Gulnor
Oyi, qurbon bo‘lay Sizga,
Ko‘chib keling uyimizga?

Amina
Yaxshi kunlar ko‘ringlar ko‘p,
Davri-davron suringlar xo‘p,
Boshingizdan bir tuk hatto,
Bo‘lmasin hech, bolam, xato.

Gulnor
Ko‘chasizmi?

Amina
Yo‘q, qizginam!
Davri-davron rosa surdim,
Qizimning ham to‘yin ko‘rdim.
Endi dunyo — menga bir sas,
Kunim o‘tib tursa, shu bas.
Aytsam senga to‘g‘ri so‘zim,
Xo‘p o‘rgangan ko‘nglim, ko‘zim
Otameros yerimizga,
Qishloq yaxshi, bolam, bizga.

Alibek
Gulnor, qirg‘ovulni tozalab darrov,
Xolamga yaxshilab damlagin palov.

Amina
(Xurjundan bir juft paypoq oladi)
Qish qattiq kelarmish, o‘g‘lim, bu yili..
Shu ikki paypoqni senga atadim.
Bilasan, qishloqning bor-yo‘g‘i shular.

Alibek
Rahmat, omon bo‘ling, Amina xola!

Amina
Yaxshi kunlarga kiy,
mehribon bolam!

Alibek
Yuring, uyga kirib dam oling, ona.

(Har uchchalasi o'ngdagi xonaga kirishadi. ***Voqif*** *ko'rinadi)*

Voqif
Alibek, hov Ali!

*(**Alibek** chiqadi)*

Alibek
Labbay, otajon?!

Voqif
Cho'lda nima gap?

Alibek
Ko'rdim, Eldorni,
Yoniga to'plab u minglab shunqorni,
Tog'larni tutibdi Go'ro'g'li kabi,
Meni ko'rar ko'rmas, yayradi qalbi.
Otangga salom ayt, men borman, dedi,
Uning ko'magidan xushholman dedi.
Yaxshilik bo'ynimda qarz bo'lib qolmas.

Voqif
(Parishon bir vaziyatga tushadi)
Sho'rlikni quvlashdi cho'l-biyobonga,
Dunyo nazarimda o'xshar zindonga.
(O'g'liga)
Sen, inson farzandin toleyiga boq!
Unga musibatdir yerda yashamoq.
Lekin ajralmaydi dunyodan yurak,

Yoqimli hid sochgan har gul, har chechak
Ko‘k sari intilgan —bu qadim tog‘lar,
Tog‘lar ko‘ksidagi zilol buloqlar,
Har yashil manzara, har yashil sunbul,
Gullarning boshida charx urgan bulbul,
Elimiz elati, elimiz rangi,
Qo‘ychivon nayining ajib ohangi
Yashashga undaydi hamma vaqt bizni,
Yaratar yashatar har nag‘mamizni...
O‘g‘lim, chuqur o‘ylab, his etgan sari,
Shafqatsiz zulmning dor, zanjirlarin
Tagida bir yorqin istiqbol unar,
Gumrohdir tolega ishonmaganlar...

Vidodiy
Yana tilga kirdi qalbingdagi soz...
Yuringlar, tog‘ bag‘rin kezamiz biroz.

*(**Voqif**, **Vidodiy** va **Alibek** chiqadilar. **Xiromon** kiradi)*

Xiromon
Tunda ham o‘y, kunduz ham o‘y,
Na tom solar, na qurar uy.
Ana yozar, mana yozar,
Yozish bilan kun o‘tkazar.
Men sho‘rlikka qaramaydi,
Ko‘nglimni hech so‘ramaydi.
Eh...hammasin uyi yonsin,
Ko‘zlariga o‘t qalansin.
Bo‘lar edi shirin so‘zi
O‘par edi yuzim- ko‘zim.
Shu ham endi esdan chiqdi,
Meni tirik o‘tga tiqdi.
Kunduz yelar, oqshom yelar,
Na ko‘ziga uyqu kelar,
Xayol surar og‘ir-og‘ir,

Qovog‘idan qor ham yog‘ur.
Kuni o‘tar yona-yona,
Yo bo‘ldimi u devona?..
Bilolmaysan na dardi bor,
Umrim o‘tar shunday bekor.

*(**Kampir** kiradi)*

Kampir
Muncha shirin kelinchaksan,
Qo‘l tegmagan bir chechaksan.
Ko‘zlar yonar yonog‘ingdan,
Sening bu gul dudog‘ingdan...
Muncha shirin o‘ying sening,
Sarvga o‘xshar bo‘ying sening,
Sen xonlarning nasibasi.

Xiromon
Ayt-chi, ona, nima gap bor,
Meni maqtab qolding takror?..

Kampir
Qalam kabi qoshlaring bor,
Quloch-quloch sochlaring bor.
Og‘zing xuddi xandonpista,
Har bir ishga men-da usta.

Xiromon
Voy, jinnimi kampir o‘zi?..

Kampir
O‘zing kimning shan yulduzi?
Ko‘z tindirar xoling ham bor.
Ko‘hlik qilgan parvardigor.
Bol kabidir dudoqlaring,
Sen xonlarning nasibasi.

Xiromon
Qani, kampir, gapir ne gap,
Maqsading ayt, ko‘ray o‘ylab.

Kampir
Hech shoshilma, erka qo‘zim,
Asal qizim, go‘zal qizim.
Keksa jonim senga qurbon,
Xayrli gap keltirdim, jon,
Xonning ko‘zi senga tushgan,
Dema buni yana bo‘sh gap...

Xiromon
Nima ekan xonning so‘zi?

Kampir
Muddaosi gapning o‘zi:
Xo‘p go‘zalsan, soz kelinchak.
Kiygin atlas, kiygin ipak,
Bo‘yningga taq inju, marjon,
Xonga bo‘lgil erka jonon!
Ostonangda qul, xizmatkor,
Ne istasang bo‘lar tayyor.
Tunda kirgin xon qo‘yniga,
Qo‘llaringni sol bo‘yniga.
O‘ynab qolgin, erka qo‘zim,
Yorug‘ kunga chiqqin, qizim.

Xiromon
Nima deydi, qiziq, qari!
Rostdanmikan bular bari?..

Kampir
Xon deganda, xonmisan xon,
Shop mo‘ylovli, ko‘ksi osmon.
Rustami Zol bir chumchuqdir,
Bu xon emas, bir pahlavon.

Xiromon
Bo‘ldi, kampir, bo‘ldi, kampir,
Bu gaplarni bas qilgin bir.
Uf, siqilib ketdi, yurak...

Kampir
Hech siqilma, yashna, chechak,
Dirkillab tur, ziyrak bo‘lib,
Xonning o‘zi parvarishlar,
Ochilasan gulday to‘lib.

Xiromon
Xudoga xush kelmas bu gap,
Voqif mendan...

*(**Shayx** kiradi)*

Shayx
Qarab tur, qarab...
Yo‘q, qo‘rqib o‘tirma, qizim Xiromon,
Sendan rozi bo‘lar Xoliqi subhon...
To‘g‘ri, hali yoshsan...o‘ylab ko‘r birpas,
Xonning xohishiga zid yurib bo‘lmas.
Uning tutgan yo‘li olloh yo‘lidir,
Barcha bu bandalar xonning qulidir.

*(**Gulnor** kelib qoladi, u ostonada turib, quloq soladi)*

Doim yodingda tut go‘zal jannatni,
Bilki, jahannamning har aziyati
Sendan uzoq bo‘lar...
Kabutar qizim!
Izmingda parilar, malaklar turar,
Seni qanotida o‘ynatib yurar.
Yo‘q esa, Azroil tikar ko‘zini,
Qaytarib bo‘larmi xonning so‘zini?
Rozimisan?

Kampir
Rozimisan?

Shayx
Rozimisan?

Kampir
Bo‘l, gapir!
Bu to‘ti tilingni eshitaylik bir.

Shayx
Tez bo‘l, tez javob ber!

Xiromon
(Og‘ir bir ahvolda, qiynalib)
Roziman...biroq...

Shayx
Bilaman,
Voqifmi, yo‘q bo‘lar mutloq!
Hech xatar bo‘lmaydi, qizim, holingga,
Uni hech keltirma sen xayolingga...
Xo‘p, salomat bo‘lgin!

*(**Kampir** bilan **Shayx** ketishadi)*

Xiromon
Nima qilib qo‘ydim?..
Emasdim-ku yot,
O‘h...qanday aylandi bu tilim, hayhot!
Endi nima deydi qo‘ni-qo‘shnilar,
Voqif kulfatiga kulfat qo‘shdim-a...

*(**Gulnor** kirib, **Xiromon**ga tikiladi, o‘zini tutolmaydi)*

Gulnor
Ha, xonim, muborak!

Xiromon
Nima?

Gulnor
Sharmanda!
Bu ish isnodmasmi, ayt, naslimizga,
Endi nima derkin el-u yurt bizga?

*(**Voqif**, **Vidodiy**, **Alibek** kirishadi. **Gulnor** va **Xiromon**ga hayratli qarashadi)*

Voqif
Nima gap? Bularga ne bo‘ldi o‘zi?

Alibek
Ishonmay turibman ko‘zimga o‘zim.

Gulnor
Otajon!

Voqif
Nima gap, ne bo‘ldi senga,
Qiynalma, dardingni so‘yla otangga.

*(**Gulnor** yig‘laydi. **Xiromon** bir xonaga qochib kiradi.)*

Alibek
Gulnor, so‘zla tezroq!

Gulnor
Nima dey?
(Yig‘laydi)

Voqif
Gulnor!
Ayt, qizim, eshitay,
nima gaping bor?

Gulnor

(Entikib-entikib)

Hozir shu yerdaydi Shayx bilan kampir,
Gaplarin bekinib, eshitdim bir-bir.

*(**Vidodiy** boshqa xonaga kiradi)*

Voqif

(O‘g‘liga)

Eshit..bir ish bor...

Alibek

Ayta ber, Gulnor!

Gulnor

Xiromon dediki...

Alibek

Ne dedi u, ayt?

Voqif

Yashirma... yashirma... to‘g‘risini ayt.

Gulnor

U dedi, roziman, boraman xonga.

(**Alibek Gulnor**ni bir xonaga olib kiradi)

Voqif

(Xayol og‘ushida)

Ha, ha, halol bo‘lsin bu Xiromonga!
Yana ko‘zlarimga havo qorayar,
Yana tog‘ bioshiga tuman, qor inar...
Shu tarzda osilar dorga g‘ururim,
Sig‘mas saroylarga qalbim, shuurim.
Bunda ko‘zlarimga, oh, qon ko‘rinar,
Menga bu devorlar zindon ko‘rinar.

Ko‘ngil vayron bo‘lgan bir xonumondir,
Yayrab-yozilmaydi heyla zamondir...
Osmondan ham kelmas menga tasalli,
Ruhimga zavq bermas zamin sahari...

Xiromon

(Parishon kiradi)

Voqif, ey sarvarim, ey tojdorim!

Voqif

Ko‘rinma ko‘zimga, bevafo yorim!
Ket, yugur murdorning harom bag‘riga,
Zulm uyasiga — olov qa’riga.

*(**Xiromon** boshini quyi egib chiqadi. Bir oz sukut)*

Voqif

Yorim yuz o‘girdi...davron bevafo,
Buzildi men ko‘rgan har zavqu safo.
Sarg‘aydi umrimning gulli bahori,
Oh, sindi qalbimning sadafli tori...

*(**Alibek** g‘azabli kiradi)*

Alibek

Ota, o‘ldiraman uyatsizni, bas...

Voqif

Alibek, jinoyat bizning ish emas;
Qo‘llaringga qara, yarasharmi qon?
O‘g‘lim,
yashatish-chun yaralgan inson.

Alibek

Bunda yo‘q na nomus, na ordan asar,
Vafosiz bo‘larkan o‘gay onalar.

(Chiqadi)

Voqif

(Yolg‘iz va parishon)

Koshikiydi ko‘rmasam saroyni zinhor,
Hali uchratmadim bir vafoli yor.
Mayli, bir boshimga quring mingta dor,
Cho‘ponlar o‘tlog‘i yodimga tushdi.

U toza tuyg‘ular pokiza dillar,
Binafsha bo‘yini ulashgan yellar.
Meni maftun etgan chechaklar, gullar,
Tarlonlar qo‘nog‘i yodimga tushdi.

Necha bor kechganman oqquvli ko‘ldan,
Xush bo‘ylik topganman har yangi guldan.
Voqif, ayri tushding qishloqdan, eldan,
Umrimning tong chog‘i yodimga tushdi.

(O‘tiradi. Qalam-qog‘oz olib, she’r yoza boshlaydi)

Parda

UCHINCHI PARDA

Beshinchi ko‘rinish

Subhidam palla. Lashkar qarorgohi, baland tepa, tepa boshida ***Qojar*** *shohning chodiri, uning yon-veridagi boshqa chodirlar ko‘rinib turibdi. Otlarning kishnashi, odamlarning shovqini eshitiladi.* ***Qojar*** *uyquda, o‘ng tomondagi chodirdan* ***Tamaraning*** *mahzun qo‘shig‘i eshitiladi.*

Tamara
Ayri tushdi tarlon ko‘nglim
O‘z mehribon uyasidan.
Xabar bering, siz, turnalar,
Yurtim bog‘i, dalasidan.

Bir tutqunman, qo‘lim bog‘liq,
Musofirman, siynam dog‘liq.
Dilxastaman oh, nechog‘liq
Yuragimning yarasidan.

Darvozabon
Jonga o‘t soladi asira sasi,
Bu ona faryodi, ayol nolasi.
Onasiz bolalar yig‘lashar zor-zor,
Nomin chiqarmoqchi
Muhammad Qojar...
Yo‘qmish bu zolimda vijdondan nishon,
Xarob bo‘lgan emish dastidan Eron.
To‘kdi jabhalarda daryo —daryo qon,
Qarangki,
u qonga to‘ymaydi hamon.

Tamara
Shamol esar, gul bukilar,
Jon rishtasi, oh, so‘kilar,
Kecha-kunduz yosh to‘kilar
Ko‘zlarimning qorasidan.
*(**Qojar** uyg‘onib, chodirning oldiga chiqadi)*

Qojar
(Mag‘rur, kibr bilan)
Yana gurji qizi kuylarmi noxush?

Darvozabon
Shohim, yayramaydi qafasdagi qush...
Rosayam siqilgan ko‘rinar o‘zi,
Nola, hayqiriqqa o‘xshar har so‘zi.

Qojar
(Kinoya bilan)
Sening ham yuraging achirmi unga?

Darvozabon
Yo‘q, falak solgandir uni bu kunga...

Qojar
*(**Tamarani** bag‘riga bosib, yana g‘azab bilan itarib yuboradi)*

Deydilar, shirinmish insoniy bo‘sa,
Netardi bizgayam u nasib bo‘lsa?!

(Darvozabonga)

Qani chiq, vazirga ayt, kelsin darrov!

*(**Darvozabon** ketadi. **Qojar** qizargan ufqlarga ko‘z yugurtiradi)*

Yana ko‘k yuzidan yog‘moqda olov,
Bizga hayot bergan quyosh hatto qon,
Dunyo qon ustiga qurilgan makon...

Boshimga chaqmog‘in otsayam falak,
Qonli qilichimdan kechmas bu yurak:
Hukmimga bosh egsin cheksiz tog‘, dara,
Cho‘llarga oqizay qondan sharshara.
Ha, qonga bo‘yalsin chechaklar, gullar,
Faqat qon hidini ulashsin yellar!
Mening vijdonim ham, yuragim ham qon,
Dunyo qon ustiga qurilgan makon.

*(**Vazir** kiradi, ehtirom ila ta’zim qiladi, qo‘li bilan olis-olislarni ko‘rsatadi, xushomadga o‘tadi)*

Vazir
Shohim, qanday go‘zal bu gulgun bahor!

Qojar
Vazir, qani, eshit, senga gapim bor!
Yana o‘t ichida yonar badanim,
Shu tog‘dan og‘irroq dardim bor manim...

Vazir
Shohim, yarashmaydi badbinlik sizga,
Shayton ko‘rindimi yo ko‘zingizga?

Qojar
Aytaylik, mashriqdan mag‘ribga qadar
Menga xiroj berdi butun o‘lkalar,
Xo‘sh, nima bo‘libdi? Badbaxtman, ishon!
Aytaylik, Yildirim, Temur, Chingizxon —
Bari o‘zim bo‘lay, xo‘sh, bormi nafi?
Ko‘rinmas dunyoning inju, sadafi...
Bolam yo‘q, bilaman, yo‘q merosxo‘rim,
Shudir peshonamning arimas sho‘ri.

Vazir
Shohim, bu yalanglik, cho‘llarga qarang,
Bag‘rida tovlanar ming bir alvon rang.

Charx urib kuylaydi kaklik, to‘rg‘aylar,
Sizga peshvoz chiqqan bog‘lar, saroylar
Deyishar, xush kelding,
buyuk hukmdor!

Qojar
Vazir, bu gaplarning na hojati bor?

Vazir
Yoqarmikan, devdim ov ko‘nglinizga!..

Qojar
Ha...ha...

Vazir
Kulyapsizmi?

Qojar
Yarashmas bizga
Kaklikni quvlamoq ko‘tarib qilich,
Qilichim qonini ko‘rasanmi hech?!
Malaklar baqsa-da ming jilva ila,
Ko‘ngil yumshamisin jabhada sira.

Vazir
Amringiz vojibdir, odil hukmdor!
Sizda fazilat ham, adolat ham bor.

Qojar
Mayli, fazilatdan gapirma, vazir,
Bir quldek amrimga bo‘lgin muntazir!
Bil, baliq qonidek qonim sovuqdir,
Mingta va’z qilsang ham,
hech nafi yo‘qdir!..
Bo‘lsaydi basharning bo‘yni yagona,
Uni uzar edim, eh, mohirona...

Vazir
O, shohim, men yana qilaman takror:
Sizda fazilat ham, adolat ham bor.

Qojar
Meni axtalashdi bolalik chog‘im,
Dunyo ne’matidan bo‘ldim benasib,
Bu dunyodan qasos olganim — olgan!

Vazir
Shohim, bo‘lmasayam valiahdingiz,
Eron tuprog‘ining shohi bo‘lasiz.
Shikoyat qilmang hech toleyingizdan.
O‘g‘lingiz,
qizingiz emasmi, Vatan?

Qojar
(Kinoya bilan)
Vatan, sevadimi meni u Vatan?
El tilga oladi bir nafrat bilan...
Ortiq eslatmagil menga Vatanim,
Qilichim bo‘lmasa, titarlar tanim!

Vazir
Shohim,
ko‘nglingizda qanday rejalar?
Tiflisni yondirdik, o‘tga qaladik,
Odamlarni so‘ydik, uyin taladik.
Bir oz tushdingizmi, g‘azab otidan?

Qojar
Hali yer titramas Qojar otidan...
Qon ko‘li ostida qolsin bu tog‘lar,
Eshiklar mixlansin, o‘chsin o‘choqlar.
Yuraklar ajralsin o‘z sirdoshidan,
Yaralsin daryolar, ko‘zlar yoshidan!

Vazir
Shohim, vijdoningiz qiynalar, deyman...

Qojar
(Kinoyali kuladi)
Vijdon?!
U bizda yo‘q, vazir, g‘am yema!
Hali kelmadimi bizning elchilar?

Vazir
Afsus, Qorabog‘dan yo‘q biror xabar,
Ibrohimxon emish ko‘p orif odam.
U Mulla Panohdan dars ham olarmish.

Qojar
Kim o‘zi?

Vazir
Bir shoir, laqabi “Voqif”,
Har qaysi ilmdan emish u voqif!

Qojar
Qashshoq, paytavali cho‘pon bir o‘lka
Buyuk firdavsiylar yaratgan balki?..

Vazir
(Qo‘rqib — pisib)
Shohim, siz o‘zingiz...Ozarbayjonlik...

Qojar
Manmi?.. Man?
Ko‘p bo‘lgan, kechganman bunday Vatandan.

Vazir
Amringiz vojibir odil hukmdor,
Sizda fazilat ham, adolat ham bor.

Qojar

(Darvozabonga)

Chaqiring, kirishsin asir gurjilar,
Shu yerda urishsin u ikki nafar!

Sarkarda

(Kiradi)

Shohim, qaytishibdi bizning elchilar.

(Elchilar kirishadi, shohga ta'zim qilib, javob maktubini topshirishadi.)

Qojar

(Maktubni vazirga uzatib)

O'qi, na yozibdi Qorabog' xoni?

Vazir

(Maktubni ochib, hayratlanadi)

Shohim!
Bular she'r-ku, xo'sh, javob qani?

Qojar

O'qi, shoirlari bor,
deganding o'zing,
She'r bilan yozgandir u javob so'zin.

Vazir

(Hayajonlanib o'qiydi)

"Maktubingni oldik, Muhammad Qojar,
Tarlon uyasida aslo sor bo'lmas.

Qojar

(G'azabli)

Aslo sor bo'lmas?!

Vazir

Bu dunyo tushmagan shohlar mahriga,
Zolim ham, zulm ham poydor bo'lmas.

Qojar
Poydor bo‘lmas!

Vazir
Ko‘kdan boshimizga olov yog‘sa ham.
Bu ellar bosh egib, senga xor bo‘lmas.
Zurriyot ko‘rmagan so‘qqa boshing bor,
Tol meva berganmi, barqaror bo‘lmas!
Qo‘yma oyog‘ingni bizning tuproqqa,
Ilondan,
chayondan do‘st-u yor bo‘lmas!”

Qojar
(G‘oyat g‘azablanib)
Eh-ha, jur’atni ko‘r, jasoratni ko‘r!
Vazir, kaklik ovi buyoqdaykan-ku?!
Xabardor qilayin sarkardalarim,
Hujumga shaylasin qo‘shinning barin!
Tog‘larni yangratsin burg‘uning sasi,
Ertaga olamiz Shusha qal’asin!

(Ikki nafar gurjini olib kiradilar)

Vazir
Shohim, gurjilarni...

Qojar
Ha, siz gurjilar!
Erta, kun tushganda shu dara, g‘orga,
Sizlar osilasiz albatta dorga.
Sevinib urishing, shartim bor yolg‘iz,
Shilsin teringizni tirnoqlaringiz.
Ko‘zimga qip-qizil etlar ko‘rinsin,
Qalbimga yangi bir kuch-qudrat insin!..
Ertaga yurish bor...
Tez bo‘ling urishda, xullasi kalom
Kim yutsa, shu — ozod!..

Shaliko
Shohim, biz —bir avlodmiz, birdir qonimiz,
Biz— aka-ukalar, birdir jonimiz...

Qojar
Nima? Aka-uka?

Gurjilar
Shunday!

Qojar
Ko‘r, vazir?
Ajib o‘yin bo‘lar rostdan ham hozir!

Vazir
Amringiz vojibdir, odil hukmdor,
Sizda fazilat ham, adolat ham bor...

Qojar
Qani, tezroq boshlang!

Shaliko
Uka, senga gal,
Busiz ham eshikni qoqmoqda ajal!
Kel, meni parchala o‘z qo‘ling bilan,
So‘ngra yo‘lga tushgin misoli yelkan.
Borgin uyimizga, onamiz kutar,
Bizning dog‘imizda qon-zardob yutar...
Sen qayt, ukajon, mayli, men o‘lay,
Axir kenjamizsan, qurboning bo‘lay.

*(**Gurjilar** urishish taraddudiga tushadi)*

Kichik gurji
Oh, qo‘lim bormaydi!

*(**Tamara** chodirdan chiqib, gurjilarning o‘rtasiga otiladi, qo‘llarini cho‘zib, shohga yuz buradi. Sukut. **Qojar**ning vahshiy qah-qahasi yang-*

raydi. Shu daqiqada qo'shin orasija isyon ko'tariladi. Bir nafar askar yugirib kirib, ***Qojar****ning qarshisida to'xtaydi)*

Askar

Yetar, urishmoqdan dillar bo'ldi qon,
Bu basir vijdoning uyg'onsin bir on.
Ayol-u go'daklar Eronda ochdir,
Bir parcha qattiq non, suvga muhtojdir.
Bo'ldi,
hech to'ymaysan qon ichgan sayin...

Qojar

(Qilichini sug'uradi)

Fitna solgan senmi qo'shinga, xoin!

(Qilichbozlik boshlanadi, urisha-urisha orqa tmonga o'tadilar, sahnada ***Darvozabon*** *bilan* ***gurjilar*** *yolg'iz qoladilar.)*

Darvozabon

Qani, jo'nab qoling, kelmasdan yotlar,
Ana, egarlanib turibdi otlar.
Vatanda bo'lasiz, erta, subhidam.

Tamara

Ko'p rahmat, ukajon, qochgin o'zing ham.

*(****Gurjilar*** *qochishadi)*

Darvozabon

(**Qojar**ning orqasidan nafratli tikilib)

Meni darvozabon bilib adashma,
Sen bilan tog' oshib, daryo kechaman.
Fursati kelgan dam, zolim shoh, shoshma,
Shu harom qoningdan to'yib ichaman...

Parda

Oltinchi ko‘rinish

(Qorabog‘. Qalin o‘rmonli tog‘. Tog‘ boshida qal’a ko‘rinadi. O‘rmon etagiga ***Eldor*** *qo‘shini joylashgan. Ba’zilari tik oyoqda, ba’zilari o‘tirishibdi, qizg‘in suhbat bormoqda. O‘choqda olov yonadi, daraxtda so‘yilgan to‘qli osig‘liq.)*

Kurd Musa

(Qo‘shiq aytadi)

Qoshim qora qalamsiz,
Qarorim yo‘qdir sansiz.
Oh, ko‘rpangga o‘t tushsin.
Qanday yotibsan mansiz?

Ohuman dashtni kezgan,
O‘t-u o‘lanni ezgan.
Yuz yil musibat tortib
Qutulsam, uchay sizga.

1-qochqin

Aylanay, Musajon, ovozingdan-a?

2-qochqin

Musajon, bir kuldir, yig‘inni yana!
Ko‘rgan-eshitgandan yana bir gapir.

Kurd Musa

Yo‘q, Mulla Nasriddin emasman, axir.
Bahorda xo‘rda bo‘lsa yalpiz-la,
Yoz chog‘i sharob ichsang, mugiz-la,
Kuzda-chi, pishlog‘-u non, tarvuz-la,
Qish bo‘lsa issiq xona bir qiz-la...

(Kulishadi)

2-qochqin

Yasha, jon, joningdan-ay!

1-qochqin
Yaxshi tushlar ko‘r!

Ilyos
Eldorga nima desam,
Sarson qilar bizni ham...
To‘shagimiz tosh, qoya,
Umrimiz o‘tar zoye.

Kurd Musa
Oshna, gapir nega san,
Ha, tuxumi ters kelgan
Tovuqdek o‘tiribsan?

Ilyos
Ko‘nglim qoldi, to‘g‘risi
Shu ishdan, chiqar misi.

Kurd Musa
Xo‘p, sen og‘a, men og‘a,
Xo‘sh, sigirni kim sog‘ar?

Ilyos
Kuchli bo‘lsa xon yana,
Unda to‘p-u to‘pxona,
Bular axir hazilmas...

Kurd Musa
O‘pkangni bos-e birpas,
Qani: ko‘zimga tik boq!
Bilasanmi, ey ahmoq,
Ko‘ngli baliq tusagan,
Tushar ekan dengizga.

Ilyos
Tan beraman men sizga.

Kurd Musa
Qo‘rqitmasin seni xon,
Bo‘g‘zidan ushlab yomon
Chumchuq kabi bo‘g‘amiz.
Ilyos, shunday maqol bor:
“El yog‘ilsa bosh qo‘shib
Xarini ham sindirar”.

*(**Eldor** kiradi)*

Eldor
Jonim Musa, ko‘zim Musa,
Senga yo‘qdir so‘zim, Musa,
Kurd qizining bo‘z bolasi!

*(**Musaning** bo‘ynidan quchadi)*

Izzat — bizga,
xizmat —sizga...

Kurd Musa
Hech-da...
Hech-da..Aylantirma, bas.

Eldor
Rost gap, xudo haqqi, yo‘lbarssan, yo‘lbars!
Necha bor qutqarding dorning ostidan,
Qonli janglar aro dushman dastidan.

*(**Qochqinlar** kuylashadi, **Eldor** ularga boqib ko‘zi yayraydi)*

Go‘zal kelajakni ko‘raman sizda,
Bir dunyo qudrat bor qo‘llaringizda!
Uzoqda bo‘lsak ham qardosh,
do‘st-yordan,
Aslo chekinmamiz, bo‘rondan, qordan!
Otalarning shunday bir maqoli bor:
“Botmonlab bol yiqqan,
barmog‘in yalar!”
Shundaymi, hoy Musa!

Kurd Musa
Ha, shunday elda,
Har tomchi madaddir bir toshqin selga...

Eldor
Yaxshi kun ko'rmadi bizning gulyuzlar,
Tirik go'rga kirdi onalar, qizlar.
Yerni shudgor qilgan, ekin ekkan biz,
Ulkan saroylarni bunyod etgan biz.
Qishda sovuq demay, don-dun undirgan,
Na rohat ko'rgan-u na uyqu bilgan —
Biz edik! O'zimiz ochlikdan o'ldik,
Osildik ming dorga, sargardon bo'ldik.
Bu boylar bo'ridek talashdi faqat,
Na boyda insof bor, na xonda shafqat.
Qachon qutularkan bu kundan inson?!

Kurd Musa
Hoy Eldor, rostdan ham boy zotiki bor,
Doni ko'paydimi, bo'ldi, shu zamon
Seni qirchang'idek tepishga tayyor!

(Kulgi)

Eldor
Endi-chi, tish qayrab kelmoqda Qojar,
Eronni talagan bu qari o'jar
Kelar podasi-la bizni so'yishga,
So'ng to'kkan qonidan ichib, to'yishga.

*(**Shaliko, kichik gurji** va **Tamara** hayajonda kirishadi)*

Eldor
Kimsiz, ey qardoshlar, gapiring qani?..

Shaliko
Zolim Muhammad Qojar
Bizni qirdi, taladi,

Uf.. o‘sha qonxo‘r, battol
Tirik o‘tga qaladi.
Xo‘p urishdi gurjilar,
Goh mardlik ham yengilar,
Qojar yengdi bu safar
Bizni asir oldilar,
Qon sig‘madi soy, jarga...

Eldor
Yarashmaydi yengilish
Qahramon gurjilarga!

Shaliko
Shunday bo‘ldi bu safar.

Eldor
Keyin?

Shaliko
Bizni asir oldilar,
Osish-chun bo‘ynimizdan,
Ayrildik uyimizdan.
Tutqunlikda tutildik,
Biroq, qochib qutuldik
O‘sha zolim qo‘lidan.

Eldor
Bo‘ldi, bildim.

Shaliko
Endi san
Yot bilsang ham bizni,
Mana, uschalamizni —
O‘z tishingda asraysan.

Eldor
(Kuladi)

Sizga qurbon bu boshlar,
Bizning aziz qardoshlar!
Esimdadir o‘sha tog‘lar,
Turna ko‘zli sho‘x buloqlar.
Ko‘p o‘tganman tog‘, qiridan.
Gurjistonning do‘st elidan.
Ularda or, mardlik bordir,
Yuragimga hamon yordir.
O‘sha non-u tuz hurmati
Yaxshilikning o‘chmas oti...
Qanisiz, hey, bolalar!
(Daraxtga osilgan to‘qlining
go‘shtiga ishora qiladi)
Uni tushiring,
Tez bo‘ling,
Yaxshilab kabob pishiring.

Tamara
Rahmat, to‘zon turdi, hojati yo‘q hech,
Ketolmay qolamiz, so‘ng tushadi kech...

Eldor
O‘zingiz bilasiz... bizning bu tog‘lar
O‘z uyingiz erur...endi, o‘rtoqlar
Yetkazib qo‘yishsin sizni Tiflisga!

Shaliko
Ajoyib yaxshilik bo‘lardi bizga.

Eldor
Yo‘q, yo‘q, bu vazifam,
burchimdir manim!
(Shalikoga)
Buni ko‘r, ukajon, endi shoh Qojar,
Sizlarni talagan o‘sha qonichar,
Endi ko‘z tikmoqda Ozarbayjonga.

Shaliko
Shohlar bo‘yaladi kunda ming qonga.

Eldor
Biz-chi? Biz netamiz? Yig‘ilib keling,
Qudrati zo‘r bo‘lar birlashgan elning.
Keling, jang maydonin kezaylik birga,
Ilonning boshini ezaylik birga!..

Shaliko
Kelishdik, akajon, uch kunga qadar,
Kut, yetib keladi bizning askarlar.

Eldor
Sizga ishonaman, mayli, tez keling,
Birga sovuramiz qonxo‘rning kulin.

Shaliko
Kech bo‘ldi, ketaylik.

Eldor
To‘xtanglar birpas!
Musa!

Kurd Musa
Labbay.

Eldor
Quloq sol gapga!
Ol-da besh-olti otli,
Otlari qush qanotli
Mehmonlarga bo‘l hamroh.
Lekin, Musa, mehribon,
Hushyor qara har tomon,
Yo‘l yuzida bir shikast
Yetmay ketsa, bizga bas...

Kurd Musa
Bolasan-da, bola?!

Shaliko
Ko‘p rahmat, qardoshlar!

Eldor
Arzimaydi, do‘stlar!

*(**Gurjilarni** katta hurmat va xursandchilik bilan kuzatishadi. Bir qari **kampir Eldorga** yaqinlashadi)*

Eldor
Xo‘sh, xizmat, onajon?

Kampir
Hech, o‘zim, Eldor!
Bilasan, keksaga kerak madadkor...
Bor-yo‘qdan qolgandi bitta sigirim,
O‘shaydi ko‘makchim,
ko‘z tikkan yerim...
Shuni ham qo‘ymasdan tunda oldilar,
Meni tiriklayin o‘tga soldilar.

Eldor
(Qahrlanib)
Kim oldi, hoy, ona?

Kampir
Olganmi? Ilyos!

Eldor
*(**Ilyosga** g‘azabli tikiladi)*
Olchoq, yaramas!

Arshak
*(**Eldorga**)*

Ko‘nglim suv ichmaydi Ilyosdan sira,
Shunaqa pand berar u fe’li xira.

Eldor
Hoziroq tashla, sen, miltiqni yerga.

*(**Ilyos** miltiqni qo‘yadi, boshini egib oladi)*

Eldor
Bo‘sh g‘orga kirib yot, nomussiz erga
Miltiq yaragmaydi...odam bo‘lmay ket!

(U yonidan pul chiqarib kampirga beradi)

Mana pul, bozordan bir sigir oling,
Sira xafa bo‘lmang, xo‘p, endi boring.

Kampir
Senga qurbon bo‘lsin bu keksa onang,
Dunyoda yomonlik ko‘rma hech, bolam...
(ketadi)

Eldor
*(Qahr bilan **Ilyosga**)*
Turqini qaranglar, tuf-ye, yuzingga,
Men ham ishonibman, nomard, so‘zingga...

Ilyos
Kechir, yanglishibman, xato qilibman,
Qadamim bosaman endi bilib, man.

Eldor

*(Miltiqni **Ilyosga** qaytaradi, ozgina shashtidan tushadi)*

Tentak! Go‘ro‘g‘lining haqparvar oti
Xonlar-u boylarning bukdi qanotin.
Buyam xatomikan...

*(**Alibek** davraga jadal kirib keladi, **Eldor** bilan ko'rishadi, hamma yig'ilib, uni tinglaydi)*

Alibek
Eldor, quloq bergin, Eldor, quloq sol,
Bostirib kirganmish u Qojar — battol.
Otam kechsa hamki vazirligidan,
Deydi, yot qo'llarga o'tmasin Vatan.
Bilasan, u yonar parvona kabi,
Bor kuchni ishga solar, shudir talabi.
Orqadan Qojarga qilasiz hujum,
Otamning fikrini aytyapman bu zum.
Xon esa hamisha qo'limizdadir,
Vatanning nazari hozir bizdadir.
Bu yurtda qo'ymaymiz zolim shohni, bas,
Elimiz boyligi aslo talanmas.

Eldor
Juda soz, Voqifga aytgin, Alijon,
So'zidan chiqmayman
chetga hech qachon.
(Qo'shinga o'giriladi)
Ona yurtimizning bir buyuk o'g'li,
Vijdoni pokiza, yuragi cho'g'li,
Bizni da'vat etar muqaddas ishga,
Erk uchun boshlangan buyuk yurishga!

Parda

Yettinchi ko'rinish

*Tog' oralig'i, orqadan shiddatli to'p, miltiq saslari eshitiladi. Tog' orti — **Qojar**ning qo'shini ketgan tomondan o't qo'yilgan qishloqning yallig'i ko'kni yoritadi. Uzoqdan xotin-xalaj, bola-chaqaning qiy-chuvi eshitiladi.*

Qojar
(Tog‘ boshida turib, qishloqning yonishini tomosha qiladi)

Yon, yon, lochinlarning yashil makoni!
Ruhimga jon berar o‘lim osmoni...
O‘rlasin osmonga o‘tlarki seryol,
Ko‘kdan olov sochsin yugurib shamol!
Yon, yon, ko‘mir bo‘lsin har dara, har tog‘,
Bosh egsin azmimga butun Qorabog‘!
Qon ichida suzsin kelinlar, qizlar,
Yerda kabutarlar, ko‘kda yulduzlar.
Ona qornidagi qondan vujud, tan,
Butun koinotga qon bo‘lsin kafan.
Manim vijdonim ham,
yuragim ham qon,
Dunyo — qon ustiga qurilgan makon!

Vazir
Amringiz vojibdir, odil hukmdor,
Sizda fazilat ham, adolat ham bor.

Darvozabon
*(**Qojar**ga yaqinlashib)*
Shohim, afv etingiz, huzuringizga
Bir qishloqi keldi, gapi bor sizga.

Qojar
Kirsin!

Darvozabon
Kiring, ota, qarshingizda shoh!
*(**Qishloqlik chol** yaqinroq keladi)*

Chol
Sizga bir so‘zim bor, ey olampanoh!
Shu yongan qishloqning oqsoqoliman.

Arzim bor ulusning dardi-holidan...
Yonar o‘t ichida go‘daklar ohi,
Bu qishloq ahlining nedir gunohi?
Buyuring, yong‘inni o‘chirsin tezroq,
Kulga aylanmasin bu so‘lim qishloq!
Bu tog‘lar qo‘ynida arslon yotarmish,
Bunda Go‘ro‘g‘lilar ot o‘ynatarmish.

Qojar

(Qahrlanib cholning gapini bo‘ladi)
Yaxshi, ket, qari ko‘ppak!
(Kinoya bilan)
Bunda Go‘ro‘g‘lilar ot o‘ynatarmish!..

*(**Qojar** chiqadi, **Chol Qojar**ning ketidan)*

Chol

Oh, jallod, shafqatsiz, endi shoshma, past,
Sulaymon toj-taxti senda ham qolmas.
(Turib, chiqadi)

*(**Qojar** yana kiradi, qoya boshida to‘xtaydi, bu orada **Qojar**ning sarkardasi shoshilinch kiradi)*

Sarkarda

Shohim, orqa tomon dahshatli juda,
Katta yo‘l emasmi, qatnov avjida...
Eldorning qo‘shini bosar ilgari,
Bizni qirmoqda u chumchuq singari.
Yaqinlashib qoldi! Yashirining tez,
Anov qoyalikka o‘taylik shu kez,
Ular mustahkamdir...

Qojar

Otni oldiring!
Bir to‘da yigitni ortda qoldiring,
Yo‘lni to‘sib tursin bizlar ketguncha.

Sarkarda
Ha, to‘sib turishar bizlar yetguncha.
(Darvozabon kiradi)

Darvozabon
Qorabog‘ning shayxi kirmoqchi, shohim.

Qojar
Ayt, kirsin!
*(**Shayx** bir to‘da a’yonlari bilan kiradi)*

Shayx
Ey shohim, pushti panohim!
Sizning yo‘lingizda qoldi ko‘zimiz,
Sizni duo qilar o‘g‘il-qizimiz...
Marhamat, eshiklar ochiqdir sizga,
Yurtni topshiramiz mard qo‘lingizga.

Qojar
(Kinoya bilan)
Juda soz, qayerda u, Ibrohimxon?

Shayx
Ibrohimxondan bo‘lsin xotiringiz jam,
Dog‘istonga qochdi bugun subhidam!

Qojar
Eh-ha, urushmasdan saqlabdi-da jon!
Yaxshi, birga ketdik, bo‘lasan darkor,
Bu vahshiy tog‘larda yo‘l ko‘rsatib bor.

Shayx
Marhamat, marhamat!
(Chiqishadi, bir to‘da askar tortisha-tortisha oldinga yaqinlashadi)

Temur
Qo‘limiz, tishimiz, miltig‘imiz qon,
Urushdan bezmadik, do‘stlarim, hamon.
Dunyoga to‘ymaskan shohlarning ko‘zi,
Jonimdan to‘yib ham ketdim-da o‘zi.

Askar
Kurash maydonida askarmiz, bilki,
Sarkarda buyrug‘in qilmaymiz ikki.
Sen nima deyapsan?

Temur
(Kinoya bilan)
Deydi askarmiz,
uyimizni buzar o‘z qo‘llarimiz...
Ahmoq, shu aytganing jang-u jadalda
Ko‘ksingga o‘q tegib o‘lsang agarda
Shohlar achinarmi?
Hatto eslamas...

Askar
Qo‘shinni faromush qilma, esipast,
Bizni tut singari to‘kadi Eldor.

Temur
Mayli, tutdek to‘ksin, uning haqi bor,
Bu tuproq — Vatani!

Askar
Bo‘ldi!.. sotqinsan!

(Qilichbozlik boshlanadi, askarlar ikki tarafga bo‘linib urushadilar, shu daqiqada ***Eldorning*** *to‘dasi yetib keladi, to‘qnashish davom etadi.* ***Temur*** *boshliq bir qancha askar* ***Eldorga*** *qo‘shiladi)*

Temur
Biz ham siz bilanmiz, keling, qardoshlar!

Eldor
Qilich-la ont iching!

*(**Askar**lar qilichni o'pib ont ichadilar, jang davom etadi, **Qojar**ning askarlari qocha boshlaydi, **Ilyos** orqadan **Eldor**ni otmoqchi bo'ladi, miltiq otilmaydi, ikkinchi bor mo'ljalga olganda, **Ilyos**ning o'zi **Kurd Musa**ning o'qidan yer tishlaydi)*

Eldor
Nima gap, hoy, Musa?

Kurd Musa
O'lsin bu hayvon!
Seni otmoqchiydi orqadan shu on...

Eldor
Mayli, yur ilgari, to'xtash yaxshimas!

Kurd Musa
Hovliqma, shu yerda kutaylik birpas,
Orqada qolganlar kelishsin, shunqor.

*(Shu orada bir necha kishi bilan hovliqib **Alibek** kiradi)*

Alibek
Qanisan, ey Eldor, qaydasan, Eldor?

Eldor
Qayerdan kelyapsan, Alibek, gapir!

Alibek
Yana umidimiz qolmadi hech bir.
O'rmonga chekining, o'rmonga jadal,
Nohaq qirilmasin odamlar bu gal.

Eldor

(G'azabli)

Alibek, nima gap, xo'sh, nima uchun?
Nimalar deyapsan, orqaga, nechun?

Alibek

Qochdi tulki kabi, oldindan qochdi,
Qochdi Ibrohimxon,
yovga yo'l ochdi,
Endi ustimizdan kulmoqda Qojar.

Arshak

Eh, nomard...
bo'sh qoldi degin jabhalar?!

Eldor

Vatan qo'ynidagi xiyonatni ko'r!

Kurd Musa

O'qning vizillashin eshitmay qo'rqqan,
Eh, nonko'r!

Eldor

Yo'q, yo'q,
aslo yengilmas Vatan,
Hali bu tog'larda hayot ekanman,
O'rmonga chekining, turmanglar qarab,
Bizning boshpanamiz shu tog', shu dara.
Ulkan qudrat ila yana kelamiz,
Qojarning holiga biz ham kulamiz.

*(**Eldor** chiqadi, odamlari ham uning izidan chekina boshlaydilar)*

Parda

Sakkizinchi ko‘rinish

Qorabog‘. Shusha qal’asi. Xon saroyi. ***Qojar****ning ishrat majlisi. Majlisda* ***a’yonlar, boylar*** *qatnashmoqdalar*

Qojar

(Takabburlik bilan)

O‘tdi qo‘limizga go‘zal Qorabog‘,
O‘psin qilichimni har qoya, har tog‘.
Men Qojar avlodi, shohlar shohiman,
Butun yer yuzining pusht-panohiman.
Toshni tinchitmangiz, hattoki toshni,
Ko‘ming, murda qiling uchragan boshni!
Mening vijdonim ham, yuragim ham qon,
Dunyo — qon ustiga qurilgan makon!

Vazir

Amringiz vojibdir, odil hukmdor,
Sizda fazilat ham, adolat ham bor.

Shayx

Ey buyuk hukmdor, ey ulg‘ Qojar,
Sizning azmingizga o‘tdi neki bor!
Biz ham soyangizda umr ko‘ramiz,
Bu foniy dunyoning gashtin suramiz!
Sizga madad bersin, qodiri Xudo,
Bu muqaddas kitob, kalom-ul Ollo!

Qojar

Raqqosalar kelsin!

(Raqqosalar o‘ynashadi. ***Qojar*** *ularning birini bag‘riga bosib, o‘padi. Birdan qizning ko‘kragidan orqaga itarib yuboradi.)*

Deydilar, shirinmish insoniy bo‘sa,
Netapdi bizgayam u nasib bo‘lsa.

(Xonandalarga kesatiq qilib)

Deydilar qo‘shiqqa mohirmish, balli,

Go‘zal Qorabog‘ning xonandalari.
Hunaringiz bo‘lsa, maqomdan oling.

Xonanda

(Kuylaydi)

Ko‘zim yo‘llarda qolmish,
Bir xabar yo‘q Kurning bog‘idan,
Zerikmas, charchamas ko‘nglim,
U suqsurlar so‘rog‘idan.
U yerlar ming xayol, oylar,
Tabiat she’rga loyiqdir,
O‘par bulbul sahar kezlar,
Gulni yoqut dudog‘idan.
Chamanlar, yosumanlar,
Ko‘z suzib gar jilva ko‘rsatsa,
Jo‘shar ko‘nglim, chiqar o‘ynab
Hayotning g‘am yotog‘idan.
O‘tar oylar, o‘tar yillar,
Yoz, ey Voqif, umr ozdir,
Topar bir kun uchar ko‘ngling,
She’r-u san’at marog‘idan.

Qojar

G‘azal Voqifdanmi?

Shayx

Voqifdan, balli!

Qojar

Qanday gap!
Uni tez topib keltiring!
(Sarkarda bosh egib, chiqadi)
Vazir, bu rostdan ham kattakon qudrat,
Har so‘zi, suhbati bir jonli san’at.
Ko‘p yomon tahlika bu shoir bizga,
Sen nima deysan, xo‘sh?

Vazir
Nima dey sizga?
Amringiz vojibdir, odil hukmdor,
Sizda fazilat ham, adolat ham bor.

Shayx
Shohim, tahlikadir, Voqif, to‘g‘ri gap,
Uning har qadamin tursangiz tergab...
Uningcha, qonunda yo‘qmish haqiqat,
Ko‘zlarga papdamish butun shariat.
Voqifni el-u yurt yoqtiradi, o...
Buncha o‘jarligin bilishmas, ammo.
Yana yaqin do‘sti — bevatan Eldor,
Sizning dushmaningiz, ha,
o‘sha murdor!
Voqif hayot ekan — xatardir bizga,
O‘shani yo‘qoting nazardan tezda.

Qojar
Yozgan javobidan bilganman uni,
Shoshma, sovuraman ko‘kka kulini!
Kelsin, kulishamiz shoir-la birpas,
Axir tilimizni u bog‘lay olmas.

*(**Qiziqchi** vovillab kiradi)*

Qojar
Huryapsanmi, ey qiziq?

Qiziqchi

*(**Shoh a’yonlarini** ko‘rsatib)*

Podangizga shohim, asli
Bir it kerak emasmi?

(Hamma kuladi)

Qojar
Yaxshi ko‘rasanmi,
meni nayrangboz?

Qiziqchi
Shohim, qulingizman-qulingizman boz.

Qojar
Gapir-chi, xo‘sh, meni asir etsalar,
Qop-qora zindonga tiqib ketsalar,
Netarding?

Qiziqchi
Netardim? Netardim? Og‘u ichardim,
Shohim, yo‘lingizda jondan kechardim.
Sizni bandi etsalar, qolsam g‘aflatda,
O‘ttiz nafar boshni kesardim shartta.

Qojar

(O‘rnidan turib, tilla kamarini ko‘rsatadi)

Nayrangboz, kamarim qiymati-ku bu!

Qiziqchi
Men ham shu kamarni aytdim-da, yoxud
Kamardan qiymatli sizda nima bor?

*(Kulgi. **Voqifni** olib kiradilar.)*

Qojar
(Hayratlanib)
Bizga bosh egmadi,
qolmabdi hurmat!

Shayx
Qonunni tan olmas, shunisi dahshat.

Qojar

(Voqifga)

Shoir, qarshingizda turar hukmdor!

Voqif

Sizsiz ham bu gapdan, shoh, xabarim bor.

Qojar

Egmadingiz boshni?

Voqif

Egmadim hali!
Egilmas vijdonning buyuk haykali...

Qojar

Qilichlar to‘qnashib chaqnagan zamon
Nima ekan o‘sha, siz aytgan vijdon?

Voqif

Vijdon deganlari bir haqiqatdir —
Beshigi, mozori abadiyatdir.

Qojar

Xo‘sh, zindon qanaqa, qorong‘u zindon?!

Voqif

Sovuq mozorga ham ziynatdir inson.

Qojar

Haliyam ko‘kdami, shoir, xayoling?

Voqif

Azaldan hududi bo‘lmas kamolning...

Qojar

Bo‘ldi...sinab ko‘rdim idrokingizni,
Rost, endi shoir deb bilaman, Sizni.
Baxtiyor xalq ekan Sizni yaratgan!

Voqif
O‘lmaydi, birgina shoh, bunyod etgan.

Qojar
Ajoyib, ajoyib, inoning, shoir,
Sizning bu ruhingiz menga yoqadir.
Bu davlat, bu boylik, bu shonli saroy,
Ko‘klarning bisoti — yulduz hamda oy
Sizga o‘tsin, mayli, bugundan boshlab,
Biroq bir shartim bor!

Voqif
Qani, eshitay!

Qojar
Fors tilida yozsin, deyman san’atkor.

Voqif
Forsning Xayyomi bor, Fidavsiysi bor.
Ularda juda ko‘p buyuk san’atkor.
Ozar elining o‘g‘liman, kanda
Etmayin yozaman o‘rni kelganda.

Qojar
Yaxshi, o‘jarlikni qo‘y endi, inon,
Bu qadar noshukur bo‘lmaydi inson!

Voqif
Yo‘q, sira aldayolmas boylik, saroylar,
Bir maslak ishqi-la, qalb tepsa agar!
Men yurtim bog‘ida ozod bir qushman,
Mansab-u shuhratning domiga tushmam.

Vazir
Yaxshi-ya!
Bu juldur, kichik bir o‘lka
Buyuk Firdavsiylar yaratdi balki?..

Voqif
Quyoshni to‘ssayam qora bulutlar,
Quyosh quyoshlikcha qolar har mahal.

Qojar
Quyoshga ishtahang katta-ku, shovvoz?!

Voqif
Kundan ko‘rshapalak qo‘rqadi, xolos...

Shayx
Bu bilan gaplashish mushkuldir, mushkul...

Voqif
Nega?
Hech bo‘lmaganda quloqlar bo‘sh kun —
Bo‘hton aylaganda darrov tutilar,
To‘g‘ri gap kelganda chetlab o‘tilar.

Vazir
Shoir, so‘zingizning zarbi juda oz.

Voqif
Sayragan bulbul-u eshituvchi g‘oz.

Vazir
Oh... Menda bo‘lsaydi bundagi hunar!

Voqif
Aqlsiz ko‘ppaklar yulduzga hurar.

Qojar
(Vazirga)

Qani, bo‘l, javob ber, javob ber tezroq!
Ko‘zingni lo‘q qilib turma-da, ahmoq!

Voqif
Sho‘rlik nima qilsin, ne gunohi bor,
Gar ziyo kuchaysa, zulmat sharmisor...

Shayx

(Kinoya bilan)

Shoirga martaba tikonli so'zlar.

Voqif

So'zdan qizarmaydi, bo'zarar yuzlar.

*(**Darvozabon** kiradi)*

Darvozabon

Shohim, ichkariga kirmoqchi bir chol!

Qojar

Ayt, kirsin!

*(**Vidodiy** kirib, ta'zim qiladi)*

Vidodiy

Hokimning hukmi, amali
Uning vijdonidan bo'lmasin xoli.
Bizga vafo qilmas mol-dunyo zihor.

*(**Voqifni** ko'rsatadi)*

Shoir u... qalbi bor, shirin so'zi bor,
Buyuk bir o'lkaning unda o'zi bor.
U o'lsa...tog'lar ham tutadi motam,
Kechiring... yaxshilik yaxshidir har dam.

Qojar

U dinning dushmani, mahkum o'limga!

Vidodiy

Axir bu Voqif-ku, she'r yozmas kimga?!
Ba'zan qamchilaydi zamonasini,
Xudo ham yoqtirar she'rning sasini.

Qojar

(Qahrlanadi)

Xudo ham yoqtirar? Xudoga yubor,
Xudoning karami axir kimda bor?
Agar kuchi yetsa, asrab qolsin u...

Vidodiy
Axir siz — hukmdor...

Qojar
Yaxshi, yaxshi, chol,
Endi o‘ylamayman qatlni zinhor.
Ammoki, kesaman yozgan qo‘lini,
Meni hajv qiluvchi achchiq tilini,
Rozimisan?

Voqif
Roziman...buyuk hukmdor!..
Marhamat sohibi bo‘lar og‘alar.
Aybi yo‘q, tanishdir zulmning oti,
Sen — xachir jinsidan, ko‘paymas zoting.

Qojar
Voqif, endi ket,
Saroyga yo‘lama, butunlay tark et,
Izzatin bilmagan o‘lsin itga xos.

Voqif
Sen-chi, haqiqatning og‘ziga tosh bos!
Men rosa ko‘rganmpn bu saroylarni.
Bunda ko‘kka chiqqan oh-u voylarni...
Ko‘rganman shohlarning vafosini ham,
Xonlarning zulmini, jafosini ham...
Ko‘rganman zamonning ming shamolini,
Tutqun onalarning ayanch holini,
Nafrat, qon chanog‘i tojlarga nafrat!
Yashasin ozodlik hamda muhabbat!..
(Ketadi)

Qojar
(Asabiy, ***Voqifning*** *ortidan)*
Tutinglar, tashlanglar uni zindonga,
Musibat bo‘lsin bu — Ozarbayjonga!

Vidodiy
Oltinni yutsayam qa'riga tuproq,
Uning oltiligi o'chmaydi biroq.
(Chiqadi)

Qojar
Quloq sol, bu yerda turma, Zulfiqor,
Voqifni zindonga sen o'zing obor.
Hatto qush kirmasin uning yoniga.

Darvozabon
(Ikki ma'noli qilib)
Xo'p, shohim, tun bo'yi mijja qoqmasdan,
Men uni asrayman hatto xor-xasdan...

Qojar
Mening vijdonim ham, yuragim ham qon,
Dunyo — qon ustiga qurilgan makon!

Vazir
Amringiz vojibdir, odil hukmdor,
Sizda fazilat ham, adolat ham bor...

Qojar
(Tentaklardek hayqiradi)
Tarqaling, tarqaling,
bo'g'ildim yana...
(Hamma chiqadi)

Qojar
(O'z-o'ziga)
Nima dey, nima dey qismatga mana?..
Ko'nglim yopishgandir xonumoniga,
Ko'zlarim to'ymas hech inson qoniga.

(Betoblik sezgandek, o'zidan shubhalanadi)

Bu nima, ne uchun tanimda titroq?
Eh-ha...muncha tubsiz bu jarliklar, boq?
Ko'zlarim tinmoqda... Evoh.. o'laman!
Ha... ha! Bu nimasi? Nechun kulaman?!
Yo gunohsiz qonlar ko'zga ko'rinar?
(Qon tomirini ushlab ko'radi)
Yo'q, hali yuragim bir tekis urar,
Xayriyat, o'lmayman! Hozircha sog'man,
Endi o'limniyam qoldirgum dog'da.

(Qilichini sug'uradi, biroq qo'llari madorsizlanadi, qilichga tayanib holsizlanadi.)

Parda

To'qqizinchi ko'rinish

Shusha qal'asi, qoyalikda zindon. Subhidam palla, quyosh endi ufqqa tirmashmoqda. ***Voqif*** *devorga she'r yozish bilan band, so'ngra yozgan she'rini o'qiydi,* ***Alibek*** *quloq soladi.*

Voqif
Men jahon mulkida mutlaq to'g'ri holat ko'rmadim,
Har na ko'rdim — egri ko'rdim, o'zga bobat ko'madim.
Oshinolar suhbatida ham sadoqat ko'rmadim,
Bay'at-u iqror, imon-u ham diyonat ko'rmadim,
Befvafodan lojaram tahsil-u hojat ko'rmadim.

Muxtasarkim, bo'yla dunyodan kerak etmoq hazar,
Chunki o'z o'rnida ermas bu zamon hech xayr-u shar,
Yaxshilar xoki mazallatda, yomonlar mo'tabar,
Sohibi zarda karam yo'qdir,
karam ahlida zar,
Ishda-yu tadbirda ahkom-u layoqat ko'rmadim.
(O'g'liga qaraydi)

Oh, o‘g‘lim, o‘zimning qag‘ramon o‘g‘lim,
Bu qadar g‘am yema, jonim, ko‘z nurim.

Alibek
Nelarni o‘ylaysiz, ota, otajon?
Zulm qarshisida yig‘larmi inson?

Voqif
Marhabo, marhabo, qahramon o‘g‘lim,
Qani kel, bir o‘pay, pahlavon o‘g‘lim!

(O‘g‘lini bag‘riga bosib, qattiq-qattiq o‘padi)

Ko‘zimning qorasi, jigarim, jonim,
Shu namxush yer bo‘lsin, mayli makonim.
Sira armonim yo‘q, sen yasha faqat,
Yuraging toshdanmi Qojar, beshafqat?!

Alibek
Ota, bilasizmi?

Voqif
Nimani, shunqor?

Alibek
Haliyam cho‘llarda kezadi Eldor —
Hov, eski do‘stingiz, ajoyib odam,
Zindondan qutqargan edingiz u dam.

Voqif
Bilaman, bilaman.

Alibek
Yozing Eldorga,
Dengki, tutqundaman, osmoqchi dorga,
Yordam ber!

Voqif
Yozaman, hozir yozaman...

(Yonidan daftar chiqarib, yoza boshlaydi)

Gulnor

(Shoshilinch kelib, darvozaboning qo'liga pul qistiradi, derazadan qaraydi.)

Alibek, hoy Ali!

Alibek
Otajon, Gulnor!

Voqif
Sevikli Gulnoring sadoqatli yor!

Gulnor
(Qo'lidagi tugunchani derazadan uzatadi.)
Oling, och qolmanglar...
(Yig'laydi)

Alibek
Yig'lama, Gulnor!

Voqif
Qizim, har kechaning bir kunduzi bor,
Yig'lama, sen borsan, bizning ko'ngil to'q.
Lekin sendan o'zga ko'makchimiz yo'q.
Mana bu maktubni qo'yningga yashir,
Ko'zing qorasidek asra-yu, shoshil.
Yetkaz, qayda bo'lsa, botir Eldorga.

Gulnor
Xotirjam bo'linglar.
(Yugurib chiqadi)

Voqif

(O‘g‘liga)

Qara Gulnorga,
Otalar so‘zi bor, deydilar, xullas,
Sherning urg‘ochisi, erkagi bo‘lmas!
Do‘stlar qutqarishar bizni bu dordan,
Taqdir ajratmasin seni Gulnordan.

(Chiqib kelayotgan kunga shoirona suqlanadi)

Qara, oftobning rangiga qara,
Undan yorishadi, dala, tog‘, dara!
Shu quyosh yoshlikning bir timsolidir,
Yoshlikning quyoshi qoraymas hech bir.
Umring kamol topsin misoli oftob,
Ko‘rmagin, bolam hech dard-u iztirob!

*(**Alibek**ning boshini ko‘ksiga bosib, erkalaydi.**Vidodiy** kirmoqchi bo‘ladi, darvozabon yo‘lini to‘sadi)*

Zulfiqor

To‘xtang, kirish mumkinmas,
Yo‘q, dedimmi, to‘xtang, bas.

Vidodiy

Axir uni ko‘rish kerak.
Ko‘r aylasini seni falak,
Meni ortga qaytarsang!
(Darvozabon eshikni ochadi)

Zulfiqor

Tezroq kirib chiqing, og‘a,
Xabar yetib qolar shohga.
Busiz hamki turqi yomon,
Xo‘p, quturgan, non, suvi — qon!

(**Vidod**iy kirib, **Voqif**ni bag‘riga bosadi)

Vidodiy
Qanchalar yolbordim yana Qojarga,
Dedi, ket, seniyam osaman dorga.
So‘ngra uzzu tuni xayolga bordim,
Ollohga yuz tutib rosa yolbordim...
Biror naf kelmaydi Sizga qo‘limdan,
So‘zim yerda qoldi...Tirik o‘ldim, man!

Voqif
Og‘ajon, sen unga yalinding bekor,
U dili buzuqqa so‘z qilmasdi kor.
O‘limdan qo‘rqmayman, bilsang sira ham,
Meni yuragida saqlaydi olam!

Vidodiy
Yo‘q, yo‘q, o‘lim senga yarashmaydi hech!

Voqif
Vidodiy! Bu safar, endi mendan kech,
Qishloqqa ketaqol, qo‘rqaman sandan,
Yana Vidodiysiz qolmasin Vatan...

Vidodiy
Nima? Men ketaymi? Qayga boraman,
Sen o‘lgan tuproqda men ham qolaman!..

*(**Darvozabon Vidodiyni** tortib-tortib olib ketadi. **Voqif** xayolga toladi)*

Alibek
Ota, Vidodiyga qoyilman, qoyil,
U kuyib —yonmoqda sizga astoydil.
Qanday pok, ulug‘vor tabiati bor,
Shu kabi bo‘lsaydi hamma vafodor...

Voqif
Sodiq vafodorlar yaralar kam-kam,
Inju uchramaydi har yerda, bolam.

(Pauza. Hazin kuy eshitiladi. ***Xiromon*** *pajmurda va nihoyat horg'in kiradi)*

Xiromon
(Zaif tovush bilan)
Voqif, ey sarvarim, manim tojdorim!

Voqif
(Achchiq bir faryod bilan)
Tinchlikmi, gapir ey, bevafo yorim?

Xiromon
Uchdim bu dunyoda noz-u ne'matga,
Ko'zimni tindirgan yovuz shuhratga.
Bilmadim, so'ngida zahri borligin,
Oltinli xazina zahri norligin...
Endi o'z qo'ling-la, kel, o'ldir meni,
Qanchalar xo'rlandim, xo'rladim seni...

Voqif
(Yanayam shiddatli)
Ket, ket, vafosizsan bu dunyo kabi,
Ko'zimga ko'rinma, bir ro'yo kabi.

*(****Xiromon*** *ma'yus va pushaymonli bir kayfiyatda chiqadi, uzoqdan uning g'amgin tovushi eshitiladi.)*

Jayron edim, hurkitdilar yotog'imdan,
Bir qush edim, judo bo'ldim qo'nog'imdan,
Shamol essa, yaproq uchar, chechak so'lar,
Bir vayrona qoldi aziz gulbog'imdan.

Voqif
(Bu kuydan ta'sirlanib)
Shunday, yer yuzining ashrafi inson
Yaratar kunda bir hijronli doston.

Nimaydi sho‘rlikning axir gunohi?
Endi bo‘ladimi cho‘llar panohi?
Inson, u muqaddas ajib koinot,
Uning qalbin buzgan faqat shu hayot...

(Tez, derazadan)

Hoy soqchi, tez chaqir, to‘xtasin ayol!
Alibek, qo‘shig‘i meni qildi lol...
Gog‘ida yanglishsa go‘zal bir malak,
Undan nafratlansa har tirik yurak
Bunga aybdordir, shubhasiz, zamon...

Darvozabon

(Qaytib)

Qoyadan tashladi o‘zin Xiromon...

Voqif

(Ikki qo‘li bilan boshini changallab, faryod ko‘taradi)

Oh...yoril, yuragim, sho‘rlik Xiromon!
Bizning sevgimizni mahv etdi zamon...

Parda

BESHINCHI PARDA

O‘ninchi ko‘rinish

*O‘rmon. **Eldor**ning yigitlari safi bu gal yanada ko‘proq ko‘rinadi. **Eldor** qoya ustida turib, daraga tikiladi. So‘ngra oyog‘i ostidagi qoyaga qarab qoladi.*

Eldor
Mana, Qiz qoyasi- hijron qoyasi,
Boshida charx urgan o‘lim soyasi.

Bag‘riga qadalsa gar sovuq shamol,
Oh urib, uf tortib bo‘lgandir behol...
Uning bu dunyoda haqi ko‘p hali,
Dardini sezmabdi ko‘kning qamari.
Yolg‘iz hamdamiydi u xira shamlar,
Hijrondek anduhli g‘arib oqshomlar.
Oh, sho‘rlik onalar, oh, jasur Vatan,
Boshingga nimalar tushmadi ekan.
Qilichlar, nayzalar, temir qalqonlar,
Ko‘ksingda ot chopgan shohlar,
hoqonlar
Seni parchaladi, titdi qatingni,
Qalbingni, hisingni, muhabbatingni.

Arshak
Ha, Eldor, o‘ylanib qolibsan?

Eldor
Arshak,
Bu qorong‘u daralarga bir qara!

Arshak
Ko‘rganman, netayki suvga zor dara.

Eldor
Qara, suyaklarga, yaxshilab qara,
Kallalar, oyoqlar, qo‘llar... bari bor...

Arshak
Shularni ko‘rmasam koshkiydi, Eldor,
Bu cho‘llar qalbimga beradi ozor..
Nazdimda, o‘t yog‘ar yana havodan...

Eldor
Dardingni bilaman, Sayat-Novadan
Bir juft keltirmasang, tinchimaysan, ha,
Qani, bir eshitay, o‘qi baralla!

Arshak
(Sayat-Novadan o‘qiydi)

Eldor
Ko‘p yaxshi yozarkan... tuzli, mazali...
Oshiqni yaratar ellar go‘zali.

Arshak
Eldor, nima bo‘ldi Muhammad Qojar?
Qani och, bor bo‘lsa bir rejang agar.

Eldor
Qojar bu orada ko‘p to‘kdi qonni,
Kurd Musa axtarar Ibrohimxonni.
Qayerda bo‘lsayam topadi beshak,
Qojarni yo‘q qilib kurash bitajak.

Arshak
O‘sha zaharladi qirni, uvani
Soz chalib, she’r aytgan Sayat — Novani.

Tiflisda shu bo‘ri o‘ldirdi, evoh...
Ilonga o‘xshagan shu mash’um arvoh...

Eldor
Shu zolim Qojarni yakson etsaydim...

Arshak
Gurjilar ko‘makka tezroq yetsaydi!

Eldor
Shaksiz kelishadi!

Temur
Kelyapti, eh-hey!..

Arshak
Ka-attakon bir qo‘shin kelyapti, Eldor!

Eldor
Musa-ku, chaqir-chi!

Arshak
Qojar bo‘lmasin?!

Temur
Yomon kelyapti-ku, o‘rab olmasin...

Eldor
Arshak, sen daraning hov og‘zida tur,
Temur, tog‘ ortida...

Temur
Keldi, o‘shadir.

Eldor
Echkining ajali yetgan bo‘lsa gar,
Cho‘pon cho‘qmoriga o‘zi suykalar.

Kurd Musa

(Uzoqdan qiyqirar)

Hoy, Eldor, gurjilar kelishdi.

Eldor

Eldor, nima gurjilarmi?

Kurd Musa

O‘shalar, shunqor!

Eldor

(Gurjilarga peshvoz chiqadi)

Bu tog‘lar — sizniki, aziz qardoshlar,
Xalqimiz nomidan quchaman sizni,
Ozodlik istagan yuragingizni.

(Ko‘rishib, o‘pishadilar)

O‘tiring, o‘tiring dam oling biroz

(Hamma o‘tiradi)

Shu damda yuragim ming sadafli soz,
Ko‘pdan kutganim shu birodarlikning
Qudrati, do‘stlarim shu tog‘lar qadar,
Endi chidab ko‘rsin,
Muhammad Qojar!..

Eldor

(Tamaraga)

Opajon, siz nega qaytdingiz yana?

Tamara

Beri kel, quloq sol qalbimga, mana,
Bu ona yuragi, uni, uka yor,
Ko‘rasan, qanday dard, qanday yara bor!

Eldor

Dardingiz bormidi, gapiring, qani!

Tamara
So‘ldi yoshligimning yolg‘iz chamani,
Ko‘zimning nuridek bolam bor edi,
U bilan bir umr baxtiyor edim.
Evoh, o‘ldirdilar uni bir kuni,
Qulog‘imdan ketmas bolamning uni.
Qojar bu dunyoni menga qildi tor,
Uni topsang agar, menga ber, Eldor!
Bo‘g‘sin bu qo‘llarim qonli murdorni,
Bir ona qalbining hasrati, zori!

Shaliko
Oh, Eldor, rostdan ham Muhammad Qojar
Tiflisga butunlay o‘t qo‘yib o‘tdi,
Inson shaklidagi o‘sha shum ajal
Issiq qonimizga xo‘p to‘yib o‘tdi.
Yondi shahardagi ne-ne xonalar,
Bag‘rida bolasi, yondi onalar.
O‘zim hammasini ko‘rdim, qardoshim,
O‘zim uzsam, deyman Qojarning boshin!..

Eldor
Mayli, xafa bo‘lma, aziz qardoshim,
Ezamiz, shubhasiz, ilonning boshin.

Arshak
Shaliko, Shaliko, kuch —qudrat bizda,
Dunyoning jilovi shu qo‘limizda.

Kurd Musa
Do‘stlar, ko‘pirtirmang siz qoningizni,
Dushman egallamay to‘rt yoningizni.
“Qojar” deb qoldingiz, muncha talvasa?
Elning taslim bo‘lmas qo‘rg‘onimiz, ha!

Eldor
Bo‘lmasa mashq bilan qanaqa orang?

Kurd Musa
Joyida, hazir bo'l,
tuzalmas yarang...

Eldor
Eh-he... Buni qara,
Qara- ya, Arshak!
Chiqar qilichingni, norasta go'dak!

Arshak
Chaling, burg'u chaling!

(Kuy. ***Eldor*** *bilan* ***Kurd Musa*** *qilichbozlikka tushishadi.)*

Kurd Musa
Kaklik yemabmiding, ma'lum yuzingdan!

Eldor
Senga yediraman, chiqsin ko'zingdan!

(Musiqa. Qilichbozlik davom etadi. Ikki taraf bo'lib kurashadilar. ***Shaliko*** *o'rtaga qilichini tutib, ularni ajratadi)*

Shaliko
Azizlarim,
Bu — zap hazil!
(Kulgi)

Tamara
To'g'risi, Eldor,
Bu shamshir jangiga mahorating bor.

Kichik gurji
Tog'lar silsilasin yo'lbarsi sensan!

Eldor
(Bir gurji qo'lidagi chungirini ko'rib qoladi)
Bu nima?

Gurji
Chungiri deymiz otini.

Eldor
Chalsang-chi qotirib!..
So'limdir tog'larning sarin havosi,
Chal, unga qorishsin, gurji navosi!..
*(**Gurji** kuy chaladi)*

Tamara
(Rustavelidan o'qiydi)
Ta'rif etsak Tamarani, oqar tinmay ko'zyoshlari,
Azal-boshdan g'azal yozib, u dildorni maqtardim, oh,
Siyohimdir qora ko'llar, qalamim ko'l qamishlari,
Bular tirik yuraklarni nayza kabi teshadi goh.

Rustaveli — men, ishq uchun jon baxsh etdim bu asarga,
Men Majnunman qo'shinlarning
boshlig'i bo'lgan dilbarga,
Muhabbatning davosi yo'q, yugursam-da tabiblarga,
Yo jon bersin jonon menga, yo topshirsin qora yerga.

Eldor
Ayting, Rustaveli kim bo'lgan o'zi?

Tamara
Gurji she'riyatin u ilk yulduzi.

Eldor
Qara, uni tuqqan qanday baxtiyor,
Bizning Nizomiydek zap qalami bor.

*(O'yin boshlanadi. Uzoqdan o'q ovozi eshitiladi. Gulnor kiradi, hamma oyoqqa qalqadi. **Eldor** peshvoz yuradi. **Gulnor** ro'molini yechib **Eldor**ning yoniga o'tadi, unga bir maktub uzatadi. Hamma hayrat bilan ularga qaraydi.)*

Gulnor
Ol, og‘ajon Eldor, ol,
Voqifdan senga xat bor.

*(**Eldor** xatni olib, baland ovozda o‘qiydi. Hamma e’tibor bilan quloq soladi)*

Eldor
“O‘qi bu xatimni, azizim Eldor,
Dardimni tinglasin tog‘lar ham takror.
Bir uchqur xayolli, qalbi xastaman,
Hozir bulbulsifat tosh qafasdaman...
Qonxo‘r Qojar tashlab meni zindonga,
Qabohat nishini urdi bu jonga.
Kel, yiqit, yo‘q bo‘lsin bu tosh qafasi,
O‘lmasin shoirning bu rostgo‘y sasi.
Gar sen qutqarmasang Voqifni dordan,
Umidim birgina parvardigordan...”

*(Har yondan **Qojarni** qoralagan nafratli so‘zlar eshittiladi. Hammada hayajon)*

Eldor
Oh...yana boshimga yugurmoqda qon,
Qarang,
hech loyiqmi Voqifga zindon?!

(Bu orada nuroniy bir chol, hamqishloqlari bilan kelib qoladi)

Chol
Qay biringiz Eldor?

Eldor
Menman, otaxon!

Chol
O‘g‘lim, oting tushmas sira tillardan,
Yorug‘ kun tilaysan hamma ellarga.

Senga munosib bir ajib sovg‘am bor,
Menga ham otamdan edi u yodgor.

Eldor
Nimaykan u, otaxon?!
*(**Chol** yopinchig‘ining tagidan bir qilich chiqaradi)*

Chol
Eshit, misriy qilich deydilar buni,
Sodiq qo‘riqlagan ona yurtini.
Buyuk Go‘ro‘g‘lilan qolgan bir yodgor,
Qara, dastasida barmoq izi bor.
Ol, o‘g‘lim, joningdek asragil uni,
Qalbingda saqlagin, alp Go‘ro‘g‘lini!
Senga tegolmaydi na xon, na podsho,
Yolg‘iz yo‘qsillarning dardi-la yasha!
Yovni urgan qo‘ling bir cho‘qmor bo‘lsin,
U zolim Qojarga dunyo tor bo‘lsin!

*(**Eldor** qilichni oladi, hurmat va ehtirom bilan unga bir zum tikiladi, so‘ng tiz cho‘kib, qilichni o‘padi.)*

Eldor
G‘irotning yoliga o‘ralib yotgan,
Xon, boylar yuragin rosa o‘ynatgan,
Zolimga dahshat-u bizga shon qilich,
Ozodlik yo‘lida to‘kkan qon qilich!
Shoshmasin endi Qojar,
Hujum bor, burg‘uni chal!

*(Qurollar ko‘tariladi, “Urra!” sadolari yangraydi. **Eldor**ning barcha yigitlari hujumga otlanadi.)*

Parda

O‘n birinchi ko‘rinish

Shusha qal’asi, uloq maydoni. Quyosh botayotgan palla. ***Ikki nafar cho‘pon*** *qoyaga suyanib o‘tirishibdi. Ularning biri nay chaladi.*

Murod
Qosim!

Qosim
Labbay, Murod?

Murod
Bu dunyodan dod!
Qandoq kelgan bo‘lsak, eh, shundoq o‘tdik,
Na yorug‘ kun ko‘rdik, na kamga yetdik...

Qosim
Xo‘sh, o‘zi nima gap?

Murod
Nima gap, nima gap?
Qojar ish bitirar, biz tursak qarab!

Qosim
Qanday ish?

Murod
Voqifni o‘ldirmoqchi u ...

Qosim
Yo‘g‘-e, bu haddan oshgan zo‘rlik-ku?

Murod
Esipast, to‘g‘ri gap!

Qosim
Voy, seni... Kim aytdi,
Bor gapmi, oh, qalbim zirqirab ketdi.

Murod
Bor gap, o‘ldirmoqchi Mulla Panohni...

Qosim
Nimaykan sho‘rlikning axir gunohi?

Murod
Gap borki, Voqifga Qojar bir kuni
Debdi, chuvrindidan chiqarmi shoir?
Voqif ham qotirib hajv qilgan uni,
Shunga achchig‘lanib, shoh osayotir.

Qosim
Yoqimli ovozing bor, seni, Murod,
Uning so‘zlaridan o‘qib, qilgin yod.

Mu r o d

(O‘qiydi)

Xumor-xumor boqmoq ko‘z odatidir,
Loladek qizarmoq yuz odatidir.
Parishonlik zulfning o‘z odatidir,
Na bodi sabodan, na tarog‘dandir.

Qosim
(Tizzasiga urib)

Voy, sening ko‘zlaring ko‘r bo‘lsin, Qojar,
Qara, bu Voqifni qaysi ko‘z qiyar?!

(Atrofga hayrat bilan tikilib)

Murod, keltirishdi, ana, qara- boq.

Murod
(Hayratlanib tikiladi, isyonkor bir tovush bilan, ko‘kka yuzlanadi)
Ey falak, ey dunyo! Ey qonli chanoq!

(**Shayx** bir to‘da odamlar bilan **Voqif** va o‘g‘li **Alibek**ni keltiradi.)

Shayx
To‘xtang!

Alibek
(Kesatib)
Turgan odam qanday to‘xtaydi...

Shayx
O‘g‘lim,
yaratganning kuchin ko‘rsayding!

Alibek
Nega imillaydi, tez kelsin jallod!
Sen ko‘p valdirama, sotilgan olchoq,
Seni ham yutadi shu qora tuproq!..

Shayx
Kofirni qaranglar,
Astag‘furulloh!

Voqif

(Botib borayotgan kunga hasrat bilan tikiladi, so‘ngra o‘g‘liga qarab)

Quyosh g‘arbga enar...so‘nar koinot,
Azaldan shunaqa vafosiz hayot.
(Quyoshni ko‘rsatib)
U manim umrimning timsoli, qara,
So‘ngan bir borliqning xayoli, qara.
Men ham yaratildim, men ham porladim,
Go‘zallar tilidan tushmadi otim...
Endi-chi, urildi toshga yelkanim,
G‘urubga enmoqda hayotim manim.
O‘g‘lim, tinchimayman,
bor ekan kuchim,
Seni o‘ldirmoqchi, faqat men uchun!
Ustimga yiqilsa, eh, tog‘lar shu tob!!

Alibek
Ota, vijdoningiz xuddi bir oftob —
Kiftida el dardin tashiydi doim,
Bu dunyo turguncha yashaydi qoyim!..

Vidodiy
(Orqadan)
Voqif!

Voqif
Vidodiy, qardoshim, ko'ray so'nggi gal,
Bizni ajratmoqda bemavrid ajal!..

Vidodiy
Ko'zlarim ko'r bo'lsin, nalar ko'raman,
Quyoshi tutilgan sahar ko'raman...

*(**Voqifni, Alibekni** chekka-chekkaga olib boradilar)*

Voqif
Yig'lama, qardoshim, sen yasha, yarat!
Yaqindir biz kutgan u -ozod hayot.

Vidodiy
(Ko'kka qo'l ko'tarib)
Suf sening taxtingga, ey charxi falak,
Toshdan emasdi-ku, axir bu yurak!..
(Jallodlar kelishadi)

Shayx
Kalimayi shahodat o'qilsin tezroq!

Voqif
(O'g'lini bag'riga bosib,
jallodga yuzlanadi)
Nima bo'lsayamki, insonsan, jallod,
Odamga jondan ham shirindir avlod.

Meni cho‘chitmaydi bemavrid ajal,
Insof qil, birinchi menga qo‘l ko‘tar...
Ko‘zlarim ko‘rmasini bolam qonini,
Buzma bu ko‘nglimning xonumonini!

Shayx

(Kinoya qiladi)

Shoir, rangingizda so‘lg‘inlik yotar?

Voqif

G‘ofil, oftob degan sarg‘ayib botar!

Shayx

Bu foniy olamni, shoir, unuting,
Endi yuzingizni qiblaga tuting!

*(**Jallod Alibek**ni tortadi, **Voqif** uni qo‘yib yubormaydi)*

Voqif

Oh...qonli ko‘zlaring ko‘r bo‘lsin, jallod,
Senga aytmabmidim, shirin, deb avlod?!

*(Burg‘i chalinadi, **Qojar** keladi, balandroq joyda to‘xtaydi)*

Qojar

Eh-ha ...buyuk shoir!

(O‘z odamlariga qarab)

Endi, qashqirlarim, qattiq turasiz,
Bunda kallalardan qal’a qurasiz.
Ko‘kka nayza uzra qadalsin boshi,
Tagida daryodek oqsin ko‘zyoshi...
Uning cho‘qqisiga yolg‘iz, ha, yolg‘iz
Voqifning boshini qadab qo‘yasiz.

Vidodiy

Hukmdor! Bu zamin, bu ko‘kka qara,
Motamdan atrof ham, bulut ham qora.

Voqif farzandidir, abadiyatning,
U o'lmas tilidir she'rning, san'atning.
Senga yalinaman, o't solma jonga,
Qo'llaring botmasin gunohsiz qonga!

Voqif
Yalinma, yalinma u jallodga san,
Hali bosh egmaydi bu buyuk Vatan...

Qojar
*(**Vidodiyga**)*
Ko'rdingmi, shu erur battol dushmanim,
Uni yondirishga haqqim bor manim.
Tez bo'ling, jallodlar!

Vidodiy
Yo'q, yo'q, odam bo'lsang, shoh, buyur yana,
Jallodlar meni ham chopsinlar, mana...

*(Jallodlar bilan **Voqif**ning o'rtasiga tushadi. Bu orada shovqin-suron ko'tariladi. **Eldor**ning yigitlari hujumga o'tishadi. Jang-jadal yaqinlashadi.)*

Vazir
Shohim, ustimizga kelmoqda Eldor,
Qochaylik, bo'lmasa, dunyo bo'lar tor.

Qojar
Yo'g'-ye, botinarmi bir qaroi, qani,
Mendek jahongirga hujum qilgani!

*(**Jallod Alibek**ni chopmoqchi bo'ladi.)*

Murod
(Do'stiga)
Kelishdi, ana!

(Jallodning boshiga cho'qmor bilan tushiradi, jallod yiqiladi. ***Eldor, Kurd Musa, Gulnor, Shalikolar*** *oldida kirishadi.* ***Eldor****ning qo'shini ko'rinadi.)*

Qojar
Tuting, tirik tuting, keldi fursati!

*(****Vidodiy Voqif****ni quchoqlab chetga olib o'tadi.* ***Alibek Gulnor*** *bilan ko'rishib, uning miltig'ini oladi-da, oraga kirib ketadi.Shiddatli jang boradi.* ***Eldor*** *qilich jangida saroy kishilarini yorib o'ta boshlaydi)*

Qojar
Bo'lmaydi urushga kirmasam o'zim !

*(****Eldor*** *ilgari chiqadi,* ***Shayx*** *va* ***Vazir*** *qochib qoladi,* ***Alibek Shayx*** *ni urib, qoyadan qulatib yuboradi)*

Eldor
*(****Qojarga*** *so'z qotadi)*
Qani, kel, urish,
Orqadan urish
Yigitga yarashmas!

Qojar
Bo'ldi, yaramas!
Men Qojar avlodi- shohlar shohiman,
Butun yer yuzining pusht-panohiman!

Eldor
Kela qol, kambag'al,
qishloqi — men ham,
Shoh-la urishaman o'rni kelgan dam...

(Shiddatli qilichbozlik boshlanadi)

Qojar
Men-la olishgani Go'ro'g'li kelsin!

Eldor

(Kinoya qiladi)

Eh-he... shunday degin,
qutirgan shersan!

*(**Eldor Qojarni** yaralaydi, biroq jang yana davom etadi, birdan **Eldor**ning qilichi qo'lidan uchib ketadi.)*

Qojar

(To'xtab kuladi)

Voh..voh...
Onang kelsin endi qoshingga!

Eldor

(Yopinchig'i ostidan misriy qilichini chiqaradi)

To'xta, misriy qilich tushar boshingga!

Qojar

(Shoshib)

Nima? Misriy qilich?
Nima? Go'ro'g'li?

*(**Eldor Qojarni** yana qilich bilan uradi. **Qojar** qilichini tushirib yuboradi. Darvozabon yaqinlashib, unga orqasidan xanjar uradi)*

Qishloqlik chol

*(**Qojarning** murdasiga masxaraomuz nazar tashlaydi)*

Bu tog'lar qo'ynida arslon yotarmish,
Bunda Go'ro'g'lilar ot o'ynatarmish.

Eldor

Ezildi zaharli ilonning boshi,
Buzing saroyini el keksa, yoshi.
Boyligin ulashing, och, yo'qsillarga,
Bugun bayram bo'lsin g'arib dillarga.

Shaliko
Qardoshlar, birgina Qojar o‘ldi, xo‘p,
Qojarlar dunyoda hali juda ko‘p.
Ularning ildizin kesadi yolg‘iz
Bizning bu buzilmas qardoshligimiz!

(**Vidodiy** bilan **Voqif** kirishadi, hamma hurmat bilan ularga bosh egadi)

Eldor
Muhtaram shoirga omad yor bo‘lsin,
Umri dunyo qadar poyidor bo‘lsin!

Vidodiy
Bizning sher yonida bo‘pti pildir-pis,
Eron tuprog‘ini bulg‘agan iblis.

Voqif
(Vidodiyga)
Ey Vidodiy, gardishi davroni kajraftorni ko‘r,
Ro‘zig‘orni qil tomosha, korni ko‘r, kirdorni ko‘r!
Zulm ahlin qara, barbod ayladi bir lahzada,
Sen buyuk tog‘lar bolasi — qahramon Eldorni ko‘r!

(**Eldor** ehtirom bilan **Voqifning** qo‘lidan o‘padi, xalq uni shodu xurramlik va tantana bilan qatl maydonidan olib chiqadi)

Parda

MUNDARIJA

Elparvar shoirning o'lmas merosi *(Muhiddin Omon)* 3
Samad Vurg'un haqida so'z *(Maqsud Shayzxoda)*..... 5

"Tanlangan asarlar" kitobidan

Qutlash. *Ahmad Bobojon tarjimasi*..... 8
Tarona. *Mirtemir tarjimasi*..... 9

Yevropa xotiralari

Vatanni sog'inish. *Mirtemir tarjimasi*..... 10
Reyxstag. *Mirtemir tarjimasi*..... 12
Rassomning so'nggi asari. *Mirtemir tarjimasi*..... 14
Ziyofat. *Mirtemir tarjimasi*..... 17
Islom *(Ballada)*. *Mirtemir tarjimasi*..... 19
Eduard Maze. *Ahmad Bobojon tarjimasi*..... 24
Tabrez go'zaliga. *Ahmad Bobojon tarjimasi*..... 27

Poemalar

Negrning orzulari. *Nasrullo Oxundiy tarjimasi* 30
Toliston. *Mirtemir tarjimasi*..... 43
Dor yog'ochi. *Mirtemir tarjimasi*..... 51

"Yurakdagi she'r" kitobidan

Razzoq Abdurashid tarjimalari
"Men suhbat ochmayin..."..... 57
Ozarbayjon..... 58
Bizning yoshlik..... 62
To'rt so'z..... 65
Sadoqat..... 69
Yayrang, o'ynang, avlodlarim..... 71
Butun Boku yuragimda bir she'r bo'lur..... 74
O'ylar..... 75
Bahor orzulari..... 79

Menga shunday dedilar....81
Shoir, nechun qariding tez?....85
Muhabbat ilhomga undaydir mani....87
Hayot falsafasi....90
So‘zning shuhrati....93

“To‘rt so‘z” kitobidan

Razzoq Abdurashid tarjimalari

Shoshmasman....96
She’rim....98
Ona....99
“Kel, jahon sayriga kel...”....100
“Men tortgan azoblar bir yonda tursin...”....101
Motam kuyi....102
Tarlonim....103
“Bu yurak chayqalar..”....104
“Beri kel, go‘zal qiz...”....105
Bir qatra yosh....106
Sahar-sahar....107
Jayron....109
Kula-kula....111
Ko‘zlar....112
Nasibamiz — saodatdir....113
So‘z ochgil....115
“Sen kelganda bizning bog‘da”....116
Qahramonning o‘limi....117
Rubobim....118

G‘azallar

“Ey ko‘ngul...”....119
“Har chaman, har bog‘chaning...”....120
“Maysiz, nash’asiz jon ila....”....121
“Agar sendan tonar bo‘lsam....”....122
Xonim....123
Unutilgan yolg‘iz qabr....124
Xovarga....128

Yigirma besh bahor....129
Xayol....131
Shodlik....133
Lazgin qizi....135
Bayroqdor....136
Darmon bering....142
Yondirilgan kitoblar....143
Ona haykali....145
"Qorayozan o'rmonida anodil degan..."....147
To'rtliklar....148
Paxtalik....149
Musofirlikda....151
Yodga ol mani....152
Kavkaz....153
Humoy *(dostondan parcha)*....156
Go'zallik va muhabbat....162
Humoy o'ylanadi....164
Dastlabki uchrashuv....165
Intizor....172
Achchiq xabar....175
Humoyning o'limi....179

Dramatik doston

Voqif *(dramatik doston)*....186

S 28 Samad Vurg‘un [Matn]: nazm / to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Muhiddin Omon. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 304 b.
ISBN 978-9943-8733-0-8

UO‘K 821.512.162-3
KBK 84(5Ozar)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

SAMAD VURG‘UN

63-jild


Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Sunnat Xo‘jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 19,0. Nashriyot-hisob tabog‘i 13,78.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 130-1/22. Buyurtma raqami № 22-346

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.



SAMAD
VURG'UN